

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Sultonbek Normamatov

**ABDULLA AVLONIY
SHE’RIYATI LEKSIKASI**

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 821.512.133

KBK: 83.3

N 79

Normamatov Sultonbek.

Abdulla Avloniy she’riyati leksikasi [Matn]: monografiya / S. Normamatov. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 126 b.

Mazkur monografiyada Abdulla Avloniyning lingvistik qarashlari, she’riyati leksikasining lug‘aviy, ma’noviy hamda uslubiy xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Unda XX asrning 20-30-yillaridagi lisoniy jarayon, shuningdek, Abdulla Avloniy she’riyati leksikasining lug‘aviy tarkibi, shoir qo‘llagan so‘zlarning ma’noviy xususiyatlari qayd etilgan. Shoir she’riyatining lug‘aviy tarkibi zarur o‘rinlarda o‘zbek mumtoz adabiyoti leksikasiga qiyoslangan holda tahlil qilingan hamda ular orasidagi umumiylik va farqli jihatlar belgilangan.

Monografiya umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey o‘qituvchilari va o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talaba va muallimlari, umuman, “Badiiy adabiyot tili va uslubi” masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Filologiya fanlari doktori, professor **Samixon Ashirboyev**

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari doktori, professor **Zulxumor Xolmanova**

Filologiya fanlari doktori, professor **Azamat Pardayev**

Uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 7-maydagi 2-sonli majlisi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-591-0

© Normamatov S., 2025.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI.....	4
KIRISH	7
ABDULLA AVLONIY IJOD QILGAN DAVRDAGI IJTIMOIIY- LISONIY VAZIYAT VA ADIBNING LINGVISTIK QARASHLARI	28
Umumturkiy til yaratish g‘oyasi va davr tilida yuzaga kelgan ba’zi lisoniy xususiyatlar.....	48
ABDULLA AVLONIY SHE’RIYATI LEKSIKASINING LUG‘AVIY TARKIBI VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI	62
Abdulla Avloniy she’riyati leksikasining lug‘aviy tarkibi	62
Abdulla Avloniyning so‘zlarni ko‘chma ma’nolarda qo‘llash mahorati.....	75
Okkazional so‘zlar	88
ABDULLA AVLONIY SHE’RIYATI TILIDA FOYDALANILGAN BA’ZI USLUBIY VOSITALAR.....	94
Frazemalar	94
Maqollar	96
Uyushib kelgan so‘zlar.....	101
So‘zlarning talaffuz variantlari	104
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	113

SO‘ZBOSHI

Mustaqillik davri, barcha fanlarda bo‘lgani kabi, o‘zbek tilshunosligi oldiga ham yangi talablarni qo‘ydi. O‘zbek tilshunosligi o‘zining keyingi davr rivojida mana shu talablarga ham nazariy, ham amaliy jihatdan javob berishga intilmoqda. Bu quyidagi holatlarda yorqin ko‘rinadi:

1) o‘zbek tilini tadqiq qilishning yangi, samaraliroq usullari axtarilmoqda, tadqiqotlar lingvistikaning zamonaviy, ilg‘or nazariy usullari asosida olib borilmoqda;

2) o‘zbek milliy tili, adabiy tilining avvallari sho‘roviy mafkura ta’sirida chetlab o‘tilgan, tadqiq qilinmagan bosqichlarini, ayniqsa, o‘tgan asrning 20-40-yillar davrini jadal ravishda o‘rganishga kirishildi. Avval bajarilgan tadqiqotlarda oldinga surilgan nazariy qarashlar, tadqiq metodlari tanqidiy baholanmoqda¹;

3) nazariy tadqiqot natijalarini nutqiy amaliyotga tatbiq etishning samarali usullarini ishlab chiqishga alohida diqqat qilinmoqda;

4) faqat tilni, til materialini o‘rganish emas, balki o‘zbek tilini bir asrdan beri sistemali ravishda tadqiq qilib kelayotgan fan – o‘zbek tilshunosligining tarixini ham tahlil qilish, uning yutuqlarini ilmiy umumlashtirish ishi ham boshlandi;

5) endilikda o‘zbek tili o‘zbek xalqi madaniyati va ma’naviyatining tarkibiy qismi, ularning shakllanishi va kamol topishida muhim rol o‘ynaydigan vosita sifatida uzil-kesil tan olindi. Миллий тараққиёт миллий тил мавқеи ва нуфузи юксалишида кўзга яққол ташланади.

“O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda”².

O‘zbek milliy tilining shakllanishi va rivojida o‘zbek tilining XX asr 20-30 yillar davri alohida o‘rin tutadi. O‘zbek milliy tili, uning

¹ Қаранг: Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008-2010 йил сонлари.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сонли “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги қонуни қабул қилинганлигининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги қарори // “Маърифат” газетаси. – Тошкент, 2019 йил 5 октябрь. – №77.

asosini tashkil etuvchi yangi o'zbek adabiy tili qanday asoslarga tayangan holda rivojlanmog'i kerak deyilgan masalada o'sha davrda xilma-xil qarashlar va harakatlar oldinga surilgan edi. Mana shunday g'oyat dolzarb, ham nazariy, ham amaliy, qolaversa, madaniy-ma'naviy ahamiyatga molik ushbu murakkab masalaga o'zbek tilining 20-30 yillar bosqichi xususiyatlari javob beradi. Afsuski, sho'rolar mafkurasi hukmron bo'lgan davrda o'zbek tilining ushbu davr bosqichini keng o'rganish imkoniyati bo'lmadi. Chunki fikr yuritilayotgan muammo yuzasidan o'sha davrda Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Elbek, Miyon Buzruk, Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi adiblar o'z fikrlarini oldinga surishgan edi. Ushbu qimmatli lisoniy merosni keng tahlil qilish sho'rolar davrining "til siyosati"ga to'g'ri kelmas edi. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi bu to'siqlarni bartaraf qildi. Keyingi yillarda Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Behbudiy, Elbek, A.Zohiriylarning badiiy asarlari tili va til haqidagi qarashlarining ilmiy tadqiq qilingani mana shu imkoniyatning samarasidir. Biz tilga olayotgan davrda ijod qilgan adiblarning ko'plari ham yozuvchi, ham shoir, ham zukko tilshunos bo'lishgan. Mana shular orasida ulkan ma'rifatchi, shoir, dramaturg, axloqshunos va pedagog Abdulla Avloniy ham alohida o'rin tutadi. Abdulla Avloniy ijodi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qoniqarli o'rganilgan¹, uning asosiy asarlari nashr etilgan.² Ammo adib asarlarining badiiy tili ba'zi ishlardagi juz'iy xarakterdagi fikrlar istisno qilinsa, lisoniy nuqtayi nazardan o'rganilgan emas. Holbuki, Abdulla Avloniyni she'riyati, ma'rifiy-pedagogik asarlari, dramalari tili o'sha davr o'zbek adabiyoti va adabiy tili leksikasi hamda terminologiyasi rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'lib, uni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish XX asrning 20-40-yillar davri o'zbek adabiy tilining rivojlanish va boyish tendensiyalarini belgilashda qimmatli va munosib material bera oladi. Shu sababli biz adibning she'riyati tilini lisoniy aspektda o'rganishga jazm qildik.

¹ Қосимов Б. Адабиёт ва инқилобий ҳаракат (айрим мулоҳазалар) // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1984. – №1; Ўша муаллиф. Ҳаёт кўзгуси (адабий-танқидий мақолалар). –Т.: Адабиёт ва санъат, 1984; Ўша муаллиф. Абдулла Авлоний // Миллий уйғониш. – Т.: Маънавият, 2002. –Б. 244-291; Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. – Т.: Фан, 2004. – 158 б.

² Абдулла Авлоний. Тошкент тонги. Тўпловчи ва сўз боши муаллифи Бегали Қосимов. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 391 б.

Ushbu monografiyada quyidagi masalalarni keng o'quvchilar ommasiga yetkazish ko'zda tutilgan:

- Abdulla Avloniy asarlari tili, jumladan, she'riyati tilining o'zbek tilshunosligida o'rganilish darajasi haqida ma'lumot berish;

- shoir she'riyati tili leksikasining lug'aviy tarkibi va leksik-semantik guruhlarini belgilab berish;

- shoir she'rlarida qo'llanilgan so'zlarning ko'chma ma'nolari, ularning turlarini aniqlash hamda uslubiy jihatdan tahlil qilish;

- shoir she'riyati tili leksikasini o'zni bilan o'zbek mumtoz she'riyati tili leksikasiga qiyoslagan holda o'rganish va Abdulla Avloniyning uslubiy novatorligini tasdiqlovchi holatlarni o'rganish;

- Abdulla Avloniyning 20-30-yillar o'zbek adabiy tilini demokratlashtirish (xalq tiliga yaqinlashtirish) ishiga qo'shgan hissasi haqida tushuncha berish.

Monografiyada Abdulla Avloniyning nashr qilingan asarlari: Abdulla Avloniy. Toshkent tongi (Toshkent, 1979), Abdulla Avloniy. O'son millat (Toshkent, 1993), Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar (Toshkent, 1998) to'plamlariga kiritilgan she'rlari matn – material sifatida tanlangan.

KIRISH

Tilning lugʻaviy tarkibini oʻrganish tilshunoslikda doimo asosiy, yetakchi vazifa boʻlib kelgan. Chunki soʻz inson tafakkuridagi tushunchalarni ifoda qiluvchi, nomlovchi, yetakchi lisoniy vositadir. Buning ustiga soʻz har qanday tilning boyligini oʻzida namoyon etuvchi asosiy omildir. Tilning lisoniy vositalaridan biri boʻlgan soʻzning, ayniqsa, nutqdagi maʼno-vazifalari rang-barang: soʻzdan yangi soʻzlar hosil qilinadi, soʻzlar bir-biriga bogʻlanadi, turli grammatik shakllarda qoʻllanadi.

Soʻzning maʼno va vazifalari ham koʻp qirralidir. U, avvalo, borliqdagi narsalar, voqea-hodisalar, konkret va abstrakt obyektlar, inson ongida koʻp qirrali hayotiy tajribalardan orttirilgan real va xayoliy fikrlar haqidagi tushuncha va tasavvurlarni ifodalaydi. Bu soʻzning **maʼnaviy** vazifasidir. Soʻz tushunchani shunchaki anglatmaydi, balki bora-bora oʻzi ifodalagan tushunchaning barqaror, doimiy nomiga aylanadi. Bu soʻzning atash, nomlash, yaʼni **nominativ** vazifasidir.

Soʻz narsa, hodisa haqidagi tushunchanigina anglatib qolmaydi, balki oʻzi nom berib kelayotgan narsa va hodisaga, holatga insonning (soʻzlovchining) munosabatini (taʼsirlanishini, ijobiy yoki salbiy deb baholashi, etik va estetik jihatdan yondashuvi, bundagi ruhiy holatdan kelib chiqadigan emotsional-ekspressiv ottenkalar) anglatadi. Bu soʻzning **konnotativ** maʼnolaridir.

Til va uning lugʻaviy tarkibi inson tafakkuri, aqliy, mushohada faoliyatining asrlar osha samarasi sifatida yuzaga kelgan maʼnaviy, madaniy, ilmiy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni oʻzida ifodalab, mujassam etib, avloddan-avlodga yetkazuvchi, ularni muhofaza qiluvchi va asrovchi bebaho qurol – vosita hamdir.

Soʻz maʼno-vazifalarining bunday serqirra va murakkabligi unga turli tomonlama yondashishni, uni har xil ilmiy nuqtayi nazar va usullar bilan tadqiq qilishni talab qiladi. Shunga koʻra, soʻzni etnograflar, axloqshunos va nafosatshunoslar, matnshunos va faylasuflar, adabiyotshunoslar, psixologlar ham oʻrganadi va undan oʻz sohalari uchun zarur faktlarni axtarishadi. Ammo soʻz, avvalo, tilshunoslikning eng nufuzli, eng ahamiyatli tadqiq obyektidir. Chunki soʻz, avvalo, tilda paydo boʻladi, tilga xizmat qiladi, nutqda oʻzining

ko‘pqirrali xususiyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Shu sababli tilshunoslik til leksikasini, uning lisoniy birligi bo‘lmish leksemalarni o‘rganishning turli usullarini, yo‘nalishlarini yuzaga keltirgan.

Bular orasida badiiy adabiyot leksikasini tadqiq qilish yo‘nalishi asosiy o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalish o‘zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili leksikasiga quyidagi nuqtayi nazarlardan yondashmoqda:

1. Badiiy til leksikasini sof lingvistik yo‘sinda o‘rganish;
2. Badiiy til leksikasini uslubiy yo‘sinda o‘rganish;
3. Badiiy til leksikasini lingvopoetika nuqtayi nazaridan o‘rganish;
4. Badiiy til leksikasini semantik (ma’nolar tizimi, semantik parallellar) nuqtayi nazaridan o‘rganish;
5. Badiiy til leksikasini badiiy san’atlar nuqtayi nazaridan tilshunoslik va adabiyotshunoslik obyekti sifatida o‘rganish;
6. Badiiy til leksikasini statistik nuqtayi nazardan tadqiq qilish.

Keltirilgan yo‘nalishlarning har biri o‘zbek tilshunosligida turli darajada rivoj topmoqda.

Badiiy adabiyot tili muammolari o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning

70-80-yillaridan boshlab uslubiyatga bog‘liq holda keng ko‘lamda o‘rganila boshlandi. Mana shu davrda X.Doniyorov, R.Qo‘ng‘urov, L.Abdullayeva, Y.Tojiyev, N.Mahmudov, S.Karimov, I.Mirzayev, G.Boqiyeva, B.Yo‘ldoshev, B.Umurqulov va boshqalarning ishlari yuzaga keldi. Bu ishlarda badiiy uslub tilining o‘ziga xosligini ta’minlashda leksik, leksik-semantik, grammatik vositalarning vazifalari, o‘rni va ahamiyati haqida gap boradi.

R.Qo‘ng‘urov ishlarida ma’noviy-uslubiy tahlillar ustun turgani kuzatiladi.¹ Ammo R.Qo‘ng‘urov tahlillar uchun badiiy janrning turli ko‘rinishlariga xos materialni chegaralamagan holda jalb qiladi. Shu sababli uning nasr, nazm, dramatik asarlar, hatto folklor va matbuot materiallariga ham, tarixiy va zamonaviy asarlarga ham murojaat qilaverganini ko‘ramiz.² Biroq shuni ta’kidlash lozimki, R.Qo‘ng‘urov lisoniy vositalarning badiiy nutq va uslubni shakllantirishdagi rolini atroflicha va chuqur tahlil qilgan ilk tadqiqotchilardan biridir. Uning

¹ Қаранг: Кунгуров Р. Стилистика имени существительного в узбекском языке. –Т.: Фан, 1983. – 161 с.

² Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд: СамДУ, 1975. – Б. 20-29.

“O‘zbek tilining tasviriy vositalari”¹, “Subyektiv baho formalarining semantik-stilistik xususiyatlari”², “O‘zbek tili stilistikasidan ocherklar”³ kabi monografiyalari va bu mavzuda yozgan ko‘p sonli maqolalari o‘zbek uslubshunosligiga qo‘shilgan muhim hissadir.

O‘zbek tili stilistikasiga munosib hissa qo‘shgan tadqiqotchilardan biri L.Abdullayevadir. U o‘z ishlarida an‘anaviy leksikologik tadqiqotlarda belgilangan usullardan farqli ravishda so‘zlarning lug‘aviy-ma‘noviy hamda funksional guruhleri va qatlamlarining badiiy asar tilidagi vazifalarini o‘rganishga harakat qilgan. Shu sababli ham u o‘z diqqatini faol va nafaol leksikaning uslubiy-ma‘noviy vazifalari, badiiy tildagi o‘rni va rolini tahlil qilishga qaratadi⁴. Ammo uning faol leksika guruhiga kiradigan so‘zlarni tushunishida chegaralanganlik kuzatiladi.

Masalan, u faol so‘zlar sarlavhasi ostida atoqli otlar hosil qiluvchi metaforalar, turdosh ot hosil qiluvchi metaforalar, sinonimlar, emotsional so‘zlar, qo‘pol (vulgar) ma‘noli so‘zlar hosil qiluvchi metaforalar haqida gapiradi. Holbuki, metaforalarni nafaol so‘zlar ham hosil qilishi mumkin-ku?

Xuddi shuningdek, nafaol lug‘aviy qatlamning uslubiy xususiyatlari o‘rganilar ekan, neologizmlar tahlil qilingan⁵. Vaholanki, neologizmlar orasida faol qo‘llanadiganlari ham mavjud-ku, deyilgan savolning tug‘ilishi tabiiy. Bu masalada yana bir nozik tomon shundaki, L.Abdullayeva “Rus tilidan o‘zlashgan neologizmlar”, “O‘zbek tilining neologizmlari” sarlavhalaridan⁶ foydalanadi. Bunda fikr yuritilayotgan neologizmlar o‘zbek tiliniki emasmi, deyilgan savol tug‘ilishi tabiiy. Chunki o‘zlashgan leksemalar o‘sha tilga singadi, uning me‘yoriy leksikasi sirasiga kiradi. Shu sababli, yaxshisi o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam neologizmlari tushunchalaridan foydalanish o‘rinli bo‘lar edi.

¹ Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Самарқанд: СамДУ, 1977. – 116 б.

² Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик-стилистик хусусиятлари. – Т.: Фан, 1980. – 166 б.

³ Кўнғуров Р. Ўзбек тили стилстикасидан очерклар. – Самарқанд: СамДУ, 1975. – 238 б.

⁴ Абдуллаева Л. Стилистическая дифференциация лексики узбекской художественной литературы: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. –Т., 1980. – С.10-25; Ўша муаллиф. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. –Т.: Фан, 1979. – 150 с.

⁵ Абдуллаева Л. Ўша афтореферат. – Б. 31-32; Келтирилган китоб. – Б. 79-95.

⁶ Абдуллаева Л. Ўша китоб. – Б. 85-90.

O'zbek badiiy nutqi, uning til xususiyatlarini o'rganish ishiga B.Yo'ldoshev sezilarli hissa qo'shdi. Uning tadqiqotlarida o'zbek badiiy adabiyoti tilining uslubiy o'ziga xosligi, bu nutq uslubining lug'aviy, frazeologik, grammatik xususiyatlari keng tahlil qilingan, alohida yozuvchi ijodi yoki badiiy asar tilining o'ziga xos tomonlari o'rganilgan¹.

B.Yo'ldoshevning bu boradagi izlanishlari, ayniqsa, Said Ahmad asarlari tilining tahlillarida o'zining chuqur ifodasini topganini ko'ramiz². Ushbu muallifning o'zbek badiiy nutqiga oid ko'p yillik izlanishlari uning frazeologiyaning uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan fundamental ishida o'zining mukammalligiga erishdi.³ Uning ushbu ishida o'zbek badiiy nutqida uchraydigan frazeologik materiallarning ko'lami, frazeologizmlarning nutqda ifoda etuvchi uslubiy-ma'noviy, lisoniy vazifalari, ularning teran, nozik ma'no qirralari, frazeologik birliklarni qayta ishlash va boyitishda yozuvchining ijodiy mehnati va mahorati kabi masalalar mohiyati ochib berilgan.

O'zbek badiiy adabiyoti tili va o'zbek tili uslubiyati muammolarini o'rganish ishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan tilshunoslardan biri S.Karimovdir. Uning bu boradagi dastlabki izlanishlari shoira Zulfiya she'riyati tilini o'rganishga bag'ishlandi.⁴

U keyingi tadqiqotlarida o'zlashma so'zlarning (arab, fors-tojikcha o'zlashmalar) badiiy tildagi o'rni va rolini,⁵ badiiy uslubning lisoniy ifoda vositalarini (troplar, uslubiy figuralar) o'rgandi.⁶ Ushbu muallifning o'zbek tili badiiy uslubi, uning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan ko'p yillik izlanishlari doktorlik dissertatsiyasida⁷ hamda "O'zbek tilining badiiy uslubi" nomli monografiyasida umumlashtirildi. Ushbu tadqiqotda o'zbek tilining

¹ Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 1982. – 66 б.

² Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. –Т.: Фан, 1988. – 208 б.

³ Юлдашев Б. Стилистический анализ узбекской художественной прозы. –Т.: Ўқитувчи, 1989. – 133 с.

⁴ Каримов С. Язык поэзии Зулфии. – Самарқанд: СамГУ, 1987; Қўнғуров Р., Каримов С. Зулфия поэзияси тилининг луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1981. – 69 б.

⁵ Каримов С. Бадиий матнинг услубий аломатлари. – Самарқанд: СамДУ, 1992. – 42 б.

⁶ Каримов С. Бадиий услуб ва тилининг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ, 1994. – 56 б.

⁷ Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фанлари докт... дисс. автореф. –Т., 1993. –50 б.

funksional uslublari va unda badiiy uslubning tutgan oʻrni, badiiy uslubning oʻziga xosligi va bu oʻziga xoslikni taʼminlovchi til vositalari keng tahlil qilingan. Shu munosabat bilan S.Karimov badiiy uslubda fonetik, grammatik, lugʻaviy vositalar bajaruvchi vazifalarni keng yoritgan.¹ Chunonchi, S.Karimov badiiy nutqning leksik xususiyatlarini oʻrganar ekan, koʻp maʼnoli soʻzlar, neologizmlar, frazemalar, eskirgan soʻzlar, dialektizmlar, “gapiruvchi” nomlar kabi hodisalarning uslubiy vazifalari va uslubiy qimmatini keng tahlil qilgan.²

Oʻzbek badiiy adabiyoti tili va uslubini tadqiq qilish boʻyicha keyingi paytda yuzaga kelgan jiddiy tadqiqotlar B.Umurqulovning qalamiga mansubdir. Uning bu boradagi dastlabki izlanishlari natijasida nomzodlik dissertatsiyasi³ va shu asosda eʼlon qilingan monografiyasi⁴ yuzaga keldi. Ushbu ishlarda hozirgi davr oʻzbek sheʼriyati tilida soʻz qoʻllash, sheʼriy nutqning lugʻaviy tarkibi, sheʼriyat tilining oʻziga xosligi va bu nutq tiliga moslashgan leksik birliklar fondi, unda tarixiy-anʼanaviy hamda zamonaviy soʻzlar qatlamining tutgan oʻrni kabi masalalar keng tahlil qilingan.

B.Umurqulovning keyingi tadqiqotlari oʻzbek badiiy prozasi tilining lugʻaviy xususiyatlari va unda qoʻllanilgan obrazli uslubiy vositalarni oʻrganishga bagʻishlandi. Uning “Oʻzbek badiiy prozasi tilining lugʻaviy xususiyatlari” mavzusida yozilgan ishida⁵ va uning mazmunini oʻzida mujassam qilgan “Badiiy adabiyotda soʻz” nomli monografiyasida oʻzbek badiiy adabiyoti tilining oʻziga xos xususiyatlari, adabiy til bilan badiiy til orasidagi munosabat, nutq madaniyatida badiiy til va uslubning oʻrni va roli, badiiy nutqda umumisteʼmol leksika, kitobiy leksika, ogʻzaki nutq leksikasining qoʻllanilish xususiyatlari, shuningdek, badiiy proza tilida mavjud boʻlgan lugʻaviy variantlar, sinonimlar, dubletlar atroflicha oʻrganilgan⁶.

¹ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. — Самарқанд: СамДУ, 1992. — Б. 36-106.

² Каримов С. Келтирилган китоб. — Б. 100-124.

³ Умуркулов Б. Лексические особенности современной узбекской поэтической речи: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. —Т., 1983. — 28 с.

⁴ Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. —Т.: Фан, 1990. — 110 б.

⁵ Умуркулов Б. Ўзбек бадий прозаси тилининг луғавий хусусиятлари: Филол. фанлари докт ... дисс. автореф. —Т., 1994. — 30 б.

⁶ Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. —Т.: Фан, 1993. — Б. 5-40.

B.Umurqulov o‘z ishlarida o‘zbek prozasi tilining obrazli uslubiy vositalarini, ularni hosil qiluvchi lisoniy materiallarni tahlil qilishga ham e‘tibor bergan. Bular proza tilida uchraydigan trop va figuralar, metafora, o‘xshatish, sifatlash kabi hodisalardir¹.

Shu narsa xarakterliki, umuman, o‘zbek tili uslubiyati, jumladan, badiiy nutq uslubiga bag‘ishlangan ishlarda, asosan, lug‘aviy, morfologik, so‘z yasash, qisman fonetik hodisalar tahlil qilinadi, sintaktik materiallarga esa deyarli e‘tibor berilmaydi. Mana shu nuqtayi nazardan “O‘zbek tili stilistikasi” kitobida I.Rasulovning sintaktik stilistikaga oid tahlillari², A.Mamajonovning qo‘shma gaplarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasi³ va monografiyasi⁴ hamda bir qator ilmiy maqolalari diqqatga molikdir. Bu ishlarning barchasida ham, asosan, o‘zbek badiiy adabiyoti tilidan olingan materiallar tahlil qilingan.

O‘zbek badiiy nutqi stilistikasining rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan tilshunoslardan biri E.Qilichevdir. Uning bu boradagi ishlari S.Ayniy asarlaridagi arxaik leksika va uning uslubiy qimmatini o‘rganishdan boshlandi⁵.

Keyinchalik esa u badiiy tasvirda leksikaning o‘rni⁶ hamda o‘zbek tili stilistikasining amaliy masalalarini belgilashga munosib hissa qo‘shdi⁷.

Badiiy til, badiiy matnlarni lingvopoetik va lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishning nazariy muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar ham yuzaga keldi. Biz bu o‘rinda I.Mirzayevning she‘riy matnlarni lingvopoetik nuqtayi nazardan baholash

¹ Умуркулов Б. Келтирилган автореферат. – Б. 41-48.

² Расулов И. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Фан, 1993. – Б. 151-213.

³ Мамажонов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. –Т., 1991. – 59 с.

⁴ Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. –Т.: Фан, 1990. – 122 б.

⁵ Қиличев Э. С.Айний асарларида грамматик архаизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. –№1. – Б. 70-74; Ўша муаллиф. Эскирган фразеологик бирликларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1972. – № 4. – Б. 65-68.

⁶ Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Т.: Фан, 1982. – 88 б.

⁷ Қиличев Э. Ўзбек тили практик стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 104 б; Ўша муаллиф. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 159 б.

masalalariga oid,¹ G.Boqiyevaning badiiy matnni tahlil qilishning lisoniy asoslariga bag‘ishlangan² ishlarini ko‘zda tutmoqdamiz.

Bu mualliflar tilga olingan muammoning dolzarb qirralariga oid bir qator maqolalarni e‘lon qilishdi.

Umuman, o‘zbek tili uslubshunosligi³, jumladan, o‘zbek badiiy nutqi stilistikasi rivojiga⁴ I.Qo‘chqortoyev sezilarli hissa qo‘shdi. Ayniqsa, uning yozuvchi Abdulla Qahhorning badiiy asar tili va uslubi ustida ishlashiga oid original tahlillari diqqatga molikdir⁵.

Afsuski, o‘zbek tili uslubiyatida ushbu samarali tadqiq usuli R.Qo‘chqortoyevaning ishlari istisno qilinsa, boshqalar tomonidan davom ettirilmadi⁶.

Badiiy asar tilini uning mavzu va mazmunidan uzib olingan holda sof lisoniy nuqtayi nazardan o‘rganish usuli zamonaviy adiblarning asarlari tili tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar uchun ham taalluqlidir. Chunonchi, B.Choriyev G‘afur G‘ulom she‘riyatining lug‘aviy xususiyatlarini tadqiq qilar ekan, asosan, so‘zlarning tarixiy-etimologik, lug‘aviy qatlamlarini belgilashga zo‘r beradi va shunga bog‘liq holda shoir she‘riyati tilidagi yangi so‘zlar anglatuvchi ma’nolarni keng yoritadi⁷.

Ba’zi tadqiqotchilar esa, badiiy asar tilidagi mavjud lug‘aviy, ma’noviy, uslubiy materialni keng qamraydi, ammo ular haqida qisqa va yuzaki mulohazalar yuritish bilan chegaralanadi. Masalan, bitta kichik hajmli nomzodlik dissertatsiyasida Hamid Olimjon she‘riyati tilida qo‘llanilgan umumiste‘mol so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar, juft va

¹ Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Дисс. ... докт. филол. наук. – Т., 1992. – 370 с.

² Бакиева Г. Идеи и методы современной лингвистики текста в преподавании русского языка. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 71 с; Она же. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Т., 1993. – 46 с.

³ Кучкартаев И. Фразеологические новаторства Абдуллы Каххара: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т.:1965. – 23 с.

⁴ Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. –Тошкент: Фан, 1975. – 96 б.

⁵ Кучкартаев И. О работе А.Каххара над языком своих произведений // Науч. Труды ТашГУ. - №5. –Ташкент, 1976. – С. 137-143; Ўша муаллиф. Абдулла Қаххорнинг бадий текстни ихчамлаштириш устида ишлаши // ТошДУ илмий асарлари тўплами. – № 486. – Тошкент, 1975. – Б. 100-107.

⁶ Қўчқортоева Р. Абдулла Қаххор асарларининг турли нашрларидаги баъзи семантик-стилистик тузатишлар ҳақида // ТошДУ илмий асарлари тўплами. – №475. – Тошкент, 1978. – Б. 69-73.

⁷ Чарыев Б. Некоторые вопросы лексики поэзии Гафура Гуляма: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т.: 1972. – С. 5-20.

takroriy soʻzlar, faol va nafaol leksika, neologizmlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, takrorlar, oʻxshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, jonlantirish va giperbola hodisalari haqida¹ chuqur tahlillar olib borish mumkinmi? Albatta yoʻq.

Bu muammolarning sayoz tahlil qilinganligi ushbu muallif eʼlon qilgan risolada² ham aniq koʻrinib turibdi.

Maʼlumki, shoʻrolar davrida oʻzbek tilshunosligida oʻsha paytda eng mashhur boʻlgan adiblarninggina asarlari tili va uslubini tadqiq qilishga keng oʻrin berilgan. Chunonchi, Hamza Hakimzoda Niyoziy³,

Komil Yashin⁴, Hamid Olimjon⁵, Gʻafur Gʻulom⁶, Zulfiya⁷, Maqsud Shayxzoda⁸, Oybek⁹, Abdulla Qahhor¹⁰ asarlari tiliga oid tadqiqotlar bunga misol boʻla oladi.

Tilga olingan ishlarning koʻpchiligida “tili va uslubi” iborasi qoʻllanilsa ham, ularda, asosan, oʻrganilayotgan asarlar tilidagi lugʻaviy qatlamlar, faol va nafaol leksik guruhlar, umumisteʼmol va qoʻllanishi chegaralangan leksika, uslub tushunchasi ostida sinonim, antonim, omonim va koʻp maʼnoli soʻzlar tahlil qilingan, badiiy asar tili, ularning baʼzilarini hisobga olmaganida, chinakam maʼnodagi uslubiyat va lingvopoetika nuqtayi nazaridan oʻrganilmagan.

Mustaqillikkacha boʻlgan va Oʻzbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda badiiy adabiyot tili tadqiq qilingan ishlar

¹ Бабаева С. Лексико-стилистические особенности поэзии Хаида Алимджана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1989. – 17 с.

² Бобоева С. Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. – Т.: Фан, 1989. – 53 б.

³ Махмадмуратов Ш. Язык «Дивана» Хамзы Хаким-Заде Ниязи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1982. – 24 с.

⁴ Абдиев Э. Язык и стиль драм Камила Яшина: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – Т., 1981. – 20 с.

⁵ Бабаева С. Лексико-стилистические особенности поэзии Хаида Алимджана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1989. – 17 с.

⁶ Чарыев Б. Некоторые вопросы лексики поэзии Гафура Гуляма: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1972. – 29 с.

⁷ Каримов С. Язык и стиль произведений Зулфии (на материале поэзии): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1982. – 17 с.

⁸ Яриев Б. Язык поэзии Максуда Шайхзаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1979. – 22 с.

⁹ Самадов Қ. Ойбек сўз санъаткори. – Т.: Фан, 1965. – 44 б; Шоабдурахмонов Ш. Ойбек романларининг тили // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1955. – № 10. – Б. 9-14.

¹⁰ Кучкартаев И. Фразеологическое новаторство А.Каххара: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1965. – 23 с; Ўша муаллиф. Бадий нутқ стилистикаси. – Т.: Фан, 1975. – 96 б.

qiyoslab ko‘rilsa, keyingi davrda yozilayotgan ishlar mavzusi, mundarijasi, tadqiq usuli, nazariy asoslari, ilmiy fikrni bayon qilish tarziga ko‘ra bu ikki davrda olib borilgan tadqiqotlar farqlanishini ko‘ramiz.

Bular quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Mustaqillik davrida sho‘rolar siyosati davrida o‘rganish ta’qiqlangan, asosan, 20-30 yillarda ijod qilgan adiblarning badiiy, ilmiy merosini o‘rganish faollashdi.

2. Mavzuni yoritishda avvallari, albatta, siyosiy-mafkuraviy nuqtayi nazardan kelib chiqilgan bo‘lsa, endilikda tadqiq qilinayotgan mavzuga erkin, ilmiy obyektiv yondashiladigan bo‘ldi.

3. Avvallari aksariyat hollarda o‘rganilayotgan obyekt (badiiy asar) ni sun’iy ravishda bir tomonlama, ya’ni ijobiy tomondangina madh qilingan holda tahlil qilish odat tusiga kirgan bo‘lsa, endilikda tadqiq obyektiga tanqidiy baholash nuqtayi nazaridan ham yondashiladigan bo‘ldi.

4. Badiiy til va uslubni tahlil qilish usuli va metodida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Oldinlar, asosan, asar “leksikasi”, “tili va uslubi”, “morfologiyasi” kabi tushunchalar tahlil qilingan bo‘lsa, endilikda badiiy asar tiliga “badiiyat”, “badiiy mahorat”, “individual badiiy til” nuqtayi nazaridan yondashilmoqda. Natijada badiiy asar tili tahliliga “poetika”, “lingvopoetika”, “badiiy nutq individualligi” yoki badiiy san’atlar, ularga aloqador tushunchalar kirib keldi. Hozirda badiiy asar tili tahlili ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik nuqtayi nazarini muayyan me’yor asosida yaqinlashtirish yo‘li bilan o‘rganilmoqda.

5. Endilikda badiiy asar tili tahlillarida asar tilini shunchaki baholash emas, balki yozuvchining o‘zbek adabiy tili va uslubini boyitishdagi o‘rni va hissasini belgilashga alohida e’tibor berilmoqda.

6. Oldinlari adib asari tilining fazilatlarini belgilashda yozuvchining dunyoqarashi, tilga, ona tiliga munosabati, bundagi ijobiy va ba’zi salbiy o‘rinlarni qayd qilishga deyarli e’tibor qilinmas edi. Hozirda badiiy asar tilini bevosita tahlil qilishga o‘tishdan oldin asar muallifining, umuman, tilga munosabati, lingvistik qarashlari, badiiy til, badiiyatni tushunish konsepsiyalari maxsus o‘rganiladigan hamda asosiy tahlilda bu xususiyatlar hisobga olinadigan bo‘ldi.

7. Hozirda badiiy asar tilini o'rganishda ko'zga ko'ringan muhim xususiyatlardan biri tadqiq qilinayotgan asar tilidagi ba'zi lisoniy hodisalarni folklor tili, xalq shevalaridagi dalillarga qiyoslash an'anasi kuchayganligidir. Bu hol asar tilidagi ba'zi xalqchil, sodda, ammo ta'sirchan vositalardan, jonli xalq tilidan yozuvchining foydalana olish mahoratini aniqlashga imkon bermoqda.

8. Avvallari yozuvchining badiiy asarlari, ularning tili va uslubi haqida fikr yuritilganda, uning lingvistik merosi chetlab o'tilar edi. Endilikda yozuvchining ham badiiy, ham lingvistik merosi baravar tadqiq qilinmoqda. Bu hol yozuvchining badiiy tilga munosabatining ilmiy asoslarini tashkil etuvchi qarashlari, tamoyillarini belgilashga imkon bermoqda.

Yuqorida qayd qilingan xususiyatlar mustaqillik davrida yozilgan bir qator monografik tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan.

Biz bu o'rinda G.Keldiyorova¹, M.Yo'ldoshev², Yo.Sayidov³, Z.Choriyeva⁴, D.Shodiyeva⁵, L.Jalolova⁶, M.Qosimova⁷, D.Ne'matova⁸ ishlarini ko'zda tutmoqdamiz.

Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, So'fizoda, Abdulla Avloniy, Hamza, S.Ayniylarning qanday murakkab sharoitda ijod qilganligi, ularning badiiy tilida o'sha sharoitning ta'siri tufayli paydo bo'lgan lisoniy xususiyatlarning sabab va ildizlarini topish va anglashga imkon beradi. Bu jihatdan XX asrning 20-30 yillaridagi lisoniy jarayon haqida keyingi yillarda yozilgan bir qator maqolalar, ilmiy

¹ Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нутқида антитеза (Э.Воҳидов шеъряті мисолида): Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2000. – 26 б.

² Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати ("Кеча ва кундуз" романи мисолида): Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2000. – 24 б.

³ Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2001. – 22 б.

⁴ Чориева З. Абдулла Қодирийнинг "Ўтган кунлар" романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2006. – 23 б.

⁵ Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеъряті лингвопоэтикаси: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2007. – 25 б.

⁶ Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг "Ўткан кунлар" романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2007. – 22 б.

⁷ Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2007. – 22 б.

⁸ Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлилі: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2004. – 24 б.

anjuman materiallari¹, M.Qurbonova², B.To‘ychiboyev³, Sh.Bobomurodova⁴, T.Tog‘ayev⁵lar yaratgan monografik tadqiqotlar ahamiyatlidir.

XX asrning birinchi choragida o‘zbek adabiy tili rivojidagi muhim tendensiyalar, lisoniy jarayonlarni anglashda A.Abdunazarov⁶, G‘.Karimov⁷, B.Turdialiyev⁸lar olib borgan kuzatishlar ham muayyan qimmatga ega.

Qayd qilingan ishlarning ba’zilariga qisqacha to‘xtalamiz. Jumladan, M.Qurbonovanning nomzodlik dissertatsiyasida va shu asosda e’lon qilingan risolasi⁹da jadid adabiyotining yirik namoyandasi Abdurauf Fitratning tilshunoslik faoliyati va merosi, uning o‘zbek tilshunosligi tarixida tutgan o‘rni keng tadqiq qilinadi. Bu tadqiqot mustaqillikdan keyingi davrda XX asrning boshlaridagi lisoniy jarayon, bu davrdagi o‘zbek tilining taraqqiyoti haqidagi masalalar o‘rganilgan tadqiqotlarning dastlabkisi ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Muallif Fitratning o‘zbek tilining taraqqiyoti haqidagi fikrlarini tahlil qilar ekan, XX asr boshlarida o‘zbek tilida yuz bergan, yaqingacha “o‘zbek burjua millatchilari mafkurasining tildagi aksi” deya noto‘g‘ri talqin qilinib kelingan “purizm hodisasi” masalasiga ham atroflicha to‘xtaladi: “... Purizm muayyan tarixiy sharoitda har bir tilda vujudga kelishi mumkin. Aniqroq qilib aytsak, biror tilning tovushlar tizimida, leksik tarkibida, sintaktik qurilishida begona tillarning unsurlari ko‘payib ketishi, ya’ni boshqa tillarning tazyiqi

¹ Абдурауф Фитрат миллий феномени, адабий, илмий-назарий мероси, ижтимоий-сиёсий фаолиятига бағишланган биринчи жумхурият илмий-амалий анжуман материаллари. (Бухоро, 21-23 май, 1992 й.) – Бухоро, 1992. – 122 б.

² Курбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 1993. – 19 б; Ўша муаллиф. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. – Т.: Университет, 1997. – 47 б.

³ Тўйчибоев Б. Фитрат – тилшунос. – Т., 1995. – 56 б.

⁴ Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2002. – 24 б.

⁵ Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2005. – 26 б.

⁶ Абдуназаров А. Некоторые вопросы развития лексики и фразеологии узбекского литературного языка 20-х годов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1968. – 23 с.

⁷ Каримов Г. Некоторые вопросы развития узбекского литературного языка 20-30 годов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1972. – 26 с.

⁸ Турдиалиев Б. Хамза и узбекский литературный язык. Начала XX века: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1988. – 27 с.

⁹ Курбонова М. Фитрат тилшунос. – Тошкент: Университет, 1996. – 29 б.

paydo bo'lishi mumkin. Ana shunday vaziyatda til tozaligini, milliyligini saqlash uchun harakat, ya'ni purizm vujudga keladi. XX asr boshlarida o'zbek tilida ana shunday hodisa yuz berdi. Bu davrdagi o'zbek tilida arabcha, forsha so'zlar bilan birga, usmonli turk va tatar tillarining unsurlari katta foizni tashkil qilar edi"¹.

Shuningdek, Fitratning milliy til (o'zbek tili) ning sofligini saqlash, uni o'zga tillar tazyiqidan himoya qilish, rivojlantirish yo'llarini belgilashdagi harakatlari atroflicha tahlil qilinib, muallifning Fitratning purizmga bo'lgan munosabatiga quyidagicha baho berilganligi ham alohida e'tiborga molikdir: "... Ko'rib o'tganimizdek, Fitrat purizmi o'zbek tilining milliyligiga xizmat qiladi; tillarning ijtimoiy aloqasini (boshqa tillardan so'z qabul qilishini) inkor etmaydi va hech bir tilni kamsitmaydi. Zero, Fitratning o'zi: "Bizning hech bir tilga xusumatimiz yo'q", – degan edi"².

M.Yo'ldoshev Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani tili misolida adibning badiiy til mahoratini o'rganishdan kutilgan maqsadlardan biri Cho'lpon asarlari tilining asr boshidagi o'zbek adabiy tiliga munosabatini belgilashdan iborat ekanini yozadi.³ Ushbu muallif fikricha, til kommunikativ, estetik, akkumulyativ vazifani bajaradi, til estetikasi esa, yozuvchining badiiy tili, badiiyatida ko'rinadi. Mana shu ma'noda badiiy til estetikasini tadqiq qiluvchi alohida yo'nalishlar mavjud: "Badiiy asar tilini aynan estetik vazifaning namoyon bo'lishi tarzida o'rganuvchi sohani "Lingvistik poetika", "Lingvopoetika" deb nomlash filologiya ilmida ancha turg'unlashgan"⁴.

M.Yo'ldoshevning "Kecha va kunduz" romani tili yuzasidan olib borgan tahlillari roman tilining estetik jihatlari, badiiyati – so'zlarning konnotativ ma'nolarida, ma'nodosh so'zlarning qo'llanishida; asosiy va o'zgartirilgan shaklda qo'llanilgan frazeologik birliklar va maqollarda; leksema va iboralarning kontekstual ma'nodoshligida; zid ma'noli so'zlar va frazemalarning matniy zid ma'nolarida, bunday ma'nolarning bir turkumga oid birliklar orasida, ba'zi hollarda esa turli turkumga xos leksemalar zidligida ham namoyon bo'lishida;

¹ Курбонова М. Фитрат тилшунос.—Тошкент:Университет, 1996. — Б. 26.

² Курбонова М. Шу манба. — Б. 28.

³ Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати ("Кеча ва кундуз" романи мисолида): Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. — Т., 2000. — Б. 4.

⁴ Шу автореферат. — Б. 6.

arxaik, tarixiy va yangi soʻzlarning davr koloritini berishdagi uslubiy vazifalarida; dialektizm, vulgarizm, varvarizmlar, xalq jonli tili elementlarining obrazlar tilini individuallashtirish, boʻrttirishga xizmat qilishida; roman tilida uchraydigan anʼanaviy va original oʻxshatishlar (“Xususiy – muallif oʻxshatishlari”), metaforaning jonlantirish, senesteziya kabi tiplarining, baʼzi gʻayriodatiy soʻz birikmalarining badiiy tildagi oʻziga xos, samarali, favqulodda uslubiy vosita ekanligida namoyon boʻlishini koʻrsatdi.

D.Neʼmatova Choʻlpon publitsistik asarlari tili va uslubini oʻrganar ekan, 20-yillarda oʻzbek adabiy tilida yuz bergan oʻzgarishlar dastlab vaqtli matbuot tilida oʻz ifodasini topganini taʼkidlaydi¹.

Ushbu muallifning kuzatishicha, Choʻlpon publitsistik asarlari tili “sodda va ommaga tushunarli uslub”da yozilganligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli ham uning maqolalarida ishlatilgan soʻzlarning 69-70 foizini oʻz qatlam leksemalari tashkil qiladi.

D.Neʼmatovanning qayd etishicha, “Choʻlponning 20-yillargacha boʻlgan asarlarida tatarcha, gʻarbiy turk tiliga xos elementlar uchraydi. Buning sababi Choʻlpon bu davrda panturkizm taʼsirida boʻlgan. Maʼlumki, XX asr boshlarida nashr qilingan bir qancha oʻzbekcha gazetalar tilida tatar va usmonli turk tili unsurlari koʻplab qoʻllangan”².

Choʻlpon publitsistik asarlari tilidagi meʼyoriy murakkabliklarning sababini D.Neʼmatova oʻsha davr tili leksik-semantik xususiyatlarini belgilovchi bir qator omillar bilan bogʻliq deb biladi va quyidagilarni yozadi:

a) “... adabiy tilimizda anʼanaviy ravishda arab-fors tillari taʼsiri kuchli boʻlganligi, aksariyat ziyolilarning “eskicha” tahsil koʻrganligi;

b) Turkiston hududida turk – tatar nashrlarining keng tarqalganligi;

d) mustamlaka Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida Chor Rossiyasi, keyinroq shoʻro taʼsirida yangi oʻzgarishlar paydo boʻlganligi;

¹ Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2004. – Б. 4.

² Шу автореферат. – Б. 8.

e) adabiy tilni hali chinakamiga me'yorlashtirib ulgurilmaganligi.¹”

Yo.Sayidov Fitrat badiiy asarlari leksikasini monografik tadqiq qilar ekan, 20-30-yillar o'zbek adabiy va badiiy tilini o'rganish bo'yicha bir qator muhim ishlar qilingan bo'lsa-da, “Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, So'fizoda, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Hoji Mo'in kabilarning faoliyatlari va xizmatlari hanuzgacha tilshunosligimizning o'rganilmagan sohasi bo'lib kelmoqda”², – deb yozadi.

Y.Sayidovning quyidagi fikrlari ham e'tiborga molikdir: “O'z milliy istiqlool mafkurasini shakllantirayotgan xalqimiz uchun 1900-1925-yillarda shakllana boshlagan va 1930-1980-yillarda zug'um, zo'rlik va qatl bilan so'ndirilgan milliy ongning manbalarini bilish, o'z milliy tilini o'zga tillar zanjiri va bo'yinturug'idan ozod qilish yo'llarini anglash katta ahamiyatga egadir”³.

Y.Sayidov Fitratning, umuman, tillarga, jumladan, o'zbek adabiy tiliga munosabatini o'rganar ekan, Fitratning bu masalada tutgan o'rnini muxtasar holda 8 bandda umumlashtirgan. Uning adabiy til va adabiy me'yorga munosabati negizida “Fitratning millatparvarligi”, “Fitratning jadidligi”, “Fitratning puristligi”, “Fitratning yetuk tilshunosligi” kabi fazilatlar yotishini ishonchli ravishda ko'rsatgan.

1. Fitrat purizmi Y.Sayidovning ta'kidlashicha, o'sha davrda tuzilgan muhit va panturkizm ta'sirida yuzaga kelgan. Ammo Fitrat purizmi ba'zi hollarda panturkizm purizmiga ziddir.

2. Fitrat “O'zbek tilining turkiy lug'at boyligini saqlab qolishga harakat qildi, uning zamini asosida yanada boyitishga urindi...”

3. Fitrat “O'zbek tilini mumkin qadar soflashtirishga urindi...” U yot so'zlarni mumkin qadar chiqarib, yot so'zlardan holi bo'lgan leksik fondni:

a) iste'moldan chiqib ketgan, hozirda unutilgan turkiy so'zlarni “tiriltirish”;

b) tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi so'zlar yasash yo'li bilan to'ldirish, boyitish lozim, deb hisobladi.

¹ Неъматова Д. Келтирилган автореферат. – Б. 8.

² Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2001. –Б. 4.

³ Шу автореферат. – Б. 6.

4. Fitrat o‘zbek tilida muqobili bo‘lmagan, yuqorida qayd qilingan usullar bilan uning o‘rnini bosa oluvchi so‘z ijod qilish, imkoni bo‘lmaganda, yot so‘zni saqlash, ammo uni o‘zbek tilining fonetik, grammatik qonuniyatlariga mos ravishda “turkiylashtirish” lozim deb hisoblagan¹.

Fitrat 20-30-yillarda shakllana boshlagan yangi o‘zbek tilini vujudga keltirish va me‘yorlashda ikki manbaga tayanish lozim deb bilgan:

1. Yangi o‘zbek adabiy tilini eski o‘zbek tili asosida shakllantirish, eski o‘zbek tilini soddalashtirish va soflashtirish.

2. O‘zbek xalq shevalari boyligiga tayanish, bunda shahar shevalaridan tashqari qishloq va ovul shevalarini ham hisobga olish: “Uning bundan ko‘zlagan maqsadi, mumtoz adabiy tilni jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirish edi”².

Fitrat til, adabiy til, adabiy me‘yor, xalq jonli tili va shevalariga oid nazariy qarashlarini o‘z badiiy asarlarida amaliy jihatdan namoyon etdi. Yo.Sayidovning “Abulfayzxon” va “Chin sevish” dramalari tilidagi lug‘aviy qatlamlarning miqdoriy nisbati yuzasidan olib borgan tahlillari bu dramalar tilida o‘z qatlam so‘zlari 66-74 foizni tashkil etishini ko‘rsatgan.

L.Jalolova Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanining lingvistik tahliliga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferatining boshlanish qismida buyuk yozuvchimizning “... har bir millatning taraqqiyot va taoliysi yoshlarning ilm va ma’rifatiga, hunar va san’atiga bog‘liqdur...”³ degan fikrini keltirishi bejiz emas.

L.Jalolovanning fikricha, 20-30-yillar o‘zbek tilining shakllanishi va takomili uchun uchta manba mavjud edi:

1. Arabiy va forsiy so‘zlar, izofalar keng qo‘llanilgan holda rivojlanib kelayotgan klassik o‘zbek tili;

2. Usmonli turk, tatar tillari ta’sirida shakllanayotgan o‘sha zamonning rasmiy, badiiy-publitsistik tili;

3. Asrlar davomida shakllanib, o‘z takomilini topgan, sodda va tushunarli bo‘lgan xalq jonli tili.

¹ Сайидов Ё. Ўша автореферат. – Б. 7-8.

² Шу автореферат. – Б. 10.

³ Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2007. – Б. 5.

Xalq bilan birga bo‘lgan, uning dardini tushunib yetgan o‘zbek ziyolilari uchinchi – eng to‘g‘ri yo‘lni tanladilar¹.

L.Jalolova 20-30 yillar o‘zbek tilining xususiyatlarini, lisoniy belgilarini o‘tkinchi hollar deb baholaydi va quyidagi xulosaga keladi: “Har qanday statika dinamikaning uzviy bir halqasidir”.

Dinamika jarayonida bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishda **oraliq holatlarga** yo‘l qo‘yiladi. Ana shu oraliq holat ikki rivojlanish nuqtasini birlashtirish vazifasini bajaradi va har ikki nuqtaning belgilarini o‘zida namoyon qiladi. Bunday holatlar sintetik hodisalarni o‘z ichiga oladi va har qanday fanning rivojlanish nuqtasi sanaladi.

O‘zbek tili tarixiy taraqqiyotida ham 20-30-yillar holati eski o‘zbek tilidan hozirgi o‘zbek tiliga o‘tish davridagi oraliq holatni ifodalaydi.

Bu davr tilida eski o‘zbek tiliga xos belgilarning saqlanishi bilan birga, hozirgi o‘zbek adabiy tili me‘yorlarining shakllanish jarayoni ham namoyon bo‘lgan. Xuddi ana shu jarayon Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida o‘z ifodasini topgan².

Adabiy tilni, xususan, uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan badiiy nutqni tushunishda, uning ilmiy qiyofasini belgilashda lingvopoetikaga oid ishlar muhim rol o‘ynamoqda. Bu ishlarning ko‘pchiligida lingvopoetika masalalari muayyan yozuvchi, shoir ijodi bilan bog‘lab tekshirilmoqda. Tadqiqotchilar “badiiy asar tilini o‘rganishda “lingvopoetika” tushunchalariga o‘z munosabatlarini ham bildirib o‘tmoqdalar. Keyingi yillarda yozilgan ishlarda bu yorqin ko‘rinadi. Jumladan, D.Shodiyevaning Muhammad Yusuf she‘riyati tilining lingvopoetikasiga bag‘ishlangan ishidan ma‘lum bo‘ladiki, lingvopoetika deyilganda adibning antitezadan, sinonimlardan foydalanishi, iboralarining qo‘llanish usullari, maqollarni aynan va shaklan o‘zgartirib qo‘llash, kontakt va distant holatda keladigan takrorlarning ma‘no va grammatik belgilari va nihoyat okkazonalizm³larning semantikasi tushuniladi.

Bizning nazarimizda, badiiy uslubning o‘ziga xosligini ko‘rsatib berishga ikki va undan ortiq asar tilini yoki ikki adibning asarlari tilini

¹ Жалолова Л. Келтирилган автореферат. – Б. 3.

² Жалолова Л. Ўша автореферат. – Б. 17.

³ Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърини лингвопоэтикаси: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2007. – 25 б.

qiyoslab o'rganish orqaligina erishish mumkin. Uslubiyat va lingvopoetika to'qnashishidan yuzaga keladigan nuqta ularning har ikkalasi til imkoniyatlari orqali yuzaga chiqadigan badiiyatga, badiiy obrazni yaratishga xizmat qilishidir. Hozirga qadar "lingvopoetika" tushunchasi asosida olib borilayotgan tahlillarda qayd qilingan ikki aspekt aralashtirilib yuborilmoqda.

Umuman, badiiy asar tiliga uslubiy jihatdan yondashishning turli yo'llari hozirga qadar aniq chegaralangan emas. Bu masalada taniqli uslubshunos X.Doniyorov va S.Mirzayevlar quyidagi fikrni bildirganlari ma'lum:

"1. Lingvistik aspekt. Bu aspektda adabiy tilning o'sish-o'zgarishlarini aniqlash, nazariy fikrlarni isbotlash uchun badiiy adabiyot tilidan ko'rgazmali material sifatida foydalaniladi.

2. Stilistik aspekt. Yozuvchining so'z tanlash san'ati, obrazlar xarakterini til vositasida ochish va individuallashtirish mahorati, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati kabi masalalar ustida fikr yuritilib, yozuvchining mahorati, uning o'ziga xos tili haqida hukm chiqariladi"¹.

Keltirilgan mulohazalar, umuman, to'g'ri, ammo lingvistik aspektni shunchaki formal holat sifatida baholashga qo'shilish qiyin. Chunki bu holatda badiiy asar tilini o'rganish, ilmiy tahlil qilish xususiyati ko'rinmaydi. Ma'lumki, fikr mualliflari qayd qilganidek, tildan "ko'rgazmali material sifatida foydalanish", misollar olish tilning boshqa uslublariga ham tegishlidir. Buning ustiga, badiiy asar tilidagi lug'aviy qatlamlarni miqdoriy belgilash, arxaik va tarixiy so'zlarni aniqlash, ba'zi morfologik ko'rsatkichlarning xususiyatlarini o'rganish lingvistik tahlilga kiradi. Demak, badiiy asar tiliga lingvistik aspektda yondashish ham ilmiy-ijodiy ish.

Keyingi paytda stilistika, uslubiyat terminini "lingvostilistika", "lingvopoetika" terminlari bilan almashtirish orqali ish tutish ko'zga tashlanadi. Ammo konkret tahlilda, asosan, masalaga uslubiyat nuqtayi nazaridan yondashilayotganligi kuzatiladi. Umuman, bizning nazarimizda badiiy tilni tadqiq qilishning:

1. Sof lingvistik (tilshunoslik) yo'nalishi;
2. Adabiyotshunoslik yo'nalishi;

¹ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Т.: Ўздавнашр, 1962. – Б. 173-174.

3. Stilistik yo‘nalishi;
4. Lingvopoetika yo‘nalishi;
5. Qayd qilingan usullarni aralash holda qo‘llash yo‘nalishi.

Umuman, badiiy tilni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishning asosiy maqsadi badiiy obrazlilikni, badiiyatni ochishdan iboratdir. Badiiy tilni adabiyotshunoslik aspektida o‘rganish mana shunga xizmat qiladi. Lingvopoetika mana shunga yondosh tahlildir. Stilistik tahlil fikr yuritilayotgan obe’ktni ikki tomonlama aniqlashga:

1) umuman, badiiy uslubning tilning boshqa funksional uslublaridan farqli xususiyatlarini ochishga;

2) muayyan bir asar tilining ana shunday boshqa asarlar tilidan farqini ko‘rsatishga, bu orqali yozuvchi tilining individualligini isbotlashga xizmat qiladi.

Keyingi maqsadga yozuvchilar badiiy tilini qiyosiy tahlil qilish orqali erishiladi. Mana shu yo‘nalishni “qiyosiy uslubshunoslik”, aniqroq qilib, “qiyosiy badiiy uslubshunoslik” deb yuritish mumkin. Bu yo‘nalishda ba’zi juz’iy urinishlar istisno qilinsa, jiddiy ishlar amalga oshirilgan emas.

Til vositalari va boyligidan barcha yozuvchilar ham foydalanadi. Tildan foydalanishdagi o‘ziga xoslik va originallik adibning tilni his qila olish, undan lozim va zarur bo‘lgan vositalarni tanlab olish hamda o‘rinli, foydali qo‘llay olish didiga, mahoratiga bog‘liq. Yozuvchi mahorati tildagi mavjud vositalardan qayd qilingan usulda foydalanishdangina iborat emas, balki unga ijodiy yondashish bilan ham belgilanadi. Til individualligi, ayniqsa, mana shu holatda yorqin namoyon bo‘ladi. M.Qosimova Tog‘ay Murod asarlari badiiy nutqidagi individuallikni o‘rganar ekan, uning asarlari tilida fonetik jihatdan – “Barra kalla, barra kalla!”, “shukuy” (shukur ma’nosida); lug‘aviy jihatdan yangi yasalgan so‘z va okkazionalizmlar: bayroqchi, anorchi, xabarchi, ertachi (ertangi), azotxo‘r, suronchixo‘r; metonimik ma’no ifodalovchi: ketmon, qizil, adabiyot, fizika, kimyo, jug‘rofiya, olado‘ppi kabi ramziy leksemalar; zarbalandi, bayonlaydi, inladi, degich kabi yasalmalar, shuningdek, bir qator fonetik variantlar(qobiq, maylis, o‘zbak, chochildi, mazza), so‘z tarkibidagi qo‘shimchalarni qo‘llamaslik, tushirib qoldirish usuliga asoslangan: suv egilmish, (suvga egilmish), bolish quchoqladi (bolishni quchoqladi), ship tikilib

(shipga tikilib), o‘zlarini eshik uradi (o‘zlarini eshikka uradi) kabi dialektizmlar qo‘llanganini aniqlagan¹.

Keltirilgan tip lisoniy qo‘llanishlar obraz tilini xarakterlovchi uzual norma bo‘lib, adabiy til normasi huquqiga ega emas.

Har holda, yozuvchining badiiy tilida xalq lahja va shevalari, individual ijod mahsuli bo‘lgan okkazional yasalmalar kerakli vositalardir. Ammo ulardan o‘rinli hamda qaysi miqdorda, qay darajada foydalanish masalasi ilmiy-nazariy jihatdan baholashni talab qiluvchi munozarali muammodir.

Yozuvchining tilga ijodiy yondashish huquqiga ega ekanini inkor qilib bo‘lmaganidek, bunda ma‘lum me‘yorlarga amal qilishi kerakligini ham inkor qilish mumkin emas.

Keyingi yillarda lingvistika va lingvopoetika nazariyasi va tahlil usullari folklor asarlari tilini o‘rganishga ham tatbiq etilmoqda va bu ishlarda lingvopoetik tadqiqotning xususiyati haqida ba’zi qimmatli fikrlar aytilmoqda. Bunga M.Yoqubbekovanning “O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari” nomli tadqiqotini ko‘rsatish mumkin. Ushbu ishda poetika, lingvopoetika, lingvofolklorning bir qator nazariy muammolari tahlil qilingan. Ushbu muallif o‘z ishining maqsad va vazifalaridan biri “lingvofolkloristika va lingvopoetika tushunchalari mohiyatining folklorshunoslik faniga aloqadorlik jihatlarini aniqlash”² ekanini yozadi. Ushbu munosabat bilan u poetika, lingvistik poetika, lingvopoetika, adabiyotshunoslik lingvistikasi, she’rshunoslik, stilistika, lingvofolkloristika, lisoniy folkloristika, badiiyat, lisoniy badiiyat, badiiy matnning lisoniy tahlili, lingvopoetika tilshunoslik sohasimi, adabiyotshunoslik sohasimi, aralash sohami yoki mustaqil sohami, deyilgan bir qator muammolarga to‘xtalgan. M.Yoqubbekova o‘zining poetika va lingvopoetikaga oid fikrlarini folklor asari tilini o‘rganishga tatbiqan quyidagicha umumlashtiradi:

“Biz ham o‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlarini folklor asari tilini o‘rganishga folklorshunoslik, adabiyotshunoslik, stilistika, tilshunoslik kabi filologik sohalar hamda bir qancha yondosh sohalarning imkoniyatlaridan mushtarak holda foydalanish

¹ Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 2007. – 22 б.

² Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари докт... дисс. автореф. – Т., 2005. – Б. 6.

natijasidagina samarali amalga oshirilishi mumkin, deb hisoblaymiz. Folklorshunoslikdagi bunday tadqiqotlarni olib boruvchi maxsus sohani esa lingvofolkloristika yoki lisoniy folklorshunoslik deb atashimiz o‘rinli bo‘ladi.

Demak, bizningcha, lingvopoetika – lisoniy badiiyat, bu badiiyat til unsurlarini badiiyat mezonlariga bo‘ysundirish natijasi o‘laroq vujudga keladi. Lingvofolkloristika folklor asarlarining lingvopoetik tahlil usulidan foydalanadi”¹.

Keyingi paytda badiiy matn, badiiy asar tili va leksikasining tadqiqiga oid yana ba’zi ishlar yuzaga keldi. Masalan, T.Qurbonovning “Tarixiy badiiy asar va davr tili masalalari” nomli, A.Ibrohimovning “Bobur “Devoni” tilidagi o‘zlashgan leksika” nomli, M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn lingvopoetik tahlili asoslari” kabi ishlarini nazarda tutmoqdamiz.

T.Qurbonov o‘z ishida badiiy asar tiliga umumfilologik nuqtayi nazardan yondashish tarafdori sifatida bu fikrida quyidagi asoslarga tayanadi:

“Bugungi kunda badiiy uslub, badiiy asar uslubi, yozuvchi uslubi, individual uslub haqida fikr yuritganda, ularga “adabiyotshunoslik” va “tilshunoslik” nuqtayi nazaridan yondashish degan aqidani olib tashlab, ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik jihatdan, ya’ni umumfilologik jihatdan yondashgan ma’quldir. Biz uslubni ana shu tartibda tadqiq etish tarafdorimiz. Bunda badiiy asar matni butun mavjudligi bilan tahlil etiladi. Unda mavzu + g‘oya + obraz + obrazlilik + syujet + kompozitsiya + badiiy ifoda + estetik mazmun va estetik ifoda + so‘zning estetik vazifasi + tasviriy vositalar + trop va figuralar + so‘zdan foydalanish va ifodalash mahorati + til va poetik ifoda + lingvistik poetika + janr xususiyatlari va imkoniyatlari yaxlit holda o‘rganilmog‘i va tadqiq etilmog‘i lozim”².

Shunday qilib, o‘zbek she’riyati leksikasini lingvostilistik, lingvopoetik nuqtayi nazaridan o‘rganish bo‘yicha ma’lum ishlar amalga oshirilgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Behbudiy, Fitrat, Elbek, Ashurali Zohiriylar asarlarining tili tadqiq qilindi, ularning yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojidadagi o‘rni va ahamiyati belgilandi. Ammo

¹ Ёқуббекова М. Келтирилган автореферат. – Б. 17.

² Қурбонов Т. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари. – Т.: ЎзМЭ, 2006. – Б. 21-22.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari yuzasidan ba'zi izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, Avloniyning badiiy merosi tili, uning lisoniy qarashlari, o'zbek tilining mavqei (statusi), sofligi uchun olib borgan kurashlari yetarli tadqiq qilingan emas. Bu shoir Avloniy she'riyati tilini lingvistik yo'sinda o'rganilmaganligiga ham tegishlidir. Mana shu nuqtayi nazardan atoqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy she'riyati tilini tadqiq qilish o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri ekani shubhasiz.

ABDULLA AVLONIY IJOD QILGAN DAVRDAGI IJTIMOYIY-LISONIY VAZIYAT VA ADIBNING LINGVISTIK QARASHLARI

Ma'rifatparvar, pedagog, shoir va dramaturg, axloqshunos Abdulla Avloniy XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti, ta'limi va tilining rivojiga munosib hissa qo'shgan yorqin hamda betakror ijodkordir.

Abdulla Avloniyning yozuvchi, shoir sifatidagi merosi o'zbek adabiyotshunosligida munosib baholanib kelingan hamda o'zbek adabiyoti tarixiga bag'ishlangan ishlarda unga ham yetarli o'rin ajratilgan¹.

Abdulla Avloniyning badiiy ijodi va ma'rifatparvarlik, ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlari yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Bunda G'.Karimov, B.Qosimov², R.Barakayev³, N.Afoqovalar⁴ ning xizmatlarini qayd etish o'rinli bo'lardi. B.Qosimov Abdulla Avloniy badiiy ijodining oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davr she'riyatidagi xususiyatlari haqida quyidagilarni yozgan edi: "... klassik adabiyotdagi ko'pgina an'anaviy obrazlar yangi ma'no kasb etdi, qabariq, serbo'yoq, romantik obrazlar vujudga keldi. Ko'pgina poetik janrlarning, jumladan, g'azalning ichki mazmuni ham tubdan o'zgardi. Dolg'ali, qasirg'ali yillar shoir she'rlariga xitob, chaqiriq ruhini olib kirdi. Barmoq vazni adabiyotimiz tarixida birinchi marotaba xalq og'zaki ijodidan yozma adabiyotga olib o'tildi (masalan, Abdulla Avloniy xalq kuylariga moslab yozgan she'rlarida barmoq vaznidan foydalangan edi)"⁵.

Ushbu tadqiqotchi Abdulla Avloniyning she'riy merosi haqida gapirib, shunday bir fikrni aytgan: "Avloniy poeziyasi bilan tanishar ekansiz, qiziq bir holga duch kelasiz. Unda birorta ishqiy she'r yo'q. U ijtimoiy muammolarni, el-yurt g'amini muhimroq biladi! Xalq va Vatan baxtsizligi oldida har qanday muhabbatni rad etadi. O'z ona

¹ Каримов Г. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 326 б.

² Қосимов Б., Долимов У. Маърифат дарғалари. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 116 б; Ўша муаллиф. Абдулла Авлоний. Тошкент тонги. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 391 б.

³ Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. – Т.: Фан, 2004. – 158 б.

⁴ Афоқова Н. Жадид шеърини поэтикаси (вазн ва қофия муаммолари). – Т.: Фан, 2005. – 140 б.

⁵ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар 2-жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998. 1-жилд. – Б. 61.

diyorini “yor kabi sevadi” (Negaki, butun mehrini shunga bag‘ishlaydi)”¹.

Abdulla Avloniy jadid adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biridir. Begali Qosimov “jadid” terminini hozirga qadar talqin qilib kelinganiga nisbatan kengroq ma’noda izohlaydi. U yozadi: “Jadidchilik asosida “jadid” termini yotadi. “Jadid” ning ma’nosi “yangi”, yo bo‘lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas, balki “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan”².

Abdulla Avloniyning adabiy-ma’rifiy, jurnalistik faoliyati, shuningdek, adabiy asarlarining badiiy xususiyatlarini keng yoritgan Begali Qosimov Abdulla Avloniy badiiy ijodi haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Avloniy ham so‘zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi rolga umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib baho berdi. So‘zning ma’nosiga alohida diqqat qildi. Til va nutq odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni davom ettirdi: “...so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurg‘on tarozudur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagon so‘zidan bilurlar... Agar so‘z aql va hikmatga muvofiq bo‘lub, o‘ziga yoki eshitguvchiga bir foyda chiqadurg‘on bo‘lmasa, asalarilar orasida g‘o‘ng‘illab yurgan qovoqari kabi quruq g‘o‘ng‘illamoq, faqat bosh og‘rig‘idan boshqa bir narsa emasdir. Boshimizga keladurg‘on qattiq kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun “ko‘p o‘yla, oz so‘yla” demishlar”³.

Begali Qosimov Abdulla Avloniy she’riyatining asosiy mavzusi haqida yozadi: “Darhaqiqat, ma’rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she’riyatida markaziy o‘rinni egallaydi. Shoir ilm-fanning fazilatlarini zavq-u shavq bilan kuylaydi. “Maktab”, “maorif”, “ilm”, “fan” kabi tushunchalar shoir she’rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko‘tariladi. Jaholat va nodonlik esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi”⁴.

Mana shu markaziy mavzu Abdulla Avloniyning tilga yondashishida yetakchi rol o‘ynagan. Adib avvallari turli ma’nolarda

¹ Қосимов Б. Абдулла Авлоний (Адабий-педагогик портрет). – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 26.

² Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: Маънавият, 2002. – Б. 5.

³ Қосимов Б. Шу асар. – Б. 258-259.

⁴ Қосимов Б. Ўша асар. – Б. 272.

qo‘llanib kelgan so‘zlarni ma’rifat va ilmga doir ma’nolarni ifodalashga bo‘ysundirdi.

Bu haqda B.Qosimov quyidagi g‘oyat to‘g‘ri fikrlarni bayon qilgan: “Mumtoz adabiyotimizda ming yillardan beri ishlanib kelingan gul, bulbul, yor, ag‘yor, may, charx (dunyo) kabi obrazlar Avloniy ijodida boshqacha ohang, boshqacha mazmun kasb etdi.

Beixtiyor xor (tikan) – mustamlakachi istibdodni, bag‘riqon gul esa jafokash Turkistonni eslatadi. Shoir she’rlari orasida “Sadoi bulbul”, “Hijroni bulbul” kabi she’rlar bor. Bular ham aksariyat hollarda gul (ma’shuqa) ishqida yonib o‘rtanayotgan oshiq emas. U ko‘p o‘rinlarda mazlum Turkistonga qarata: “Uyg‘on!” deb bong urayotgan lirik qahramon – shoir obrazini ifodalaydi”¹.

Abdulla Avloniy asarlari va ularning XIX asr oxiri va XX asr boshi o‘zbek adabiyoti rivojida ahamiyati fundamental tadqiqotlarda qayd qilingan. Adib ijodining o‘zbek adabiyotini rivojlantirishdagi o‘rni tegishli adabiyotlarda munosib darajada baholangan². Professor G‘.Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Abdulla Avloniy asosan shoirdir. Uning ijodiy merosida to‘rt kitobdan iborat bo‘lgan “Adabiyot yohud milliy she’rlar” asosiy o‘rinni ishg‘ol qiladi. Shoir “Hijron” taxallusini qo‘llagan”³.

Abdulla Avloniy badiiy asarlari tili ularda o‘z ifodasini topgan g‘oya va intilishlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda G‘ulom Karimov tomonidan aytilgan quyidagi fikrlarni eslash o‘rinlidir: “Abdulla Avloniy qarashlari va intilishlarida demokratizm, xalqparvarlik yo‘nalishi yetakchi o‘rinni ishg‘ol qiladi. Ijtimoiy tuzumdan qanoatlanmaslik, hukmron tartiblarni tanqid qilish, sotsial adolatsizliklarni la’natlash Abdulla Avloniyning revolyutsiyadan ilgarigi she’riyati uchun xarakterlidir”⁴.

Yuqorida tilga olingan ilmiy ishlarda shoir ijodi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa-da, Avloniy asarlari tili, uning ma’rifiy asarlari tilining o‘sha davr o‘zbek adabiy tili me’yorlarining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni haqida hech qanday fikr bildirilmaydi. Bu masalalar biror tadqiqot ishining obyektiga

¹ Қосимов Б. Ўша асар. – Б. 278.

² Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – Б. 282.

³ Ўша жойда. – Б. 281.

⁴ Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – Б. 282.

aylanmagan. Vaholanki, ijodkorning individual uslubi, uning badiiy ijodi bu masalalar tadqiqisiz o'zining to'laqonli tavsifiga ega bo'lmaydi.

Abdulla Avloniy yashab ijod qilgan davrlarda yangicha o'zbek maktablarida ilg'or ma'rifiy ta'limning yuzaga kelishi, ularning yangi adabiyot va darsliklar bilan ta'minlanishi " Toshkentda Saidrasul Aziziy va Abdulla Avloniy , Samarqandda Siddiqiy Ajziy va Abduqodir Shakuriy nomlari bilan, Farg'ona vodiysida esa Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda va mashhur Hamza nomlari bilan chambarchas bog'liqdir"¹.

Shu o'rinda Abdulla Avloniyning o'zbek adabiyoti, xususan bolalar adabiyoti rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi va ma'rifatparvarligini atroflicha tahlil qilgan R.Barakayevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir: "Abdulla Avloniy hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotshunosligimizda bir qator ishlarda mufassal o'rganilgan, uning biografiyasi, o'zbek ma'rifatparvarlik va inqilobiy adabiyotlariga qo'shgan hissasi, dramaturglik, pedagogik va tarjimonlik faoliyati tadqiq etilgan, asarlari nashr qilingan, badiiy obrazi yaratilgan va h.k."².

Ammo afsuski, shu kunga qadar Abdulla Avloniy asarlarining tili, uslubi o'rganilmagan, adib asarlari tilining XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tili rivojida tutgan o'rni belgilangan emas. Ayniqsa, bu ulug' ma'rifatparvarning, umuman, o'zbek pedagogik terminologiyasi, jumladan, adabiyotshunoslik hamda estetika terminlarining shakllanishidagi ulkan xizmatlari hali yetarli hamda talab darajasida tadqiq qilingan emas.

Abdulla Avloniyning umuman til, jumladan, ona tili, tilning sofliqi, tilni qadrlash va asrash haqidagi fikrlari adibning ma'rifatparvarlik, ta'lim va tarbiyaga oid ijodiy asarlarini o'rgangan tadqiqotchilar tomonidan yo'l-yo'lakay tilga olinsa-da, bu masala o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiq qilingan emas.

Biz adibning merosini o'rganar ekanmiz, akademik V.V.Vinogradovning "Adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'sha xalqning konkret tarixiy hayotidan ajratgan holda o'rganish mumkin

¹ Қосимов Б., Долимов У. Маърифат дарғалари. –Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б.15.

² Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. – Т.: Фан, 2004. – Б. 8.

emas”¹, degan fikrini keltirishni lozim topdik. Mana shu ma’noda Abdulla Avloniyning lisoniy qarashlarini ham u yashagan, ijod qilgan davrning xususiyatlarini hisobga olmagan holda o’rganish o’rinli bo’lmaydi.

Abdulla Avloniy ijod qilgan ilk davrlar ijtimoiy-siyosiy va lisoniy jihatdan juda murakkab davr edi. Bu davrda, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy muammolar, ikkinchi tomondan, ta’lim-tarbiya, maorif muammolari, uchinchi tomondan esa, milliy til, adabiy tilga munosabat, tilni davr talablariga moslash, uning umummilliy adabiy til sifatidagi rivojlanish yo’llarini belgilash kabi murakkab nazariy va amaliy, milliy va ma’rifiy muammolar bir-biri bilan qorishib, chalkashib ketgan edi.

Fikr yuritilayotgan davrda milliy til (ona tili) masalasi ba’zi hollarda bir millat muammosi doirasidan chiqqan hamda umumturkiy masala sifatida o’rtaga qo’yilgan edi.

Milliy til masalasini hal etishga, muammoni nazariy hamda amaliy jihatdan hal qilishga ko’maklashuvchi, ko’p holda esa xalaqit berayotgan ba’zi omillar mavjud edi. Bular quyidagilardan iborat edi:

1. XIX asr oxiri XX asr boshida ijod qilgan yozuvchilarning ba’zilari an’anaviy mumtoz adabiyot tili doirasidan chiqishga, tilni soddalashtirishga intilishar edi. Ba’zi yozuvchilar esa eski o’zbek tili me’yoriga amal qilgan holda ijod qilishardi.

2. O’zbek tilida matbuot (gazeta va jurnallar) paydo bo’lgan bo’lib, ularning tili qorishiq uslub va unsurlarga boy edi. Matbuot tilida an’anaviy til, tildagi o’zgarishga uchrayotgan yangi ko’rinishlar, qardosh tillar va rus tilining ilk ta’siri, ba’zi hollarda esa sodda xalq tilida yozishga intilish kabi holatlar kuzatiladi. Bu holat milliy adabiy tilni muayyan yagona me’yorga keltirishga imkon bermas edi.

3. Bu davrda qardosh turkiy tillarning o’zaro ta’siri jonlangan bo’lib, bir tildan ikkinchi tilga taqlid qilish holatlari mavjud edi. Bunday ta’sir ko’p holda o’zaro muloqot, ayniqsa, badiiy adabiyot va matbuot bilan tanishish orqali yuzaga kelgandi.

4. Ba’zi turkiy tillarni rivojlangan ilg’or va zamon talablariga javob beruvchi til sifatida baholash, boshqa qoloq tillar ulardan o’rnak olishi, o’z lisoniy imkoniyatlarini ilg’or tillar hisobiga boyitishi lozim,

¹ Виноградов В.В. Проблемы литературных языков и закономерности их образования и развития. – М.: Наука, 1967. – С. 44.

degan g'oyalar ilgari surilardi. Usmonli turk tili, ozarbayjon va tatar tillari namunaviy til sifatida baholangani ma'lum.

5. Ko'p holda mafkuraviy-lisoniy qarashlarda har qaysi turkiy tillarning mustaqil rivoji inkor qilinadi va barcha turkiy xalqlar uchun umumturkiy til yaratish g'oyasi oldinga surilardi. Bu hol milliy til, ona tilining rivoji uchun kurash olib borayotgan doiralarda ikkilanish va beqarorlikni yuzaga keltirardi.

6. Davlat olib borayotgan til siyosati milliy tillarning rivoji va tengligiga emas, balki xalq va elat tillarining rivojiga to'sqinlik qilish, mamlakatning barcha ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalariga rus tilini zo'rlab yoyish va singdirishga qaratilgan edi. Bu mahalliy milliy tillarning funksional imkoniyatlarini nihoyatda chegaralashga olib kelgandi. Mana shu holat mahalliy xalqlar so'z va iboralarining adabiy tilga kirib borishiga yo'l ochgan edi.


7. Milliy adabiy til, ya'ni ona tilini yoyish, o'rgatish orqali bu tilning roli va o'rnini, amaliy imkoniyatlarini mustahkamlashda ma'rifiy ishlar, ona tilida ta'lim va tarbiya berish muhim omil ekani ma'lum. Ammo o'sha davrning ta'lim tili "islom tili" deb hisoblanuvchi arab tili, yangi ta'lim dargohlarida esa rus tili edi. Demak, ta'lim-tarbiya sohasiga ona tilini kiritish, uning bu boradagi o'rnini va mavqeyini tiklash uchun kurash murakkab muammolardan biri edi.

Qayd qilinganlardan ma'lum bo'ladiki, Abdulla Avloniy ijod qilgan davrda, bir tomondan, umumturkiy til yaratish g'oyasi, ikkinchi tomondan, milliy ona tilini rivojlantirish g'oyasi, biror tilni ilg'or rivojlangan til deb hisoblab, qolganlarini chetlash g'oyasi, davlat tili deb rus tilini oldinga surish, milliy-mahalliy tillarni chetlash g'oyasi, kam rivojlangan, davr talabiga javob bera olmaydi deb hisoblangan tilni ilg'or tilga yaqinlashtirish va u bilan birlashtirish g'oyasi, tarixan tarkib topgan eski an'anaviy tildan voz kechmaslik, uni zamonaviy talabga moslash lozimligi fikri bilan zamon talabiga javob beruvchi yangi adabiy tilni yaratish g'oyalari orasida kurash borardi.

Professor A.K.Borovkov 1905-1917-yillar oralig'idagi o'zbek adabiy tilining xususiyatlarini o'sha davrda o'zbek tilida nashr qilingan matbuot tili asosida tahlil qilgan ekan¹, til sohasida hukmron bo'lgan turli qarashlarni ham tahlil qilgan. Tadqiqotchi o'z

¹ Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Т.: Учпедгиздат УзССР, 1940. – С. 104.

kuzatishlarida o'sha davrda: yagona turli siyosiy, lingvistik, milliy-ma'rifiy oqimlar tomonidan oldinga surilgan g'oyalarni quyidagi chizmada umumlashtirish mumkin:



Keltirilganlardan tashqari, boshqa alohida tillar rivojiga oid juz'iy qarashlar ham bo'lgan. Chunonchi, o'sha davr matbuoti aksariyat hollarda milliy tillarning (turk, tatar, ozarbayjon, qozoq, chig'atoy) mustaqil rivojlanishi lozimligini ta'kidlar edi. Shunga ko'ra, o'zbek matbuotida o'sha davrda bildirilgan quyidagi fikrlar xarakterlidir:

- ta'lim ona tilida olib borilishi lozim;
- ta'lim arab tilida bo'lishi lozim;
- ona tilini bilish kerak, diniy ta'lim ona tilida bo'lganda u yaxshiroq anglanadi;
- avvalo ona tilini yaxshi bilish kerak, keyin arab tilini ham, chunki arab tili dinni bilish, anglash uchun kerak;
- avvalo ona tilini yaxshi bilaylik, keyin rus tilini ham o'rganaylik;
- ona tilini xalq shevalariga yaqinlashtirish kerak¹.

Bu davrda milliy tilning mavqeyi uchun kurash ona tilining me'yorlarini takomillashtirish harakati bilan birga olib borilganini ko'ramiz. Bu harakat, asosan, ona tilidan "arabcha-forscha so'zlarni haydash", o'zbek tiliga kiritilgan ruscha va yevropacha so'z va

¹ Боровков А.К. Келтирилган китоб. – Б. 8-12.

terminlarni o‘zbek tilining o‘z so‘zlari bilan almashtirish shiori ostida olib borildi¹.

A.K.Borovkov “Oyna” jurnalida yozilgan quyidagi fikrlarni keltiradi: “Agar biz adabiyotimiz va tilimizni chet el so‘zlarining kirib kelishidan himoya qilmasak, qisqa vaqt ichida milliyligimiz va tilimizni yo‘qotamiz. Bu holda xalqchilligimizni yo‘qotamiz, diniyligimiz ham barham topadi. Demak, tilimizni chet el so‘zlaridan himoya qilish eng muhim vazifamizdir”².

Umuman, Abdulla Avloniy yashagan va ijod qilgan davrning xususiyatlarini bilmasdan turib, o‘sha davr tiliga, undagi murakkabliklarga to‘g‘ri baho berish qiyin.

Ma’lumki, A.K.Borovkov 1905-1917-yillardagi o‘zbek adabiy tilining holatini o‘sha davr matbuoti tili misolida keng tahlil qilgan. U matbuot tilidagi turli xususiyatlarni, gazetalar tilida g‘arbiy turk (ozarbayjon), usmonli turk, tatar elementlari (so‘z va grammatik shakllar, ba’zi sintaktik birliklar), shuningdek, arab va fors tiliga oid so‘zlarni qo‘llash kuchli bo‘lganligini aniqlagan va ularni tahlil qilgan holda quyidagi xulosaga kelgan: “Bu davrdagi matbuot tili fevral revolyutsiyasigacha bo‘lgan davrdagi kabi o‘zbek xalq tili emas edi”³.

Bundan tashqari, “Bu davrdagi birorta gazeta tili o‘zbek xalqi tiliga o‘xshamasdi”⁴ degan fikrni ham aytadi.

A.K.Borovkov fikr yuritilayotgan davrdagi o‘zbek matbuoti tilini chuqur tahlil qilar ekan, bu tilni “jargon” deb ataydi. O‘rganilayotgan gazetalar tilida jargon xarakteridagi ba’zi maqolalar mavjud bo‘lganligini inkor qilmagan holda, uning fikrida munozarali o‘rinlar mavjudligini ham ta’kidlash lozim bo‘ladi. Bular quyidagilar: Birinchidan, fikr yuritilayotgan davr adabiy til holatiga birgina gazeta tili (ilmiy-publitsistik uslub) materiali asosida baho berish o‘rinli emas. Chunki bu davrda nashr qilingan ko‘pgina gazetalar tili izlanish, shakllanish bosqichida edi. Adabiy tilda publitsistik uslub hali shakllanib ulgurmagan edi.

Ikkinchidan, A.K.Borovkov asarining sarlavhasiga qaraganda, u 1905-1917-yillardagi o‘zbek adabiy tilining holatini o‘rganmoqda.

¹ Ўша ерда. – Б.14-16.

² Боровков А.К. Ўша китоб. – Б. 17.

³ Боровков А.К. Ўша китоб. – Б. 48.

⁴ Ўша ерда. – Б. 51.

Adabiy til esa ko‘pqirrali, ko‘p uslubli tildir. Unda publitsistik uslubdan tashqari, badiiy adabiyot tili, ilmiy asarlar tili, qisman so‘zlashuv uslubi tili, rasmiy uslub tili va boshqa yordamchi uslublar tili o‘z ifodasini topgan edi. Binobarin, adabiy tilning holatiga uning barcha uslublari tilidan kelib chiqqan holda baho berish kerak.

Uchinchidan, o‘sha davrdagi o‘zbek adabiy tilining tarkibiy qismini mumtoz o‘zbek adabiyoti tili va yuzaga kelayotgan yangi badiiy adabiyot tili (masalan, jadidlar yaratayotgan asarlar) tashkil etar edi. Bu adabiyot Abdulla Avloniy, So‘fizoda, Tavallo, Fitrat, qolaversa, Furqat, Muqimiy, Hamza kabi demokratik yozuvchilar qalamiga mansub edi. O‘zbek adabiy tilining rivoji haqida gap borganda, ular yaratgan asarlar tilini chetlab o‘tish mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan fikr yuritilsa, bizningcha, prof. V.V.Reshetovning mulohazalari to‘g‘ri. U A.K.Borovkovning fikr yuritilayotgan davrdagi matbuot tili “jargon” edi, degan fikriga qo‘shiladi. Chunki uning yozishicha: “Samarqand, Farg‘ona, Toshkentda chiqarilgan gazetalarda dialektizm va turkiy so‘zlar haddan ortiqdir”¹. Biroq “O‘zbek adabiy tili” degan tushunchani talqin qilishda V.V.Reshetov A.K.Borovkovdan farq qiladi. U bu ibora tagida XX asr boshlarida ijod qilgan Furqat, Muqimiy, Hamza, Zavqiy asarlarini ham hisobga oladi.

To‘rtinchidan, butun bir matbuot tilini “jargon” deb yuritishni ham o‘ylab ko‘rish lozim bo‘ladi. Ma’lumki, milliy tilning ijtimoiy tarmoqlanishida “jargon” tor doiradagi ma’lum ijtimoiy guruhning tili hisoblanib, ko‘p holda “yashirin”, o‘sha guruh a’zolariga tushunarli, uning so‘zlari, so‘z ma’nolarida, fonetik-grammatik tuzilishida sun’iy ijod qilingan vositalar mavjud bo‘lgan tor doira tili tushuniladi. Shunday ekan, butun bir millat, xalq o‘qishi uchun mo‘ljallangan gazeta tili va uslubini “jargon” deb baholash o‘rinsizdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek milliy tilining quyidagi ijtimoiy tarmoq va ko‘rinishlari mavjud edi:

1. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek badiiy adabiyoti tili.

¹ Решетов В.В. Узбекский литературные язык. История Узбекской ССР. Том II. – С. 434.

2. XX asr boshlaridagi yangi shakllanib kelayotgan o‘zbek matbuoti tili.

3. O‘sha davr o‘zbek ilmiy va ma’rifiy adabiyot tili.

4. O‘zbek folklori asarlari tili.

5. O‘zbek xalq lahja va shevalari tili.

XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tiliga baho berganda o‘zbek tilining keltirilgan til hodisalarining xususiyatlari va o‘zaro munosabatini hisobga olgan holda ish tutish maqsadga muvofiqdir.

Abdulla Avloniy yuqorida tahlil qilingan murakkab davrda ijod qildi. U yirik tilparvar, tilsevar edi. U o‘zining deyarli barcha asarlari matnida ona tilini ulug‘lash, uni e‘zozlash, unga g‘amxo‘rlik qilish, tilni egallash, nutq madaniyati va axloq haqidagi fikrlarini ifoda etgan.

Abdulla Avloniy o‘z asarlarida Vatanga, xalq tili va madaniyatiga muhabbatni nihoyatda qadrlaydi. Ayniqsa, u tilning xalq tarixi va taqdiridagi o‘rni va rolini yuksak baholaydi: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgon oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”¹.

Abdulla Avloniy ta’lim tilining yosh avlodga tushunarli bo‘lishini ta’kidlar ekan, hali o‘z ona tilini (o‘zbek tili ko‘zda tutilmoqda – S.N.) yaxshi egallamagan yosh bolaga unga yot bo‘lgan tilda yozilgan darslikni tavsiya qilish mutlaqo noto‘g‘ri ekanini, bu hol “yerdan turib yulduzga qo‘l uzatish”, “igna bilan quduq qazish” bilan barobar ekanini ta’kidlaydi: “Bizim Turkiston maktabi islomiyasida avvaldin oxira qadar ta’lim o‘linajak kitoblar “Chor devon”, “Sabot ul-ojizin”, “Fuzuliy”, “Navoiy”, “Xo‘ja Hofiz”, “Bedil” va “Maslak ul-muttaqin” lar kabi she’r kitoblarning ba’zilari e’tiqod va amaliyoti islomiyaga taalluq mushkul masalalardan iborat o‘lg‘onlaridin hamda aksarlari forsiy tilda yozilg‘onlari uchun yosh bolalarning onlardin istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi. Voqean o‘z ona tilini durust bilmagan, emdigina harflarni bir-biridan ayirgan bir yosh bolaning qo‘liga “Chor kitob” ni berib, “Ibtido mekunam, ba nomi xudo” yoki “Sabot ul-ojizin” ni berib, “Sono lil xoliqu l g‘afforul aflok” kabi forsiy va arab lisonlarda yozilmish... jummalarni o‘qitmak ila yerdan turub yulduzga qo‘l uzatmak yoki igna bilan quduq qazimoq orasida farq yo‘qtur”².

¹ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 131.

² Абдулла Авлоний. Танланган асарлар 2-жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998. 2-жилд. – Б. 60.

Abdulla Avloniy ona tili – o‘zbek tilini qadrlash, uning sofligini saqlash haqida qayg‘urib quyidagilarni yozgan edi: “Hayhot! Biz Turkistonlilar milliy tilni saqlash bir tarafda tursun, kundan-kun unutmak va yo‘qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishtirmakdadurmiz”¹.

Abdulla Avloniy ona tilida o‘zga til materialidan foydalanish ma’lum maqsadda, ya’ni ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, buning ham ma’lum me’yori bo‘lmog‘i lozim deb hisoblaydi. Adibning quyidagi mulohazalari nafaqat lug‘aviy me’yorning mezonlari masalasida, balki nutq madaniyati ilmiy tamoyillari nuqtayi nazaridan hozirda ham dolzarbdir:

“...bizlarg‘a hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun oshu non kabi keraklik narsa, ammo uni o‘z o‘rnida ishlatmak va so‘zlamak lozimdur. Zig‘ir yog‘i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur”².

Hozirda tilshunoslikda tilni boyitish va me’yorlash haqida gapirilganda, birinchi navbatda, uning o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalanish tamoyili oldinga suriladi. Abdulla Avloniy mana shu nazariy tamoyilni o‘ta sodda qilib quyidagicha talqin qiladi: “Yohud! Bizga na bo‘ldi? Bobolarimiz yo‘lidan chiqub ketdik. “Yaxshi qo‘shningdan olg‘uncha, yomon uyingni qidir”, – demishlar. Bobolarimizga yetushgon va yaragon muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O‘z uyimizni qidirsak va axtarsak, yo‘qolganlarini ham toparmiz. “Yo‘qolsa yo‘qolsun, o‘zi boshimg‘a tor edi”, deb Yovrupo qalpog‘ini kiyub, kulgi bo‘lmak zo‘r ayb va uyatdur. Payg‘ambarimiz: “Erlarda jamol lison va tildur” – demishlar”³.

Abdulla Avloniy ta’limiy adabiyot tilining tushunarli va sodda bo‘lishi lozimligini qayd qilar ekan, o‘zining bunga amal qilganini: “Ikkinchi muallim” – “birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifbodini so‘ng o‘qutmak uchun ochuq til va oson tarkib ila yozilub, axloqiy hikoyalar, adabiy she’rlar ila ziynatlanmish o‘quv kitobi” ekanini ta’kidlaydi⁴.

¹ Ўша жойда. – Б. 60.

² Ўша жойда. – Б. 61.

³ Қаранг: Баракаев Р. Келтирилган китобидан олинди. – Б. 62.

⁴ Абдулла Авлоний. Иккинчи муаллим. – Т., 1912. – Б. 1.

Abdulla Avloniy ona tilini asrash, saqlash, uni yanada boyitish, undan to'g'ri foydalanishning asosiy manbai va omili ona tili – o'zbek tiliga hurmat hamda cheksiz muhabbat ekanini chuqur his qiladi. Shu sababli u yoshlarga qarata ona tilini “qadrdonim”, “rahmonim”, “shonim”, “adib”, “muallim”, “iltifoti ruhim”, “karamli sultonim”, deya madh qiladi va bu fikrlarini quyidagi misralarga singdiradi:

Ey ona til, aziz qadrdonim,
Iltifoti ruhim, rahmonim,
Tug'dig'im kundan aylading ulfat,
O'lguncha ayilma, ey jonim.
Menga ilmu adab san o'rgatding,
Chin adib, muallim, shonim.
Millatning ruhini ko'targuvchisan,
Eng muqaddas karamli sultonim¹.

Umuman, XX asr boshidagi o'zbek adabiy tili qanday bo'lishi haqida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli fikrlar bildirilgan. Bir guruh ziyolilar adabiy til eski o'zbek tilidek murakkab, kitobiy til bo'lishini targ'ib qilishsa, boshqa guruh ziyolilar tilning jonli xalq tiliga yaqin, sodda va tushunarli bo'lishi tarafdori bo'lgan.

Birinchi nuqtayi nazar tarafdorlari ikkinchi nuqtayi nazar tarafdorlarini adabiy tilni “avomcha, ko'cha tiliga yaqinlashtirish” da ayblashgan. “Oyna” jurnalida berilgan bir maqolada shunday fikrlar bor: “Oyna”g'a sizning tilingiz Turkistonda adabiy erdi, yozgan tarix, jug'rofiya, insho va so'zga nashr tahlilotingiz adabiy tilg'a o'xshash erdi, ammo “Oyna” tilini avomcha va ko'chacha qilib yuboribdur. Muni avom o'qusaydur, ahli ilm va adabiyot oshuqlari o'qiydur. Fikri ojizimcha, bir oz adabiyroq yozilib hamda faniy va ilmiy nimarsalar ko'proq yozilsa erdi”.²

Darhaqiqat, XX asr boshlarida yuz bergan lingvistik jarayonda o'sha davrda faoliyat olib borgan bir qator mashhur adiblar, ma'rifatparvar ziyolilar, tilshunoslar, jurnalistlar, matbuot nashrlari faol ishtirok etishgan. Ushbu muammo yuzasidan Fitrat, Elbek, Abdulla Qodiriy, Zohiriy qarashlari ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, hali bu borada anchagina ishlar qilinishi lozim bo'ladi. Mana shu ma'noda Elbekning ilmiy merosini maxsus o'rgangan

¹ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2-жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998. 2-жилд. – Б.61.

² // Ойна. –Самарқанд, 1914. – №15. – Б. 24.

Sh.Bobomurodovning quyidagi fikri diqqatga molikdir: “Biroq bu ishlarda o‘zbek tilshunosligining XX asr boshlaridagi holati to‘la yoritilgan emas. Olimlarimiz Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ashurali Zohiriy, Elbek, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, G‘ozi Olim, Shorasul Zunun, Botu, Mannon Ramz, Otajon Hoshim, Abdulla Avloniy, Vodud Mahmud, Sanjar Siddiq, Abdulla Yo‘ldosh, Yoqub Omonlarning tilshunoslik faoliyatini o‘rganib, maxsus tadqiqotlar yaratishlari zarur”.¹

Taniqli adabiyotshunos N.Afoqovanning ma‘lumotiga qaraganda, Abdulla Avloniy ijodiga qiziqish va ba‘zi tahlillar olib borish XX asrning 10-20-yillaridayoq yuzaga kelgan.²

N.Afoqova o‘z tadqiqotida Abdulla Avloniy, So‘fizoda, Siddiqiy-Ajziy, Sidqiy Xondaliqiy, Is‘hoqxon Ibrat, Tavallo, Fitrat, Hamza, Cho‘lpon, Karimbek Kamiy, Abdulhamid Majidiy kabi shoirlar she‘riyatining vazn va qofiyalarini o‘rganganini yozsa-da,³ uning ishida Abdulla Avloniy she‘rlari materiallariga alohida diqqat qilinganini ko‘rish mumkin. Buni tadqiqotning ko‘p o‘rinlarida Abdulla Avloniy tilga olinganini, uning she‘rlari tadqiq obyekti bo‘lganidan payqash mumkin.

Badiiy asarning tili uning mavzusi, g‘oyasi, maqsadiga, undagi o‘ziga xosliklarga ham bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, jadid adabiyoti, jumladan, she‘riyati tili haqida gap borar ekan, ushbu badiiy ijod va uning mahsuloti bo‘lgan asarning xususiyatini ham hisobga olish lozim bo‘ladi. Mana shu ma’noda jadid adabiyotining o‘ziga xos tomonlari haqida N.Afoqova qayd qilgan quyidagi fikrlarni eslash o‘rinlidir: “... to oktyabr to‘ntarishiga qadar jadid shoirlari she‘rlarining asosiy mavzusi millatning turmush tarzidagi, ongidagi illatlarni, vatanning xarob ahvolini, ichdan yemirilib borayotgan feodal jamiyat qusurlarini tanqid qilish va xalqni ma‘rifatga, birlikka, jahonning taraqqiy qilgan mamlakatlaridan ibrat olishga chaqirish motivlari tashkil etadi. An‘anaviy ishqiy, tasavvufiy mavzu ikkinchi planga o‘tib qoldi... Ularning o‘y-fikrini gul-bulbul tashbehi emas, mahbubasini yo‘ldan urgan ag‘yor oshiq kechinmalari ham emas,

¹ Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. –Т., 2002. – Б 3.

² Афоқова Н. Жаид шеърияти поэтикаси (вазн ва қофия муаммолари). – Т.: Фан, 2005. – Б. 4.

³ Афоқова Н. Ўша иш. – Б. 8.

kundan-kun ajdodlar xotirasini, o‘zligini unutib, tarixidan uzilib borayotgan avlod band qildi. Ular huquqsiz hali baxtli bo‘la olmasligini angladilar...”¹.

Chunki yuqorida ham aytilganidek, jadid ijodkorlarining maqsadi adabiyot orqali fikr aytish, g‘oya tarqatish edi. Ular adabiyotning vazifasini ana shunday angladilar. “Ko‘p shoirlarimiz jadid bo‘lish ila eski she‘rlarini yirtib, yondurib tashlagan” lari fakti ham bu fikrni dalillaydi”². Demak, jadid she‘riyatida dastlab mazmun eski shaklda – aruzda ifoda etildi.

Abdulla Avloniy she‘riyatidagi asosiy mavzu ta‘lim va ma‘rifat ekanligining asosiy sababini anglash uchun undan kutilgan maqsadni tushunib yetish lozim bo‘ladi: “Jadid adabiyoti ma‘rifatparvarlik adabiyotidan keyingi bosqich sifatida maydonga chiqdi. Jadidlar konkret maqsadda konkret g‘oyalar bilan qurollangan holda adabiyot maydoniga kirdilar; aniqrog‘i esa, ular adabiyotni o‘z g‘oyalarini yoyishda, targ‘ib qilishda va shu orqali xalqni ma‘rifatli qilib, jamiyatda yangilanishlarga erishishda, Vatan va millatni taraqqiyotga olib chiqishda vosita deb angladilar”³.

Jadid adabiyoti o‘zbek tilshunosligida eski, ya‘ni an‘anaviy eski o‘zbek tilidan XX asrda shakllangan yangi o‘zbek adabiy tiliga o‘tish davrini belgilash, bunda konkret va asosiy rol o‘ynagan manba, an‘ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir. Ammo eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida – she‘riyatda (ta‘kid.N.Afoqovaniki) ro‘baro‘ keldi; yangilik shular ijodida eskilik ichidan tug‘ilib keldi; aynan shular ijodida eskilik o‘z umrini yashab bo‘lgan hodisa sifatida, yangilik kurtak holida – hali barqaror bo‘lmagan sifatlar bilan namoyon bo‘ldi.

Aynan jadid adabiyoti – milliy adabiyotimiz tarixidagi ikki katta bosqich yuzma-yuz kelgan joyda paydo bo‘lgan o‘tish adabiyotidir. Bu o‘tish qanday sodir bo‘ldi? Adabiy kanon darajasiga ko‘tarilgan an‘analar qay tarzda o‘z o‘rnini yangi adabiy hodisalarga bo‘shatib berdi? Jadid adabiyotining shakliy jihatlarini, hodisalarini belgilash masalasida turli fikrlar bildiriladi. Eski mumtoz adabiyot tilidan yangi o‘zbek adabiyoti tiliga o‘tishda oraliq (ko‘prik) vazifasini o‘tagan

¹ Афоқова Н. Ўша иш. – Б. 16-54.

² Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. – Т.: Университет, 1993. – Б.70.

³ Афоқова Н. Ўша иш. – Б. 10.

omillarni belgilashda mumtoz adabiyotdan yangi adabiyotga o'tishga vosita bo'lgan adabiy-badiiy davrni aniqlash va shunga suyanish muhim ahamiyatga egadir. Chunki bunday jarayon yangi adabiy tildan eski tilning ma'lum xususiyatlaridan, shakllaridan voz kechishni, yangi tildan yangi dialektal lisoniy bazaga tayanishni, yangilik uchun xizmat qilmaydigan bir qator vositalarni yangisi bilan almashtirishni talab qiladi. Demak, badiiy adabiyot bilan birga eski o'zbek tilidan yangi adabiy tilga o'tishning ham ma'lum oraliq davri bo'lgan. Mana shu oraliq davrni tushunish va belgilashda N.Afoqovanning adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan aytgan quyidagi fikrlari xarakterlidir: "Yuqorida ham ta'kidlab o'tdikki, jadid adabiyotini yaxlit, monografik planda tadqiq etmay turib, o'ta muhim bo'lgan bu savollarga javob berib bo'lmaydi. Bu savollarning javobisiz adabiyotshunosligimizning bir sohasida bo'shliq mavjud bo'lib qolaveradi"¹.

Fikr yuritilayotgan davr adabiyoti va tilining xalqchillashuvi, soddalashuvida aruzdan barmoq vazniga o'tish ham ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. N.Afoqovanning ilmiy kuzatishlari shunday xulosaga olib kelgan:

"Xo'sh, unda barmoq vaznidagi she'rni birinchi bo'lib kim yozdi? Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, yuqorida eslatilgan bir necha manbalar o'zbek she'riyatida barmoq vaznining joriylanishida Fitratning roli kattaligidan dalolat qilsa-da, bu hodisa Avloniy va Hamzaning nomlari bilan bog'liq"².

Tadqiqotchi barmoq vaznining yoyilishida Abdulla Avloniyning xizmatini yuqori baholash bilan birga, uning she'rlarida uchraydigan quyidagi xususiyatni ham ta'kidlaydi: "... Avloniy she'rlarida yuqorida ko'rganimiz kabi ayrim tovushlarni qisqartirib talaffuz qilishni talab etadigan o'rinlar, turoqlar izchilligi buzilgan holatlar ham uchraydi. Bu shoirda mahorat yetishmasligi bilan emas, balki barmoq vaznining o'zbek she'riyatida joriylanish bosqichidagi (barmoq qadim turkiy vazn bo'lishiga qaramasdan, muayyan tarixiy sharoitda u shoirlar uchun yangi, o'zlashtirilmagan vazn edi) qonuniy holatlar sifatida izohlanmog'i lozim. Binobarin, muayyan nazmiy nomukammalliklariga qaramasdan Abdulla Avloniy she'rlari o'zbek

¹ Афоқова Н. Ўша иш. – Б. 7-8.

² Ўша ерда. – Б. 49-50.

she'riyatida barmoq vaznining joriylanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi"¹.

F.Bobojonov jadidchilik vakillari yozgan dramalarning o'zbek milliy adabiy tilining shakllanishidagi rolini Behbudiy va Avloniy asarlari leksikasi misolida baholashga intilgan².

F.Bobojonov tadqiq qilinayotgan dramalar tilining lug'aviy xususiyatlarini tahlil qilar ekan, shunday fikrga keladi: "Jonli xalq tiliga yaqinlashish orqali o'zbek tilini mumkin qadar soddalashtirish va umumxalq tushunadigan adabiy til darajasiga yetkazish dramaturglarning asosiy maqsadi bo'lgan"³.

Dramalar tilida uchraydigan usmonli turk va tatar tili elementlari F.Bobojonovning qayd qilishicha, "boshqa millatga mansub personajlarning nutqida va ziyolilar nutqidagina uchraydi".

Ish muallifining kuzatishicha, dramalar tilida uchragan, fikr yuritilayotgan lisoniy unsurlarni qo'llashdan "... Asosiy maqsad – umumturkiy til yaratish g'oyasini qo'llab-quvvatlash emas, xorijda ta'lim olgan ziyolilarning, shuningdek, boshqa millatga mansub personajlarning nutqini individuallashtirish edi"⁴. Shu munosabat bilan tadqiqotchining mazkur hodisaga bergan umumiy bahosiga o'z qarashlarimizni bildirib o'tmoqchimiz. F.Bobojonov usmonli turk, tatar va qardosh tillardan kirgan lisoniy unsurlarni okkazionalizmlar deb baholaydi: "Jadid dramalari tilida uchraydigan usmonli turk tiliga oid lug'aviy birliklar va grammatik shakllar davr talabi bo'yicha ishlatilgan okkazional birliklardir"⁵.

Bu fikrga qo'shilish qiyin. Chunki, birinchidan, okkazionalizmlar so'zlovchi tomonidan favqulodda yaratiladigan yangi lisoniy hodisadir. Ikkinchidan, F.Bobojonov keltirgan dalillar usmonli turk tilida avvaldan mavjud elementlardir. Shu sababli bu birliklarni ko'proq ekzotik leksika deb bilish, ba'zilarini esa, varvarizmlar deb baholash o'rinlidir.

F.Bobojonovning okkazionalizmning mohiyatini noto'g'ri tushunishi uning quyidagi fikri va keltirgan misollarida yanada yorqin

¹ Афокова Н. Ўша иш. – Б.54.

² Бобожонов Ф. Ўзбек жади́д драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – Б. 5.

³ Ўша автореферат. – Б. 8.

⁴ Ўша автореферат. – Б. 9.

⁵ Бобожонов Ф. Ўша автореферат. – Б. 9.

ko‘rinadi: “Okkazional olinma birliklar. Bunday birliklar ham o‘sha davrda dramatik nutq talablaridan kelib chiqib ishlatiladi. Jadid dramaturglari personajlar nutqini individuallashtirish, uning xarakteri va ruhiy holatini ochib berish maqsadida ba’zi o‘rinlarda boshqa tillarga (rus, tojik, usmonli turk va b.) oid birliklardan foydalanishgan. Bular ishda uch guruhga ajratib tahlil qilingan:

a) rus va boshqa yevropa tillari olinmalari: *interesnyy, izviniy, ispasibo* va boshqalar;

b) usmonli turk tili olinmalari: *vergin (bergin), o‘lmasa (bo‘lmasa), cholishg‘on (ishlagan), baqolim (ko‘raylik)* kabi;

d) fors-tojik tili olinmalari: *bale, akunki, chahor, tarafash, shud, darmurg‘, bamulki, nest, kajbahs* va boshqalar”¹.

Keltirilgan parchada “olinma” termini noto‘g‘ri qo‘llangan. Odatda, leksikologiyaga oid ba’zi ishlarda olinma so‘zi “o‘zlashma”, “o‘zlashma so‘z” ma’nosida ishlatiladi. Holbuki, keltirilgan so‘zlar o‘zbek tiliga o‘zlashgan leksemalar emas. Muallif bu kabi qo‘llanishlarni “tipik hodisa emas” deb baholagan. Bu to‘g‘ri. Ammo uning bu elementlarning dramalar tilida qo‘llanishini “davr talabi” deb baholashiga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki hodisalar nafaqat dramalar janrida, balki nazmiy va nasriy asarlar tilida hozir ham uchraydi. Mana shu ma’noda dissertantning o‘z fikrini G‘.Abdurahmonovning “Bunday birliklar davr talabiga ko‘ra qo‘llangan” degan fikri² bilan mustahkamlashga intilishi ham ishonarli emas. Bizning nazarimizda, bunday qo‘llanishlar konkret nutqiy talab, nutq egasining qanday millat vakili ekanligiga asoslanadi, ya’ni yozuvchi qahramonni tabiiy holatga yaqin tilda so‘zlatadi va bu badiiy asar tiliga lisoniy reallik, uslubiy individuallik bag‘ishlaydi.

F.Bobojonovning kuzatishlari o‘rganilgan dramalar tilini quyidagicha baholashga imkon bergan: “Umuman olganda, jadid dramalari lug‘aviy tarkibiga ko‘ra hozirgi adabiy tildan biroz farqlansa-da, bugungi kitobxonlar uchun deyarli tushunarlidir. Chunki dramalar matnida qo‘llangan leksik birliklarning 90-95 foizini

¹ Ўша автореферат. – Б. 11.

² Абдурахмонов Ф. Бехбудий ва унинг ҳозирги ўзбек адабий тилининг шаклланишидаги хизматлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. – №3. – Б. 8.

an'anaviy qatlamga mansub va so'zlashuv nutqiga xos birliklar tashkil qiladi"¹.

Ammo ushbu fikr muallifi zid xulosaga ham keladi: "Davrlarning murakkabligi eski o'zbek adabiy tili, umumturkiy til va hozirgi o'zbek adabiy tiliga xos birliklarning aralash holda qo'llanishi natijasida sodir bo'lgan holatdir"².

Keltirilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkin: dramalar tili hozirgi kitobxonga deyarli tushunarli til, shu bilan birga, murakkab til. Mantiqan ziddiyat bor. Shuningdek, "umumturkiy til" deganda qanday til ko'zda tutiladi. Bunday til yaratishga harakat qilingani, ammo uddasidan chiqish mumkin bo'lmagani ma'lum. Buning ustiga "Hozirgi o'zbek adabiy tiliga xos birliklar" ning XX asr boshidagi tilda qo'llanishi ham mantiqan asossiz. Chunki hozirgi til hodisasi o'tmish tilda qo'llanmaydi, aksincha bo'lishi mumkin.

Fikr yuritilayotgan davrdagi o'zbek tilining holati, uning kelgusi rivoji yuzasidan o'zaro mushtarak yoki turli qarama-qarshi fikrlar bildirilar edi. Bunda eng munozarali masala o'zbek tilini me'yorlash masalasi bo'lgan.

O'zbek adabiy tilini me'yorlashga oid harakatlar, ayniqsa, Fitrat va Elbekning ishlarida o'z yorqin ifodasini topgan. Chunonchi, Fitratning tilshunoslik merosini maxsus tadqiq qilgan M.Qurbonovanning ta'kidlashicha, o'tgan asrning 20-yillarida o'zbek tili me'yorlarini belgilashda, uning ilmiy-nazariy qonun-qoidalarini ishlab chiqishda o'zbek tilshunosligi tarixida tub burilish yasagan Abdurauf Fitratning o'rni beqiyosdir. M.Qurbonova Fitratning o'zbek tili lug'aviy boyligini me'yorlash, rivojlantirish haqidagi fikrlarini tadqiq qilar ekan, adibning bu boradagi qarashlarini quyidagicha umumlashtiradi: "... Uning fikricha, lug'at boyligi, birinchi navbatda, yangi so'zlar yasash hisobiga boyitib borilishi zarur. Ijtimoiy borliqdagi yangi tushunchalar imkoni qadar milliy tilning o'z unsurlari bilan ifodalanishi kerak. Ikkinchidan, agar yangi tushunchani ifodalashga milliy til imkoniyatlari kamlik qilsa, u holda boshqa tildan so'z qabul qilish maqsadga muvofiq. Shu yerda shuni alohida ta'kidlash kerakki, boshqa tildan qabul qilingan so'zlar milliy tilning tabiatiga – uning tovushlar sistemasiga, sintaktik qonuniyatlariga,

¹ Бобожонов Ф. Ўша автореферат. – Б. 12.

² Бобожонов Ф. Ўша автореферат. – Б. 21.

ifoda usuliga mos kelishi shart. Ana shundagina o'zlashgan so'z milliy tilning o'z boyligiga aylanadi, begonaligi sezilmaydi. Olim taklif qilgan uchinchi yo'l – yangi tushunchalarni ifodalashda iste'moldan chiqib qolgan so'zlardan foydalanishdir. Arxaizmlardan unumli hamda o'rinli foydalanish, darhaqiqat, milliy tilning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu yo'l milliy tilning o'z ichki manbalari hisobiga rivojlanishini ta'minlashi bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Eskirgan so'zlarni o'rnida ishlatish tilimizga ikki tomonlama foyda beradi: birinchidan, turkiy so'zlar hisobiga (agar arxaizm kelib chiqishi jihatidan sof turkiy bo'lsa) tilimizning o'ziga xosligi, milliyligi saqlanadi; ikkinchidan, hozirgi o'zbek adabiy tili bilan eski o'zbek tilini bir-biriga yaqinlashtiradi, ular orasidagi tafovutni kamaytiradi"¹.

Bu masala Elbekning quyidagi izlanishlarida ham yorqin ko'rinadi:

1. U turkiy so'zlarni to'playdi va ularni ba'zi olinma so'zlar o'rnida qo'llashni taklif qiladi: *tegra-to'g'arak (doira)*, *avay (ehtiyot)*, *boshqarma (idora)*, *buyurma (hukumat)*, *bosqoq (noib)*, *yozoq (maktab)* va boshqalar.

Elbek mana shu kabi 550 ta so'zni to'plab, "Lug'at va atamalar" rubrikasi ostida gazetada e'lon qilgan.

2. Ba'zi olinma so'zlar o'rnida noto'g'ri qo'llanayotgan so'zlarga qarshi chiqadi va olinma so'zning o'zini qo'llash yoki muvofiqligini topish tarafdori bo'ladi: *o'zgarish (inqilob o'rnida)*, *u "o'zgarish" emas, "to'ntarish"* ma'qul deb hisoblaydi.

3. Ba'zi holatlarda biri o'rnida ikkinchisi aralash qo'llanilayotgan so'zlarni yetarli differentsiatsiya qilishni oldinga suradi. Uning fikricha, matbuotda *qasaba (arabcha kichik shahar)*, *bo'lis (volost-katta qishloq ma'nosida)* so'zlari aralash qo'llanilmoqda. Elbek bu so'zlar o'rnida qadimiy "*kent*" so'zini qayta tiklab qo'llashni taklif qiladi. Chunki bu so'z qayd qilingan har ikki so'z o'rnini bosa oladi.

4. Elbek turli joylarda bir xil tushuncha uchun har xil terminlarning qo'llanayotgani va paralellik terminologiyada turlilikni keltirib chiqarayotganini aytadi va bunga barham berish lozimligini ta'kidlaydi. Masalan, "*tomon*" ma'nosini beruvchi "*zuli*" so'zi o'rnida Toshkentda "*qobirg'a*"; "*musallas*" o'rnida Farg'ona vodiysida

¹ Курбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т.: 1993. – Б. 5-6.

“*uchburchak*”, Toshkentda “*uchlik*” terminlari ishlatiladi. Elbek ularni bir xillikka keltirish tarafdori bo‘lgan.

Elbekning o‘zbek tili lug‘aviy boyligini me‘yorlashga doir qarashlari va bunda u amal qilgan ilmiy tamoyillar Sh.Bobomurodovanning “O‘zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli” mavzuidagi dissertatsiyasida keng tahlil qilingan¹.

N.Yangiboyeva Miyon Buzrukning fikr yuritilayotgan muammo yuzasidan “Adabiy til va istiloh” maqolasida tutgan nuqtayi nazarini tahlil qilar ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi:

“Miyon Buzruk adabiy tilning tamoyillarini belgilashga harakat qilib, uni “Yangi adabiy til” tushunchasi bilan yuritadi. Uning asosiy xususiyati sifatida “Omma so‘zlashuv tilini bir-biriga yaqinlashtirish” deb biladi. Uningcha “Yangi adabiy til”ni yaratishdagi eng muhim muammo ikki narsada ko‘rinadi: 1. “Eski lisoniya” ta’siri bilan kirib qolgan arabcha, forsha so‘zlarni o‘zbek tili qoidalariga qanday bo‘ysundirish. 2. Yangidan kerak bo‘lgan so‘zlarni o‘zbekchaga qanday tilda olish.

Miyon Buzruk fikricha, “adabiy tilni omma tiliga yaqinlashtirish uchun, albatta, eski adabiy tilni soddalashtirish” va “omma, xalq qulog‘idan va zehnidan uzoq bo‘lgan ko‘p arabcha va forsha so‘zlarni tildan chiqarish kerak bo‘ladi”².

Ammo Miyon Buzruk “O‘zbek tili arabcha, forsha so‘zlardan tamoman qutila olmaydi” deb to‘g‘ri xulosa qiladi. Chunki bu so‘zlar omma tilida mavjud va o‘zbek tilining tub so‘zlar qatlamiga o‘tib ketgan.

Miyon Buzruk quyidagilarni qayd qiladi:

1. O‘zbek tilida muqobili bo‘lgan va omma tiliga singishib ketmagan so‘zlarni chiqarib tashlash tavsiya etiladi. *Nusrat, fath, mastura* kabilarni.

2. O‘zbek tilida muqobili bo‘lgan va “bir daraja shevaga o‘rnashg‘on so‘zlarning ham o‘zbekchalari saqlanib, arabcha va forschalari tark qilinadi”: *amr, said, shabnam, shoda, sahro, g‘alaba,*

¹ Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 2002. – 24 б.

² Янгибоева Н. Миён Бузрук ва сўз танлаш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007 – №6. – Б. 101.

harb soʻzlaridan voz kechish kerak, chunki ularning oʻzbekchalari bor. Ammo bu soʻzlarning ekvivalentlarini Miyon Buzruk keltirmagan.

3. Muqobillariga koʻra arabcha, forsha soʻzlar qulay boʻlsa, ularni saqlab qolish kerak, yaʼni “arabcha, forsha soʻzlarning oʻzbekchadagi muqobillari oʻzlari qadar maʼlum boʻlmasa”.

Uningcha, *peshona, hayron, nadomat, shirin, xatar* soʻzlari oʻzbek tilidagi *manglay, oʻkunmak, chuchuk, koʻngul* soʻzlariga qaraganda qulay. “Asosan, bunday nuqtalardan soʻzlashda nutqning yengil boʻlishi koʻzda tutiladi”.

Oʻzbek tilida muqobili boʻlmagan yoki muqobili boʻlsa-da, unutilib ketgan arabcha, forsha soʻzlarni saqlash kerak. Bu fikrda ham asos bor. Haqiqatdan ham, *mol, halak, qasd, tark, insof* kabi soʻzlarni tildan chiqarib tashlashga hojat yoʻq. Oʻz etimologik maʼnosidan yiroqlashib ketgan ovqat, pora, kasal kabi soʻzlarni qoldirish haqidagi fikr ham ijobiydir¹.

Demak, XX asrning boshi va 20-30-yillarida oʻzbek tilining rivoji qaysi yoʻldan borishi masalasida yagona nuqtayi nazar yoʻq edi, bir-biriga mos kelmaydigan turli qarashlar oldinga surilar edi. Ushbu nuqtayi nazarlar bir qator oʻzbek tilshunoslarining ishlarida ham tilga olingan².

Umumturkiy til yaratish gʻoyasi va davr tilida yuzaga kelgan baʼzi lisoniy xususiyatlar

Umumturkiy adabiy til yaratish gʻoyasi va uning taʼsirida oʻsha davr matbuoti va badiiy adabiyoti tiliga usmonli turk, ozarboyjon va tatar tillaridan bir qator soʻzlar, soʻz formalari kirib keldi. Bunga sabab umumturkiy til uchun asos, namuna boʻla oluvchi tillar sifatida

¹ Янгибоева Н. Ўша мақола. – Б. 102-103.

² Гулямов А. Развитие узбекского литературного языка в советский период // Известия АН УзССР, 1948. – №5; Усманов А. Вопросы узбекской научной терминологии // Вопросы изучения языков народов Средней Азии и Казахстана. – Т., 1952. – 188 с; Камалов Ф. История становления и развития узбекского национального языка // Вопросы изучения языков народов Средней Азии и Казахстана. – Т., 1952; Қори Ниёзий Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Т., 1956. – 514 б; Решетов В.В. Узбекский язык. Часть — 1. – Т., 1959. – 359 с.

usmonli turk tili, ozarboyjon tili, tatar tili ba'zan "chig'atoy tili" (eski o'zbek tili) oldinga surilgan edi.¹

O'sha davrda ona tilining sofligi uchun kurashish, uni keng ommaga tushinarsiz arab va fors tili so'zlaridan, rus tili va u orqali yevropa tillaridan kirib kelayotgan leksemalardan tozalash g'oyasi ham mavjud edi. Iste'moldan chiqarilgan so'zlar o'rni ona tili yoki genetik jihatdan turkiy bo'lgan so'zlar bilan to'ldirilishi lozim edi. Ba'zi hollarda mana shunday so'zlar o'zbek tili uchun qardosh turkiy tillar leksikasidan ham axtarildi. Mana shunday harakatlar natijasi o'laroq XX asr boshlaridagi o'zbek matbuoti va badiiy adabiyoti tilida umumlashtirilgan xolda "g'arbiy turk tili unsurlari" deb nomlangan lisoniy hodisalar paydo bo'ldi.

Bular: 1. Ba'zi so'z (leksema) lar; 2. So'z formalari; 3. So'z yasovchi yoki turlovchi morfemalar; 4. Ba'zi so'z birliklari edi.

Qayd qilingan lisoniy vositalar o'sha davr tilida ham uchraydi. Ushbu xususiyatning mohiyati, uni talqin qilish, baholash bo'yicha turli fikrlar oldinga surilgan bo'lib, bari bir bu masala muammoligicha qolib kelmoqda. Shu sababli biz bu masalaga qisqacha to'xtalishni va uni Abdulla Avloniy asarlarida uchraydigan material asosida tahlil qilishni lozim topdik.

Tilga olinayotgan masalani tushunishda quyidagicha muammolar bor:

1. Bu elementlarning o'zbek tiliga kirib kelishining ijtimoiy-lisoniy asoslari nimada?

2. Bu unsurlar qaysi tillardan kirib o'rnashgan, aslida qaysi tillarga mansub?

3. Bu unsurlar o'zbek tilining qaysi uslubi va janrida ko'proq uchraydi va buning sababi nimada?

4. O'zbek tilida uchraydigan bunday hodisalarni qanday baholash kerak, ular o'zlashmalarmi yoki qo'llanma leksema, jargonlarmi?

5. Bu unsurlarning o'zbek mumtoz adabiyoti tilida uchraydigan "o'g'uz elementlari" deb yuritiluvchi hodisaga munosabati?

6. Bu unsurlarning o'zbek tilidagi miqdori, salmog'i qanday? Turli adiblar tilida ular miqdoran farqlanadimi?

¹ Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Т.: Учпедгиздат УзССР, 1940. -С 14.

7. Bu unsurlarning keyinchalik o‘zbek tilidan chiqib ketish sabablari nimada?

Yuqorida qayd qilingan savollarga javob topish uchun o‘zbek tilshunosligida ushbu muammo bo‘yicha bildirilgan fikrlarga qisqacha to‘xtalamiz.

XX asr boshlaridagi o‘zbek tilida uchraydigan “g‘arbiy turk”, tatar tili unsurlarini tahlil qilgan tilshunos A.K.Borovkovdir. Uning yozishicha, 1905-1917 yillar davridagi o‘zbek adabiy tili xalqchil emas, balki qandaydir “aralash” (smeshannyy) til tasavvurini tug‘diradi. Bu ma’noda u “o‘tish davri adabiy tilidir”. Unda tatarizmlar, “g‘arbiy turk” tili elementlari ko‘plab uchraydi. Tatarizmlarning kirib kelish sababini A.K.Borovkov shunday talqin qilgan: “Tatarizm va g‘arbiy turk tili unsurlari o‘zbek adabiy tili, ayniqsa, davriy matbuot tilida muhim o‘rin egallagan. Bunga asosiy sabab, birinchi navbatda, Rossiya, Qrim, Ozarbayjon va qisman Turkiyaning g‘oyaviy ta’siridir.”¹

Muallif bu unsurlarni usmonli turk va tatar matbuoti ta’sirida, shuningdek, o‘zbek ziyolilarining savdo va boshqa yo‘llar bilan Rossiya, Turkiya, Eron mamlakatlariga sayohat qilishlari natijasida kirib kelgan deb hisoblaydi.

A.K.Borovkov fikr yuritilayotgan unsurlarning o‘sha davr o‘zbek tilidagi mavqeini “G‘arbiy turk tili unsurlari o‘zbek adabiy tilida juda mustahkam o‘rin egallagan, o‘sha davr mobaynida bu unsurlar o‘zbek adabiy tili, ayniqsa, davriy matbuot tilida ko‘proq saqlanib qolgan” – deb baholaydi.²

A.K.Borovkov “g‘arbiy element” lar haqida quyidagilarni yozadi: “Keltirilgan misollar shuni tasdiqlaydiki, g‘arbiy turk tili unsurlari o‘sha davr adabiy tilida muhim o‘rin egallagan. Bu haqda ilmiy adabiyotlarda ko‘p gapirilgan. Ular “umumturkiy adabiy til” ga o‘ziga xos jilo bag‘ishlagan.”³

A.K.Borovkov o‘sha davr o‘zbek tilidagi tatar tiliga oid elementlarning sababini quyidagicha izohlaydi: “O‘sha davr tilida tatar tilidan o‘zlashgan unsurlar ham sezilarli ahamiyat kasb etgan. Bu

¹ Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Т.: Учпедгиздат УзССР, 1940. –Б. 19.

² Ўша ерда, -Б. 20.

³ Ўша ерда, -Б. 21.

holatni, o‘z navbatida, jadid matbuotida asosan tatar ziyolilarining bevosita ishtiroki natijasi deb baholash mumkin. Tatarizmlar fonetik unsurlarda, unlilarning o‘ziga xos qisqartirib talaffuz qilinishida o‘z aksini topgan.”¹

Keltirilgan fikrlardan ko‘rinyapdiki, A.K.Borovkov “g‘arbiy turk” va tatar tili elementlarining tahlil qilinayotgan davr tilidagi mavqeyi va rolini sal oshiribroq ta’riflaydi. Bordi-yu, agar shunday bo‘lsa, ular keyinchalik o‘zbek adabiy tili me’yorlarida saqlanmasdan nega chiqib ketdi, deyilgan savollarning tug‘ilishi tabiiy.

A.K.Borovkov o‘z tahlillaridan kelib chiqqan holda 1905-1917 yillar o‘zbek adabiy tilining holatini quyidagicha baholaydi: “1905-1907 yillar oralig‘idagi o‘zbek adabiy tilining jonli xalq tiliga munosabati qanday bo‘lgan? Bu savolga javob berish uchun maxsus tadqiqotlar o‘tkazishimiz zarur. Umumiy ma’noda bu savolga quyidagicha javob berish mumkin: 1905-1917 yillar davri o‘zbek adabiy tili aslida feodal davri eski o‘zbek adabiy tilining davomi bo‘lgan va xalq jonli so‘zlashuv tilidan yiroq bo‘lgan. Bu davrdagi adabiy tilning asosi jonli xalq tili bo‘lmagan, shu sababdan ham o‘sha paytda adabiy til haqidagi bahslarda shevalar muammolari ko‘tarilmagan.”²

Abdulla Avloniy asarlaridagi bu unsurlar haqida fikr yuritgan mualliflardan biri atoqli o‘zbek adibi Pirimqul Qodirovdir. U Avloniyning ona tili haqidagi she’rida uchraydigan *tug‘dig‘im* so‘zi haqida fikr bildirib yozadi: “Turkcha yoki ozarbayjoncha *tug‘dig‘im* so‘zi ham A.Avloniy ijodida tasodifiy emas, usmonli turk va ozarbayjon tillari o‘zbek tiliga nisbatan oldinroq zamonaviy taraqqiyot yo‘liga kirgan edi. A.Avloniy bu tillarning jonli xalq tili asosiga o‘tishdagi tajribasidan foydalanishga urinar edi. Shuning uchun Abdulla Avloniy chiqargan gazetalarda ham, uning kitoblarida ham turkcha so‘zlar, iboralar anchagina uchraydi... A.Avloniy hatto, “banim qalamim ila nashr o‘linajaq kitoblar” deya bir jumlani butunlay turkcha tuzadi.”³

Pirimqul Qodirov A.Avloniy asarlari tilidagi bu kabi elementlarning o‘rni va rolini A.K.Borovkov kabi baholamaydi, balki

¹ Боровков А.К. Ўша китоб. — Б. 21.

² Шу манба. — Б.22.

³ Қодиров П.Халқ тили ва реалистик проза, 34-бет.

ularning juz'iy hodisa ekanini ta'kidlaydi: "Abdulla Avloniy asarlarining tilida bunday taqlid juz'iy o'rin tutadi. Uning "Turkiy guliston", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Adabiyot yohud milliy she'rlar" kabi darslik kitoblari o'zbek xalqi tilining boyliklaridan samarali foydalanishining o'sha davr uchun yaxshi namunalari bo'la oladi." ¹

Abdulla Avloniy va o'sha davr ijodkorlari tilida usmonli turk, ozarboyjoncha va tatarcha lisoniy unsurlarning uchrashi bejiz emasligi haqida o'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga oid tadqiqotlarda ham fikr yuritilgan. Bu elementlar, bir tomondan, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, ma'rifiy-ma'naviy an'ana bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, Abdulla Avloniyning o'sha davrdagi turk, ozarbayjon, tatar yozuvchi va ma'rifatparvarlari bilan yaqindan shaxsiy aloqada bo'lganligi, tilga olingan xalqlar tilida nashr qilinadigan matbuotni muntazam o'qib borganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, Abdulla Avloniy va boshqa o'zbek adiblarining asar va maqolalari tilga olingan xorijiy matbuotlarda ham bosilib turgan." ²

O'zbek adabiyoti tarixiga oid ilmiy manbalarda bir qator o'zbek adiblari Ozarbayjonda nashr qilinadigan ba'zi jurnallarni sistemali ravishda o'qib borganligi haqida ma'lumotlar bor: "Bokuda chiqadigan "Mulla Nasriddin", "Dabiston" kabi jurnallarni O'rta Osiyodagi ko'pgina ilg'or ziyolilar qatori yosh Hamza, S.Ayniy, Abdulla Qodiriy, So'fizoda, Ajziy, Avloniy va boshqalar ham sistemali o'qib turganlar." ³ Ular ushbu nashrlarning muharrirlari bilan shaxsiy munosabat ham o'rnatishgan: "Bu davrda Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Ajziylar "Mulla nasriddin" jurnalining redaktori, "Ozarbayjon Gogoli" deb nom olgan mashhur satirik Jalil Muhammadqulizoda bilan shaxsiy muloqotda bo'lganlar." ⁴

Mana shu kabi aloqalar tilga olingan adiblar asarlari matnida ozarbayjon tilining ta'siri bo'lganligini asoslovchi omil bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Chunki, fikr yuritilayotgan davr – o'zbek tili rivojida eng murakkab va nozik davr edi. O'z lisoniy normalarini

¹ Қодиров П. Ўша иш, 34-бет.

² Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: "Фан", 1980, –Б. 308-310.

³ Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: "Фан", 1980, –Б. 309.

⁴ Ўша ерда, –Б. 310.

belgilashga dastlabki qadamlarni quyayotgan yangi o'zbek tiliga yuqoridagi kabi tashqi muhitning osongina ta'sir etishi tabiiy edi.

Mana shu kabi fikrlar Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlaridagi holatlar yuzasidan ham aytilgan: "Hamzaning 1914-1917-yillardagi she'rlariga nazar tashlar ekanmiz, ularda o'zbek klassik adabiyotidan ko'ra tatar badiiy madaniyati ta'siri ko'proq bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Uning bu davrdagi ijodida ozarbayjon va usmonli turk adabiyotining ham ma'lum unsurlari bor... Hamza hatto, tatar tiliga xos ifodalar va jumla qurilishlarini keng istifoda eta boshladi." ¹

Fikr yuritilayotgan masalaning ta'siri kuchayishida ilmiy hamkorlik va ilmiy tadqiqotlar ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Elbekning lisoniy merosini o'rgangan Sh.Bobomurodova buni alohida ta'kidlaydi: "XX asr boshlariga kelib fan va madaniyat o'chog'iga aylangan Istambul, Qozon shaharlarida turk tilini tadqiq etuvchi tilshunos olimlar guruhi faoliyat ko'rsata boshladi. Ular harf, alifbo, imlo muammolari ustida izlanishlar olib borib, turkiy tillarning ilmiy grammatikasini tuzishga kirishdilar. Natijada, bu davrga kelib "Qavoidi lisoni turkiy", "Qavoidi turkiy" kabi grammatikaga oid bir qancha asarlar yuzaga keldi." ²

Fikr yuritilayotgan lisoniy unsurlarning o'zbek tiliga ta'sirini qanday baholash lozim, ular o'zlashmalarmi? Bu unsurlarni usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillarining o'zbek tiliga ta'siri deb tushunish kerakmi? Ushbu unsurlar eski o'zbek tilida ham uchrab turadigan *o'g'uz komponentiga* aloqadormi? deyilgan savollarga aniq javoblar yo'q. Bu masalalarga aniqlik kiritishda o'zbek tilshunos olimi Azim Hojiyev tomonidan oldinga surilgan mulohazalar alohida ilmiy qimmatga ega. Biz bu fikrlarni quyida qisqacha tahlil qilamiz:

A.Hojiyev XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbek tilida uchraydigan ozarbayjoncha va tatarcha lisoniy elementlarni o'sha davr tiliga qayd qilingan tillarning ta'siri deyilgan fikrga qo'shilmaydi va ozarbayjoncha elementlarni avvaldan o'zbek tili tarixida mavjud bo'lgan hodisa deb biladi. U yozadi: "Hozirgi o'zbek tilining shakllanish jarayonida (ya'ni shu davr yozma manbalarida) uch til –

¹ Ҳамза Ҳақимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. – Тошкент: "Фан", 1988. –Б. 452.

² Бобомуродова Ш.Э. Ўзбек тилшунослиги ривожда Элбекнинг роли. Филол.. фан. номзоди дисс. автореф. – Т.: 2002. –Б. 6.

ozarbayjon, tatar va rus tili elementlari qo'llanishi kuzatiladi. Ozarbayjon tili elementlarining qo'llanishi juda sanoqli bo'lib, ular ayrim leksema va morfologik birliklardan iboratdir. Lekin bu faktni hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida ozarbayjon tilining bevosita ta'siri emas, balki yozuvda eski o'zbek yozma nutqiga xos elementlarning qo'llanishi deb izohlash to'g'ri bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida *-gan* affiksi bilan yasaluvchi *aytgan*, *sevgan* formasi o'rnida *aytmish*, *sevdig'i* formalarining qo'llanishi kabi holatlar XX asrgacha bo'lgan o'zbek tiliga oid manbalarda ham qo'llangan. Bu qo'llanish inqilobdan so'ng ham davom etib, ulardan ayrimlari, jumladan *-mish*, *-dig'i* affiksi bilan yasaluvchi forma qonuniy ravishda ko'p o'tmay iste'moldan chiqib ketdi, ba'zilar esa o'zbek adabiy tilidan o'rin oldi. Masalan, asli ozarbayjon tilidan o'zlashgan *-moqda* affiksi bilan yasaluvchi fe'l formasi hozirgi o'zbek adabiy tilida juda keng qo'llanadi. Demak, inqilobdan so'ng yozma manbalarda ozarbayjon tili elementlarining qo'llanilishini o'zbek tilining taraqqiyotiga ozarbayjon tilining bevosita ta'siri deb emas, balki eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan ozarbayjon tili elementlarining inqilobdan keyin ham qo'llanishda davom etishi deb qarash kerak.”¹

A.Hojiyev o'sha davr tilida uchraydigan tatar tiliga xos ayrim lug'aviy va morfologik elementlarni ham o'zbek tiliga tatar tilining ta'siri deb izohlashga qo'shilmaydi: “O'zbek adabiy tili taraqqiyotining dastlabki etaplarida, ayniqsa, yigirmanchi yillarga oid yozma manbalarda, tatar tiliga xos ayrim leksik va morfologik elementlarning ko'p qo'llangani kuzatiladi. “*Aytalar*”, “*yozarg'a tegish*”, “*aytarg'a mumkin*” kabi juda ko'p qo'llangan formalar shular jumlasidandir. Bu hodisani o'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga tatar tilining ta'siri deb izohlash mumkin emas. Bu hodisa bir necha sabablar bilan izohlanadi. Masalan, matbuot ishlarida tatar intelligentlarining aktiv ishtiroki asosiy sabab hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek adabiy tilining barcha sohalari bo'yicha normalarning aniq belgilanmaganligi, adabiy til uchun qaysi shevaga xos birlik norma sifatida tayin etilmaganligi ham tatar tiliga xos elementlarning qo'llanishiga yo'l ochgan. Keyinchalik hozirgi o'zbek adabiy tili uchun norma deb qaraluvchi birliklar o'zbek

¹ Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти — I. — Тошкент: “Фан”, 1988. —Б. 24.

shevalarining o‘zidan belgilanishi natijasida tatar tiliga xos elementlarning barchasi qonuniy ravishda yozuvda ham iste’moldan chiqib ketdi. Demak, o‘sha davr yozma manbalarida ozarbayjon va tatar tili elementlarining qo‘llanilishi hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotiga bu tillarning ta’sirini ko‘rsatuvchi fakt bo‘la olmaydi.”¹

A.Hojiyevning qayd qilingan qarashlarini fikr yuritilayotgan hodisalarga yangicha yondashishning bir ko‘rinishi deb baholash mumkin. Shu bilan birga, ozarbayjon tili elementlarining o‘zbek tili tarixida qo‘llangani o‘sha davrda ham tillararo ta’sir muhim bo‘lganidanmi yoki bu tillarning genetik manbai bir bo‘lganligidan yuzaga kelgan lisoniy paralellar bo‘lishi mumkinligi kabi masalalar alohida kuzatishlarni talab etadi.

Ma’lumki, tilga olingan davrda o‘zbek matbuotida tatar mutaxassislar ishlagani, ba’zi maqolalarni ular yozgani yoki tahrir qilgani ham aniq. Bunday holda material muallifi ongli yoki ongsiz ravishda o‘zbekcha matnga tatarcha so‘z va iboralarni aralashtirib yuborgan. Bu holda matnda uchraydigan tatarcha elementlarni *o‘zlashma* emas, *vulgarizm* deb baholashga to‘g‘ri keladi. Chunki, tilga ta’sir haqida gap borganda bir tildan ikkinchi tilga o‘zlashgan, singgan hodisalar ko‘zda tutilishi lozim. Bordi-yu, bu elementlar o‘zlashgan, o‘zbek tiliga singgan hodisalar bo‘lganida o‘zbek tilidan osonlikcha chiqib ketmas edi. Har holda, bu masalalar kengroq material asosida maxsus tekshirish ishlarini talab qiladi.

Mana shu mulohazalardan keyin Abdulla Avloniy she’rlari tilida uchraydigan usmonli turk, ozarbayjon va tatarcha lug‘aviy, morfologik, qisman sintaktik unsurlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: **1. Lug‘aviy unsurlar.** Abdulla Avloniy she’riyati tilida uchraydigan sof lug‘aviy unsur (leksema) lar salmoqli miqdorni tashkil qilmaydi va ular asosan, fe’l turkumiga mansubdir. Quyida ularning ma’nosi hamda ular uchraydigan matnlardan namunalari keltiramiz:

O‘ton – bu fe’l Avloniy she’rlari tilida “*o‘ton*”, “*o‘tondim*”, “*o‘tonmasmu*” shakllarida uchraydi va “*uyalmoq*” ma’nosida qo‘llanilgan.

¹ Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти — I. — Тошкент: “Фан”, 1988. —Б. 25.

Ketib hamrohlar, san yo'lda qolmakdan *o'ton* millat¹...

Falak kajrav biza jabru jafosindan *o'tonmazmu?*... (TT, 115-bet).

O'son fe'li – “*bezmoq*”, “*zerikmoq*”, “*voz kechmoq*” ma'nosidagi bu fe'l “*o'son*”, “*o'sondim*” shakllarida uchraydi:

Ko'zing och, yotma, g'aflatdan *o'son*, millat, *o'son*, millat,

Toparsan birla avlodning omon millat, omon, millat... (TT, 108-bet).

Chalishmoq, cholishmoq – bu fe'l “*harakat qilmoq*”, “*mehnat qilmoq*” ma'nolarini anglatadi. “O'zbek tilining izohli lug'ati” da ham eskirganlik belgisi ostida uning mana shu ma'nolari keltirilgan. (O'TIL, 4-jild, 450-bet).

Har kim *cholishsa* millat uchun xalq ta'n etar... (TT, 111-bet).

Millat ishqina har hob *cholishib* ishlagan eding,

Xalq rahmatiga loyiqu jannat makon eding.... (TT, 169-bet).

Do'nmoq – bu fe'l “*do'ndi*”, “*do'nsun*”, “*do'ndurdi*” shakllarida uchraydi. “O'zbek tilining izohli lug'ati” da bu so'zga eskirgan belgisi qo'yilgan va uning 1) *Aylanmoq, o'xshamoq*; 2) *Qaytmoq, tiklanmoq, o'zgarmoq* ma'nolari keltirilgan. (O'TIL, 1-jild, 675-bet). Abdulla Avloniy she'rlarida bu so'z yuqoridagi ma'nolarda uchraydi:

Do'ndi fasli bahora xoriston,

Gul ochildi bo'lub bahoriston...(TT, 145-bet).

Onjaq, anjaq – “*uncha*”, “*u qadar*” ma'nolarini bildiruvchi bu so'z quyidagi misralarda uchraydi:

So'zlaring to'g'ridur borisi haq,

Haqqini so'zlayin senga *onjaq*.. (TT, 214-bet).

Gunash – “*quyosh*” so'zining fonetik variantidir:

Gunash nuridan ayladi bizni dur,

Hama ilm subhidadur bizga shom... (TT, 123-bet).

To'fang – bu so'z “O'zbek tilining izohli lug'ati” da *Tufang* shaklida yozilib, uning *To'fang* shakli ham keltirilgan hamda “*chaqmoqtosh yordamida otiladigan pilta miltiq*” deb izohlangan. (O'TIL, 4-jild, 214-bet). Abdulla Avloniy bu so'zni bitta joyda ko'chma ma'noda qo'llagan:

Hayoting tarbiyatsizlik *to'fangiga* nishon aylab... (TT, 104-bet).

¹ Абдулла Авлоний. Тошкент тонги. Тўпловчи ва сўз боши муаллифи Бегали Қосимов. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. –Б.107. Кейинги мисоллар ҳам ушбу тўпламга киритилган шеърлардан олинди, рақамлар тўплам саҳифаларини кўрсатади. (С.Н.)

Keltirilgan dalillar usmonli turk va tatar tillari o'zbek tiliga lug'aviy jihatdan sezilarli ta'sir o'tkaza olmaganini ko'rsatadi. Ular o'sha davrda o'zbek she'riyati tili lug'aviy me'yorlarida sezilarli o'zgarish yasay olmagan. Fikr yuritilayotgan davr tilining talaffuz va morfologik me'yorlariga chet tillar ham ma'lum ta'sirini o'tkazgan. Quyida Abdulla Avloniy she'riyati leksikasini birma-bir, sinchiklab kuzatish natijasida belgilashga muyassar bo'lgan dalillarimizni keltiramiz. Bu boradagi asosiy materiallar fe'l so'z turkumiga mansubdir.

2. O'zak (negiz) tarkibidagi o'zgarishlar.

Bo'l so'zining **o'l** shaklidagi holatlari:

Shod *o'l*, millat, shod *o'l*, shodlik kunimiz- bu kun.... (TT,79-bet).

To'g'ri so'z qolmadi, bizlarga yolon bo'ldi mijoz,

Tarbiyatsiz bu fano mulkida bemor *o'lduk*...(TT, 102-bet).

O'l o'zagi she'riyatda fe'lning *o'lur*, *o'lduk*, *o'lan*, *o'lmish* kabi shakllari tarkibida ham uchraydi.

Bor so'zining **vor** shaklidagi holatlari:

Na millat yodi moziying *vor*, na istiqboling umidi...(TT,104-bet).

Kelsa qish, bo'lsa sovuq, har kimga me'yoringa *vor*,

Yo'qg'a yo'qcha borlarga borincha *vor*...(TT, 203-bet).

Ushbu o'zak *vorkan*, *vordur*, *vordurki* so'z shakllari tarkibida ham uchraydi.

Ber so'zining **ver** shaklidagi holatlari:

Asra, yo rab, baloyi ofatdan,

Yo'q umr *ver* har ikkisina, Xudo... (TT, 124-bet).

O'zakning ushbu shakli *vermasa*, *vermas*, *veru*, *vering*, *vermak*, *vermayur*, *veradur* fe'llari tarkibida kelgan.

Uyg'on so'zining **Uyon** shaklidagi holatlari:

Yotursan tobakay g'aflat quchog'inda, *uyon*, millat...(TT, 107-bet).

O't so'zi **O'd** shaklida:

O'zgalar sa'yu jadal birla yetub maqsudiga,

Bizni yalqovlik tutub otdi tanazzul *o'diga*...(TT, 106-bet).

Ming so'zi **Bing** shaklida:

Safolarda, razolatda chekarmiz *bing* g'ofil bizlar... (TT, 106-bet).

Et so‘zi **Ed** tarzida *edar, edan* fe’llari tarkibida keladi:
Bu kun millat bojini past *edan* mezoni vahshatdur...(TT, 117-bet).
Maktab namoz ta’lim *edar* ham tadoring...(TT, 120-bet).

Man, Men so‘zining **Ban** tarzidagi holatlari:

Shoiram, *ban* so‘zlaram, sizga zabonim arz etdi,
Jon qulog‘i birla tinglang, sizg‘a jonim arz etar...(TT, 138-bet).
Ban yiqilsam yo yo‘q o‘lsam, kimsadan so‘rmang *bani*,
Ko‘ngluming yolin yiqilmish xonumonim...(TT, 138-bet).
Bu o‘zak *bani, banga, banim* so‘z shakllarida ham uchraydi.

Endi so‘zining **Emdi** shaklidagi holatlari:

Emdi bizning bu holimizga bu zamon qo‘ymas-u,
Bosh devorga taq etgan so‘ng bo‘lamiz xushyor-o‘v...(TT, 143-bet).

U olmoshi **On** tarzida mustaqil qo‘llanmaydi, tarkibida *oni, onlar* kabi so‘z shakllarida uchraydi:

Kimniki manfaati xalq uchun qadam qo‘ysa,
Oning haqida tun-u kun bad duo qilamiz...(TT, 143-bet).
Onlari yo‘q ishi fig‘oning ila...(TT, 211-bet).

Yolg‘on so‘zi **Yalon** tarzida uchraydi:

Taajjub, bu zamonda to‘g‘ri so‘z tuvg‘onga yoqmaydur,
Temurchidek *yalon* so‘zni cho‘zishkoniga diqqatman...(TT, 152-bet).

Jin-u shaytondin *yalondan* bergan axboring g‘alat...(TT, 152-bet).
Bu negizdan *yalonchilik, yalonchi* so‘zlari ham yasalgan:

Yedilar bo‘rilar hamma quyini,
Mana, jonim, *yalonchilik* o‘yini!.. (TT, 216-bet).

Yig‘la so‘zi **Og‘la** tarzidagi holatlar:

Ey ko‘zum, qon to‘k, *og‘la*, Hijron bo‘l,
Ishda millatga buldur a‘losi...(TT, 156-bet).

Bu negiz *og‘lamaz (yig‘lamas)* fe’li tarkibida keladi. Abdulla Avloniy ushbu shaklni qofiyada takrorlash orqali misralarning ta’sirchanligiga erishgan:

Bu yozuqlar holina qaysi musulmon *og‘lamaz*,
Bu foje’ sahnani ko‘rganda kim qon *og‘lamaz*.
Bu musibat dog‘ida qay ahli Qur’on *og‘lamaz*,
Shuncha iymon ahli qurbon, qaysi Hijron *og‘lamaz*...(TT, 193-bet).

Tushun soʻzi **Dushun** tarzidagi holatlar:

Dushun joni azizing, ehtiyot et,

Musaffo boʻl, paygʻambar ortidan ket...(TT, 162-bet).

Ket soʻzi **Ked** shaklidagi holatlar:

Saxovatsiz, muruvvatsiz kedan joninggʻa arzirmu? (TT, 173-bet).

“*T*” tovushining “*D*” kabi talaffuzi turkiy tilning oʻgʻuz komponentiga xosligi maʼlum.

Bu olmoshining **Bun** shaklidagi holati:

Nogahon bir kuchuk chiqib bogʻdan,

Vovulladi *bunlara* soʻl va sogʻdan... (TT, 174-bet).

El soʻzining **Al** shaklidagi holati:

Onasi keldi, ayladi faryod:

– Dod, zolimlaring *alindan* dod! (TT, 212-bet).

Avloniy sheʼrlarida qoʻllangan bir qator leksemalar tarkibida usmonli turk, ozarbayjon, kam miqdorda tatar tiliga xos soʻz yasovchi, soʻz turlovchi, tuslovchi morfemalar uchraydi. Bunday shakllar oʻzlari uchragan misralar tiliga maʼlum darajada oʻzbek tili meʼyorlari uchun xos boʻlgan maʼno ottenkasini bagʻishlaydi. Bularning baʼzi namunalari quyidagilar:

-yur (-di) shakli Avloniy sheʼrlari tilida anchagina boʻlishli va boʻlishsiz feʼllar tarkibida keladi: *ishlayur, ishlamayur; solmayur, aylamayur, yotmayur, bilmayur, koʻrmayur, sezmayur, topolmayur, qilmayur, yetishmayur* va boshqalar.

Qizlar anoning soʻzlarini *qilmayur* qabul,

Oʻgʻil atosining soʻzina *solmayur* quloq... (TT, 110-bet).

Roʻshnoligʻ *koʻrmayur*, kundan kun ortar mehnati... (TT, 130-bet).

-am (man) shakli feʼlning birinchi shaxs birlik shaklini hosil qiladi. Bu qoʻshimcha *aylaram, koʻraram, yoturam, sancharam, oʻynaram, sochuram, ishlaram* kabi feʼllar tarkibida keladi:

Tamanno *aylaram* sandan, yotursan tobakay, koʻz och... (TT, 109-bet).

Sovuq, sahar demay, tun-kun *ishlaram*,

Mehnat-mashaqqatda qoq non *tishlaram*... (TT, 203-bet).

-mam (mayman) shakli:

Bosh *koʻtarmam* bul buzuvq vayronadan,

Kimligim yoʻq tentagu devonadan... (TT, 232-bet).

-an (-gan) shakli. Tarkibida ushbu qo'shimcha bo'lgan *kelan, kulan, kelancha* so'zlari uchraydi:

Nechun farah bo'layin, oh beziyo ko'ruram,
Kelan zamonimi, Hijron, *kegan* zamonimdin... (TT, 125-bet).
Qo'lingizdan *kelancha* aylang ehson... (TT, 199-bet).

-maz (-mas) shakli:

Shu charxi kajrav *o'tonmazmi* imtihonindan... (TT, 172-bet).

-i, -im (ning) shakllari. Qaratqich kelishigi formasi bo'lgan ushbu morfema she'riyat tilida *bizim, bizimdag, bizimkilar* so'zlari tarkibida kelgan:

Bizim nechun ishimiz yo'q hayot-u millat ila... (TT, 107-bet).

Ba'zan bu morfema *-niki* vazifasida ham kelgan:

Bo'laklar ilm durrin rishtai joniga tuzganda,
Bizimkilar ilmsiz cho'pchak terishkoniga diqqatman... (TT, 153-bet).

-i (ni) shakli. Tushum kelishigining bunday shakli quyidagi misollarda uchraydi:

Falak *bizi* bivotadur hamisha o'z kuyina,
Bilib turib o'zimizni, anga fido qilamiz... (TT, 141-bet).

-a (-ga) shakli. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi she'riyat tilida *-ga* shaklidan tashqari ko'pgina hollarda *-a* shaklida qo'llanilgan: *dillarga, tarixa, biza, siza, savola, fikra, dorilfununa, xulqina, millata* kabi.

Tarixa boqmayin ko'zimiz to'ldi *qonlara*,
G'ofillar ajaldan ilgari qasd etdi *jonlara*... (TT, 103-bet).

-mish (-ibdi, -gan) shakli:

Osmon ruh, yer mozor *o'lmish*,
Kururam arz na'sh ilan *to'lmish*... (TT, 132-bet).

Jim kulib *qolmish*, oh ovozing,
Churumish jismi nag'mag'o sozing... (TT, 132-bet).

-asim (-gim) shakli. Bu shakl tatar tili ta'sirida qo'llanuvchi qo'shimcha bo'lib, istak maylini anglatadi:

Zohlarning ahvolin elga *aytosim* kelmay,
Bu qissani gar aytsam, chang birla aytuv yaxshi... (TT, 138-bet).

-miy (may) shakli tatar tili ta'sirida qo'llangan:

Ketay desam, *yubormiylar*,
Qochsam, dezertir qilalar... (TT, 235-bet).

-lay (-day) shakli. Tatar tili ta'sirida qo'llanuvchi bu shakl ham Avloniy she'rlarida kam uchraydi:

Ulayda qolmadig'idek, bulayda qolmas... (TT, 171-bet).

Bulay muamalangiz subhidamgacha qolmas... (TT, 171-bet).

-iy (-ib). Ravishdoshning tatar tili ta'sirida qo'llangan bu shakli she'riyat tilida kam uchraydi:

Yuriy-yuriy bo'ldim yamon, mehribonlar qochdi mandan... (TT, 159-bet).

Avloniy she'rlari tilida fors-tojikcha ko'plik shaklida uchraydigan *islomiyon, oliyjanobon, nomusdaron, shoiron* kabi ba'zi so'zlar ham mavjud:

Butun *islomiyon* g'aflatda, shaxsiylik ila mag'rur ... (TT, 147-bet).

Olot etmas g'ayratin *nomusdoron* nafs uchun... (TT, 148-bet).

Siza arzim budur, ey *shoiron*, ishqiya nazm etmang...(TT, 149-bet).

Keltirilgan so'z shakllari o'zbek mumtoz adabiyoti tilida ham uchraydigan an'anaviy leksika qoldiqlarimi yoki o'sha davr Eron adabiyoti, tili ta'sirimi, aniqlik talab qiladi. Bu so'zlar she'riyat tilidagi juz'iy faktlar, xolos.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, XX asr adabiy tilida, ayniqsa, o'zbek matbuoti tilida qo'llanilgan usmonli turk, ozarbayjon va tatar tiliga oid leksik, grammatik shakllar juz'iy faktlar bo'lib, ular o'sha davr o'zbek tilining lug'aviy va grammatik normalariga katta ta'sir o'tkaza olmagan. Buni o'sha so'zlarning o'zbekcha shakllari ham parallel ravishda qo'llanilgani tasdiqlaydi. Umuman olganda, Avloniy she'rlari tilidagi dalillarning tasdiqlashicha, unda usmonli turk, ozarbayjon, tatar tilidan o'zlashgan sof yangi hisoblanuvchi leksemalar barmoq bilan sanalarli darajada. Shaklan o'sha tillarga xos grammatik ko'rsatkichlar (so'z yasovchi va forma hosil qiluvchi morfemalar) esa o'zbek tilidagi formalari bilan parallel ravishda qo'llanilgan. Bundan tashqari, bu morfemalarning o'zbekcha variantlari ularga nisbatan faol qo'llanilgan. Demak, yuqorida qayd etilgan tillar o'zbek tilining lisoniy me'yorlariga ta'sir eta olmagan va salmoqli emas.

ABDULLA AVLONIY SHE'RIYATI LEKSIKASINING LUG'AVIY TARKIBI VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Abdulla Avloniy she'riyati leksikasining lug'aviy tarkibi

Abdulla Avloniy asarlarida, jumladan, uning she'riyati tilida o'zbek tilining adib yashagan davrda me'yor bo'lgan lisoniy xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu davr tilida, ayniqsa, she'riy nutqda quyidagi bir-biriga qarama-qarshi nuqtai nazarlar va o'shandan kelib chiquvchi lisoniy jarayon mavjud edi:

1. O'zbek mumtoz adabiyoti tilida qo'llanilgan an'anaviy lisoniy me'yorlar, an'analardan foydalanish;
2. Adabiy tilning xalq tiliga yaqinlashuvi bilan aloqador bo'lgan xalqchil lisoniy omillar;
3. Umumturkiy til yaratish g'oyasi tufayli yuzaga kelgan yangi jarayonlar ta'siri;
4. Hali unchalik kuchli omilga aylanib ulgurmagan rus tilining ta'siri.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zbek she'riyati tilida o'zbek mumtoz adabiyoti tilining an'analari sezilarli darajada saqlanib turar edi. Shu bilan birga, she'rning mavzusi, estetik maqsadi ham hal qiluvchi omil edi. Masalan, she'r intim mavzuda bo'lsa, unda qo'llangan lisoniy vositalar asarni mumtoz adabiyot tiliga yaqinlashtirar edi, bordi-yu, mavzu ijtimoiy-siyosiy yoki kundalik turmushga oid mavzuda bo'lsa, unda asar tili xalq tiliga yaqinlashganini ko'ramiz.

Abdulla Avloniy she'rlarining aksariyati maorif, ma'rifat, o'sha davr ijtimoiy hayoti, xalq turmushidagi nuqsonlarni tanqid qilish mavzulariga oid bo'lgani uchun uning she'rlari tilida ikki xususiyat yorqin namoyon bo'lgan:

1. Shoir she'rlarida qo'llanilgan mumtoz adabiyot leksikasiga oid so'zlar, tashbehtar, formulalar va trafaretlar, quyma iboralardan foydalanilgan, ammo ular yangi g'oya va intilishlarni yoritish uchun yangi ma'no va vazifalarda ishlatilgan. Masalan, Abdulla Avloniy *gul*, *guliston*, *chaman* so'zlarini ma'rifat mavzusiga bo'ysundiradi va

ularni ta'lim, ilm, bilim samarasi, yuksalishi, rivoji ma'nolarida qo'llaydi.

2. Shoir odamlarni ilm, ma'rifatga undar ekan, Vatan ravnaqi haqida qayg'uradi, o'z maqsadini sodda, xalqqa yaqin tilda ifodalashga intiladi. Masalan, 34 misradan iborat "Maktab" she'ri matnida ba'zi *sabovat, funun, hoziq, horiq* so'zlari istisno qilinsa, ko'pchilik uchun tushunarsiz bo'lgan so'zlar yo'q¹.

Bizning Abdulla Avloniy she'riyati leksikasi bo'yicha kuzatishlarimiz shoirning o'zbek tili lug'aviy boyligini, uning imkoniyatlarini juda yaxshi bilgani va ulardan o'sha davr jadid she'riyatining asosiy, yetakchi mavzularidan biri bo'lgan – ma'rifat mavzusini yoritishda unumli foydalanganini ko'rsatdi.

Shoir she'rlarining lug'aviy tarkibi, u qo'llagan so'zlarning genetik manbalari serqirraligini aniqlash maqsadida biz ularni quyidagi qatlamlarga bo'ldik:

1. O'z qatlam so'zlar.
2. Olinma qatlam so'zlar.

1. Abdulla Avloniy she'riyati leksikasining o'z qatlami.

Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining lug'aviy qatlamlarini maxsus tadqiq qilgan E.Begmatov o'z qatlam leksikasini umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlarga bo'ladi².

Umuturkiy so'zlar ko'pchilik turkiy tillarda uzoq davrdan beri iste'molda bo'lib kelgan mushtarak leksemalardir: *uyqu, qon, ko'z, dengiz, yer, bo'g'iz, arslon, qush* va b.

Abdulla Avloniy qo'llagan umuturkiy so'zlarning asosiy qismini fe'l va ot turkumiga mansub so'zlar tashkil qiladi. Keyingi o'rinni olmosh va uning turli shakllari egallaydi. Masalan, shoir she'rlari tilidagi o'z qatlamga oid 624 so'zni ajratib olganimizda ularning 431 tasi fe'l va fe'l shakllariga, 160 tasi otlarga, 6 tasi songa, 10 tasi olmoshga, 17 tasi sifat va boshqa turkumlarga mansubligi ma'lum bo'ldi.

Bizning kuzatishlarimiz Abdulla Avloniy she'riyati leksikasining o'z qatlamga kiruvchi so'zlarini quyidagi mavzuiy guruhlariga¹ bo'lish mumkinligini ko'rsatdi:

¹ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998. 1-жилд. – Б. 119-120.

² Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.: Фан, 1985. – Б. 102.

1. Qarindoshlik va biologik jins tushunchasini ifoda etuvchi soʻzlar*: *oʻgʻlon, er, xotun, joʻjuq, kishi, qiz, oʻgʻil, tuvgʻon, qon-qarindosh, qarindoshlar, yetim, kundoshlar, ogʻa-ini, ona, ota* va b.

2. Narsalar, qurol-yarogʻlar nomi: *chibiq, uzuk, surat, shupurgi, loy, oqcha, chalma, koʻza, egov, qof, toʻrva, koʻzgu, oltun, kesak, boʻz, elak, omoch, boʻyunturuq* va b.

3. Kasb-hunar va mashgʻulot nomlari: *yamoqchi, elak toʻqutmoq, xirmonchi, chegachi* va b.

4. Tana aʼzolari, ularning tuzilishiga oid tushunchalar nomi: *koʻz, bosh, tan, qon, bagʻir, boʻgʻiz, tish, qoʻl, tirnoq, qorin, koʻz-qoshlar* va b.

5. Borliqdagi tabiiy narsalar, hodisalar nomi: *togʻ, choʻl, dengiz, yer, tufroq, qarotosh, su(v), kecha, kunduz, gunash (quyosh), soya, koʻlmak, yulduz, qorongʻulik* va b.

6. Joy, makon nomlari: *uy, yer, qishloq, tom (uy tomi), yoʻl* va b.

7. Hayvonlar va qushlar nomi: *boyqush, arslon, ot, sigir, toʻti* va b.

8. Vaqt, fasl tushunchasini ifoda etuvchi soʻzlar: *yoz, qish, kun, yotar kun, oʻtmish, chogʻ (shu chogʻ), kech, oy – yil* va b.

9. Oʻsimliklar va ular toʻp boʻlib oʻsuvchi joylar nomi: *gul, lola, yaprogʻ, chaman* va b.

10. Shaxs va boshqa narsalarni atash, koʻrsatish, muloqotga kirishuv soʻzlari (olmoshlar): *biz, sizlar, na (nima), ne (nima), oʻz, oʻzga, san (sen), nechun, nechuk, bu, alar, ular, uyoq, qani, ul, shul, har kim, onlar (ular), necha, bunlar (bular), buncha, onjaq* va b.

11. Taʼlim, tarbiya, maʼrifatga oid soʻzlar: *ilm chirogʻi, bilimli, oʻquv, bilimsiz, oʻrgansun, maktabga kirayluk* va b.

12. Narsa va hodisalarning belgi, koʻrinish xususiyatlarini ifoda etuvchi soʻzlar: *toza, yangi, eski, yosh, qari, yumshoq, qizil, toʻgʻri, yalon (yolgʻon), yashirin, keng, tor, yaxshi-yamon, ojiz, buyuk* va b.

13. Son, miqdor anglatuvchi soʻzlar: *bing (ming), bir (bir kun), oʻn (oʻn yil), besh, yuz ming, bir siqim (oqcha), koʻb (koʻp), oz* kabi.

14. Baʼzi rasm-udumlar nomi: *toʻy, tomosha, bazm, ezibichki (duo)* kabi.

¹ Дадабоев Х., Хамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Т.: Фан, 2007. – Б. 72-73.

* Сўзлар Абдулла Авлоний шеърлари матнида қандай шаклда учраса, шу тарзда сақланди. – С.Н.

15. Harakat-holat tushunchalarini anglatuvchi soʻzlar. Ushbu tip soʻzlar Abdulla Avloniy sheʼriyati leksikasining oʻz qatlamida salmoqli oʻrinni egallaydi. Ularni shartli ravishda quyidagi lugʻaviy-maʼnoviy guruhlarga ajratish mumkin:

1) xolis (neytral) harakat va faoliyat nomlari: *teramiz, tashladik, sotmoq, berdi, hoʻllandi, boqmoq, oʻrnashtirdi, yigʻmoq, yemoq, ekmak, buzmak, yetmoq, soʻndi, qilgʻonmiz, tirnoqlamoq, ishladilar, qolmadi* va b. Ushbu tip feʼllar, ularning turli shakllari oʻsha davr talaffuz meʼyorlariga mos ravishda quyidagi holatda uchraydi: *qutqarur, ortur, boqub, ochilub; xoʻrlandimu, erdimu; chiqsun; etmak, hurkutmak, chekmak, uygʻonmak, ochilmak, otilmak; etmaz; yondurdi, qutuldi, yetushdi; surulduk; oʻldiradur, yigʻlaydur; doʻndirub; qildimiz, boʻldimiz, turdimiz, oldimiz, choldimiz, soldimiz, qoldimiz, oʻqutsamiz; yurishduk, urishtuk, yonduk, boqmaduk, olmaduk, boʻlduk, chekilduk, surulduk, qolduk, ergashayluk, xatlashayluk; qilgʻonimiz, boʻlgʻon, qilgʻon, boʻlgʻondur, adashgʻon, qarolangʻon, kelishmagʻon; oʻlubon, quvlabon, ushlabon, debon; boqmasok; urushkon, kerishkon, tirishkon, choʻzishkon, berishkon, yurishkon, koʻrishkon; qutqargʻali; qilgʻuchi, sotgʻuchi; ochargʻa; qoplamish, yotmish, yumulmush, toʻlmish, oqmish, ochilmish; etmagay, buzmagʻay, choʻzmagʻay* va b;

2) ruhiy holat ifoda etuvchi soʻzlar: *kulmoq, tindirmoq (koʻzni), tuyulmoq, tolmoq (aqldan tolmoq), kechmoq (gunohini kechmoq), uygʻonmak, tirishtuk, otilmak (ilmgʻa otilmak), koʻzyosh chekmoq (afgʻon chekmoq), quvonmak, hurkutmak, oʻynamoq-kulmoq, ogʻladik (yigʻladik)* va b.

Abdulla Avloniy yashagan davr tiliga, jumladan, adib sheʼriyati tili leksikasiga xos xususiyatlardan biri baʼzi feʼl va feʼl shakllarining usmonli turk tili taʼsirida talaffuz etilishidir. Biz tadqiq qilayotgan sheʼrlar tilida ushbu xususiyatning baʼzi namunalari mavjud:

a) mustaqil leksemalar: *cholishmoq, cholishsa, ogʻladik, onjaq, doʻnmush, doʻnmayurmi, oʻsonmaz, oʻtonmazmu* va b.

b) soʻzlarning talaffuz shakllari: *verdimu (berdimi), vergan (bergan), vergusi (bergusi), vordur (bordur) vorkan (bor ekan), ishlayurmiz (ishlaymiz), uchramayur (uchramaydi), yigʻlayan (yigʻlagan), dushtuk (tushdik), edan (etkan, etgan), edimish (etilmish), oʻlan (boʻlgan), olmayurbiz (olmaymiz), koʻruram (koʻraman)* va b.

Keltirilgan soʻz va soʻz shakllarining oʻzbek tiliga kirib kelish sabablari ishimizning keyingi sahifalarida tahlil qilinadi.

Abdulla Avloniy sheʼriyati leksikasining turkiy qatlamini kuzatish shuni koʻrsatdiki, shoir bu soʻzlarni qoʻllash orqali asarlari tilini xalq tili va didiga yaqinlashtirishga, aniq va tushunarli boʻlishiga intilgan. Shuning bilan birga, ushbu leksemalar oʻsha davr tili talaffuz xususiyatlarini, tillarning oʻzaro taʼsiri (morfologik sohada) ni namoyon qiladi, shuningdek, koʻpgina real narsalar tushunchalari nomini tasvirlashda shoir ona tili imkoniyatlaridan unumli foydalanishga harakat qilganini koʻrsatadi.

2. Abdulla Avloniy sheʼriyati tili leksikasining oʻzlashgan qatlami

Oʻzbek tiliga turli davrlarda, turli tillardan oʻzlashgan soʻzlarni tadqiq qilish boʻyicha ancha ishlar qilingan. Bir qator tilshunoslarning ishlarida oʻzlashgan soʻzlarning genetik tarkibi, maʼno xususiyatlari, bu soʻzlar oʻzlashishining ijtimoiy-tarixiy, etnografik, madaniy-maʼnaviy sabablari, oʻzlashgan leksemalarning oʻzbek tiliga singish usullari, ularning mavzuiy, lugʻaviy-maʼnoviy guruhlari yoritilgan. Bu jihatdan, ayniqsa, F.Abdullayev¹, V.V.Reshetov², A.K.Borovkov³, O.Usmonov⁴, M.Mirzayev⁵, F.Kamol⁶, G.F.Blagova⁷, keyinchalik G.Muhammadjonova⁸, H.Gʻulomov⁹, N.Gʻulomova¹⁰, D.Eshondadayev¹¹, I.Rasulov¹, K.Yusupov², B.Bafojev³,

¹ Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1946. – 27 с.

² Решетов В.В. Лексический состав современного узбекского языка // Проблемы языка, вып. 1. – Т., 1934. – С. 41-52.

³ Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Т.: Учпедгиздат, 1941. – 104 с; Он же. О языке узбекской поэзии // Общ. науки в Узбекистане. – Ташкент, 1961. – №10. – С. 41- 46.

⁴ Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Т.: Фан, 1960. – 320 б.

⁵ Мирзаев М. Советско-интернациональные слова в узбекской периодической прессе: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1971. – 37 с.

⁶ Фахри Камол. Ўзбек тили лексикаси. – Т.: ЎзФА, 1953. – 44 б.

⁷ Благова Г.Ф. Языковые контактирования в тимуридских государствах по данным ареального исследования // Советская тюркология. – Баку, 1984. – №3. – С. 16-26.

⁸ Мухаммаджанова Г. Некоторые вопросы развития узбекской лексики: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1972. – 35 с; Ўша муаллиф. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1982. – 88 б.

⁹ Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. – Т.: Фан, 1983. – 168 с.

¹⁰ Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Т.: Фан, 1985. – 112 с.

¹¹ Ишандадаев Д. Некоторые особенности словообразования в таджикских и узбекских говорах. Наманганской группы районов: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Т., 1967. – 26 с.

E.Begmatov⁴, A.Ibrohimov⁵, H.Dadaboyev, Z.Hamidov va Z.Xolmonovalar⁶ olib borgan tadqiqotlar diqqatga molikdir.

Olib borilgan izlanishlardan ma'lum bo'lishicha, o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarning asosiy qismini fors-tojikcha, arabcha, ruscha-baynalmilal so'zlar tashkil qiladi. O'zbek tiliga turli davrlarda o'zlashgan mo'g'ilcha, xitoycha, hindcha, grekcha va boshqa tip leksemalar juz'iy epizodik xarakterga egadir. Bu holat umuman o'zbek tili lug'aviy tizimining xarakterini tavsiflashda shunday, aslida esa biror matnda yoki og'zaki tilda u yoki bu o'zlashma so'zlarning qo'llanish miqdori tilga olinayotgan mavzu, uning maqsadi, asar yozilgan tarixiy sharoit nuqtai nazaridan farqli bo'lishi mumkin. Bunga Zahiriddin Muhammad Boburning "Devoni" matnida hindcha so'zlar ma'lum miqdorni⁷ tashkil etishi misol bo'la oladi.

Fors-tojikcha o'zlashma so'zlar guruhi. Abdulla Avloniy o'z she'riyati tilida genetik jihatdan fors-tojik tiliga mansub o'zlashmalardan nutqiy ehtiyoj talab qilgan o'rinlarda keng foydalanganini ko'ramiz. Shoir she'riyati tilining asosiy mavzusini ilm-fan, ta'lim, tarbiya, ma'rifat haqidagi g'oyalar tashkil qilgani uchun uning asarlari tilida ilm-fanga oid *donanda (bilimdon)*, *ilm-u donish*; odob-axloqqa oid tushunchalarni ifoda etuvchi *kajrav (axloqsiz, teskari ish qiluvchi)*, *rom (yuvosh, itoatkor)* kabi so'zlar uchraydi.

Abdulla Avloniy mumtoz adabiyotdagi sevikli yorni, sevgi-muhabbatni tasvirlash uchun ishlatilgan tashbehlarni maktab, ta'lim, ma'rifat tushunchalariga ko'chiradi va ularga qiyos qiladi. Buning uchun u o'simlik, daraxt va ular mahsuli nomlaridan foydalanadi. Bular *gul, lola, lolazor, guliston, bog', chaman, guldasta, sarv (tik o'suvchi, xushbo'y daraxt), sunbul (qora rangli o'simlik, mumtoz*

¹ Расулов И. Развитие лексики узбекского литературного языка в период Великой отечественной войны: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1951. – 32 с.

² Юсупов К. Языковые взаимодействия узбекских и таджикских народов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1957. – 30 с; Ўша муаллиф. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Т.: Фан, 1974. – 116 б.

³ Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Т.: Фан, 1983. – 158 б.

⁴ Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг тарихий-этимологик қатламлари // Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981. – Б. 55-140.

⁵ Иброҳимов А. Бобур "Девони" тилидаги ўзлашма қатлам. – Т.: Фан, 2006. – 107 б.

⁶ Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Т.: Фан, 2007. – Б. 28-65.

⁷ Иброҳимов А. Бобур "Девони" тилидаги ўзлашма қатлам. – Т.: Фан, 2006. – Б. 107.

adabiyotda sevikli yor sochi), sarv-u chaman, binafsha, jambul (bir yillik, xushbo'y o'simlik) va b.

Shoir o'z davrida yashagan oddiy xalqning turmushi, hayotini, boy tabaqaning maishatparastligi va kirdikorlarini tasvirlagan o'rinlarda kasb-hunar nomlarini: *dehqon, arbakash, kordon (ishbilarmon, tadbirkor); oziq-ovqat nomlarini: go'sht-po'sht, nishollo, gulqand (atirgul qo'shib yasalgan holva); kiyim-kechak nomlarini: kafsh, kissai hamyon, dastor (salla), sarupo, joma (libos); ro'zg'or, o'rin-joyga oid so'zlarni: ro'zg'or, qof (qop), oynaband, oshyon (in, uya, maslak), diyor, bozor, chordevor; o'lchov, miqdor anglatuvchi so'zlarni: boz (yana, tag'in), daroz (uzun, uzun bo'yli), bisyor (ko'p, ko'p miqdorda), yakson (bir xil, teng), botmon va boshqalarni tilga oladi. Mana shu guruhga ishlab-chiqarish, xo'jalik bilan bog'liq ba'zi so'zlarni ham kiritish mumkin: shirkat, do'kon, fo'lod (po'lat), sarmoya va boshqalar.*

Shoir she'rlarida barqaror vaqt, fasl tushunchalarini ifoda etuvchi so'zlar uchraydi: *xazon (kuz fasli), bahor, shab-ro'z (kecha-kunduz), dam (vaqt, lahza), shab (kecha, tun), jovidon (abadiy ayriliq), oqshom; makon, joy, tomon nomlari: ko'histon (toshloq yer), go'sha (xilvat joy, burchak); tabiiy borliq bilan bog'liq mavjud narsa va hodisalar nomi: jomod (jonsiz tabiat), sangin (tosh, og'ir), oftobi jahon, chashma (buloq), gardun (falak, osmon) va b.*

Shoir bu kabi so'zlardan turli uslubiy vazifada, ko'chma, ramziy ma'nolarda foydalangan.

Adib o'z she'rlarida mavzu, matn, mazmun talabi bilan yorug'lik (nur) anglatuvchi *puranvor (yorug', o'ta nurli), sham' (yorug')* so'zlarini; nutq, tovushni anglatuvchi *musiq, xushguftor, zabonim, soz (musiq, asbobi), guftor (so'zlash, gapirish, so'z)* so'zlarini; odam va hayvonlar, ularning a'zolarini anglatuvchi *dast (qo'l), dahan (og'iz), gashm (ko'z), xol (meng, dog'), dil (qalb), parvona (tungi kapalak), modacha (urg'ochi hayvon, zag'izg'on)* kabi so'zlarni o'zni bilan istifoda qilgan.

Avloniy she'rlari tilida diniy tushuncha va tasavvurlarning fors-tojikcha nomlari ham uchraydi: *xo'ja, behisht, mozor, bog'i jinon (jannat bog'i), dastor (salla)* va b.

O'rganilgan she'rlar tilida ba'zi konkret narsalar nomi ham mavjud: *g'ul (kishan)*, *hargiz (har vaqt)*, *bardam (devor, darkor)*, *jo'y (ariq)*, *dom (tuzoq)*, *nashtar (nayza)* va b.

Abdulla Avloniy she'rlarining mavzu va mazmuni bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, uning she'rlarida ruhiy ko'tarinkilik, yoki aksincha, ruhiy tushkunlik, xalqning turmushi, ta'lim va tarbiyadan qoniqmaslik, xalqni ma'rifat, ilmu fanga chorlash, undash, ma'rifat dushmanlariga, ona yurtning kelajagi va taqdiriga befarqlarga nafrat, ularning yashashi, turmushi kirdikorlarini fosh qilish – umuman, o'zi yashagan davr, hayotga tanqidiy qarash g'oyatda kuchlidir. Shu sababli shoir o'zi bilgan va ko'rganlarini, his qilganlarini doimo ijobiy va salbiy tomondan baholaydi. Shu munosabat bilan shoir she'rlari leksikasida ancha miqdorda belgi, xususiyat, psixologik holat anglatuvchi so'zlar ishlatilgan. Ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

– “ijobiy munosabat” semasiga ega bo'lgan so'zlar: *mehr (sevgi, muhabbat)*, *oshno*, *yor (o'rtoq, do'st)*, *dildor (sevikli)*, *g'amxor (qayg'uga sherik, hamdard)*, *birodar*, *yoronlar (do'st)*, *dastyor*, *oromijon (tinchlantiruvchi, mahbuba)* va b.

– “salbiy munosabat” semasiga ega bo'lgan so'zlar: *xunxo'r (qonxo'r)*, *firibgar*, *jafokor (zulm, sitam qiluvchi)*, *tikan dast* va b.

– ijobiy holat nomlari: *obod*, *ozod*, *hur* va b.

– salbiy holat nomlari: *bechora*, *dog' (kuygan joy, belgi)*, *bedor (uyqusiz, uyg'oq)*, *bevatan*, *purg'am (o'ta g'amgin)*, *kambag'al*, *band (bug'ov, tushov, tutqinlik)*, *zax*, *past (tuban; sajda)*, *aftoda (tushkunlikka tushgan, bechora)*, *diydagiryon (yoshli ko'z, yig'layotgan)*, *sargardon (daydi, adashib yuruvchi)*, *sargashta (sarson, boshi aylangan)*, *sarxushlik (mast, kayfi bor)*, *kajrav (hiylagar, teskari ish tutuvchi)* kabi.

Keltirilgan so'zlarning ko'pchiligini Abdulla Avloniy turli uslubiy, konnotativ ma'nolarni ifoda qilish uchun ishlatgan, biz ularga ishimizning keyingi o'rinlarida to'xtalamiz.

Arabcha o'zlashma so'zlar guruhi. Abdulla Avloniy ijod qilgan davrda o'zbek tiliga arab tilidan kirgan hamda uzoq davrlar mobaynida o'zbek mumtoz adabiyoti va tarixiy manbalarda qo'llanib kelgan arabcha o'zlashmalarga munosabat ancha murakkab hamda chalkash edi. Bir qator ziyolilar genetik jihatdan arab tiliga mansub

soʻzlarni qoʻllash, arab tilini fan va din tili sifatida oʻqitish tarafdori boʻlsalar, boshqa bir guruh ziyolilar arab tili taʼlimiga keng oʻrin berishga qarshi edilar va oʻzbek tiliga arab tilidan kirgan soʻzlarni kamroq qoʻllash, ona tili, umumturkiy til soʻzlarini keng isteʼmolga kiritish, oʻzbek tilini chet tili soʻzlaridan tozalash tarafdori edilar.

Oʻsha davrda hukmron boʻlgan rasmiy hokimiyat esa arab tilini taʼlim tizimidan siqib chiqarishga intilar, koʻproq rus tilida olib boriladigan taʼlim tizimini rivojlantirish choralari koʻrar edi. Mana shunday murakkab vaziyatda ijod qilgan jadidlar oʻqitishni ona tilida olib borish va rivojlantirish tarafdori boʻlishgan. Ammo ular oʻz asarlari tilida oʻzbek tilining lugʻaviy boyligidan foydalanganlari holda, anʼanaviy arab tili soʻzlarini ham keng istifoda qilishar edi. Buning toʻrt xil sababi bor edi:

1. Islom dini tili – arab tili edi. Madrasa va maktablarda shu tilda taʼlim berilardi;

2. Taʼlim tizimidagi oʻquv adabiyotlari va umuman adabiyotning koʻpchiligi arab tilida edi;

3. Oʻzbek mumtoz adabiyoti va boshqa manbalarda ishlatilib kelingan arabcha soʻzlarni qoʻllash anʼanasi hali oʻz kuchini yoʻqotmagandi;

4. Koʻpgina ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, maʼrifiy, diniy, falsafiy va boshqa xil tushunchalar arabcha soʻz va terminlar yordamida ifodalanar edi. Bu leksemalar tarixan oʻzbek tilining lugʻaviy meʼyorlari sifatida qatʼiylashgan edi. Ularni isteʼmoldan chiqarish uchun oʻzbek tilidagi muqobillarini topish talab qilinardi.

Keltirilgan omillar Abdulla Avloniy sheʼriyati tili lugʻaviy meʼyorlarini belgilashga taʼsir etdi va shoir oʻz sheʼriy asarlari matnida anʼanaviy meʼyor boʻlgan arabcha soʻzlarni ham ishlatdi. Ammo shuni alohida taʼkidlash lozimki, Avloniy bu soʻzlardan ijodiy foydalandi, baʼzan ularning anʼanaviy maʼnolaridan voz kechib, ularga yangi nominativ va uslubiy maʼnolar yukladi. Biz buni ishimizning “Koʻchma maʼnolar” qismida tahlil qilamiz. Shu sababli bu oʻrinda Abdulla Avloniy sheʼrlari tilida ishlatilgan arabcha soʻzlarning mavzuiy guruhlarini keltirish bilan cheklanamiz:

1. Tabiiy holda, real mavjud boʻlgan narsa va hodisalar nomi: *olam, koinot, dunyo, falak, nasim, dahr (dunyo), toʻfon, hayot, sahar, mavj (toʻlqin)* va b.

2. Vaqt, davr, fasl nomlari : *vaqt, zamon, avqot (payt, vaqtlar)* kabi.
3. Yorug‘lik (nur) tushunchalari nomi: *ziyo, munavvar, ravshan, nur* kabi.
4. Xo‘jalik, boshqaruv, kasb-korlar nomi: *tijorat, mulk, rais, muhandis, hammol, xodim* va b.
5. O‘lchov, miqdor birliklari nomi: *jam‘i, vasi‘ (keng), qimor* va b.
6. Shaxs, jamoa, jamiyat, qarindoshlik tushunchalari nomi: *shaxs, millat, inson, musofir, avom (umum, omma), afkor, shajara, avlod, ajdod, volida* kabi.
7. Hayvon, qush va ularning a‘zolari nomi: *bulbul, mijoz, qanot* va b.
8. Joy, o‘rin ma‘nolarini anglatuvchi so‘zlar: *vatan, markaz, manzil, atrof* va b.
9. Nutq, tovush tushunchalarini anglatuvchi so‘zlar: *notiq, nag‘ma, takallum (so‘zlash, suhbat), zebomaqol (chiroyli so‘zlovchi), sado (ovoz, un, tovush), nido (ovoz, chaqiriq), mahmadona, sano‘* va b.
10. Ijtimoiy-siyosiy tuzum, huquq va harbiy sohaga oid so‘zlar: *ta‘rix, moziy, istiqbol, tanazzul, inqiroz, ahkom (hukm, farmon), isyon, hukamo, fuqaro, huquq, musaxxar (bo‘ysundirilgan, zabt etilgan), istilo (bosib olingan), qadimiyat, taraqqiy, majlis, jamiyat, arbob, zolim hukumat, siyosat, sinoat, mustabid, hurriyat, mazlumlar, ishtirokiyun* va b.
11. Ilm-fanga oid so‘zlar: *funun, aql, iste‘dod, g‘oya, alaf, urfon, ilm-u urfon, dorululamo, olim, hoziq (bilimdon), alloma, ilm-fan, tadqiq, orif, tabobat* va b.
12. Til, adabiyot va san‘atga oid so‘zlar: *adabiyot, nag‘ma, ohang, lison, xama (qalam), asor (belgilar, nishon), tarjumon, she‘r, adib, san‘at, nigor (rasm)* kabi.
13. Ta‘lim, tarbiya, ma‘rifatga oid tushunchalar nomi: *ta‘lim, ma‘rifat, tarbiyat, ma‘rifat yo‘li, ilm-u ma‘rifat, tahsil, maorif, saboq, mullo, johil, jaholat, ilm-u ma‘ruf, axloq, ahli axloqsiz, maktab, dars, insho, qalam, tahsil, milliy maktab, hikmatlar darsi, adab, dorulfunun, imlo* va b.
14. Diniy tushunchalar, tasavvur va aqidalarni anglatuvchi so‘zlar: *haq, ruhlar, g‘ofil, fano (o‘lim, yo‘qlik), shayton, qazo, jonoza, madfun (dafn qilingan), so‘fi, islom, qurbon, hidoyat, ibodat, masjid, musulmon, madrasa, mehrob, din, mahshar (qiyomat), jannat, banda,*

zohid, zuhd (shayx), toat, zakot, ziyorat, tilovat, bid'at, axvat so'zi (Qur'on), amri ma'ruf, mudarris, tasbih, haq-taollo, odam-ato, oxirat va b.

15. Go'zallik, nafosat tushunchalari bilan bog'liq so'zlar: *jamol, malak (go'zal)* va b.

16. Belgi, xususiyat, munosabat va holat ifoda etuvchi so'zlar. Ularni quyidagi guruhlariga bo'lib ko'rsatish mumkin:

a) ijobiy holat ifoda etuvchi so'zlar: *ulfat, ittifoq, ulviyat, vasl, mavj, tamanno, tartib, qadr, mushfig' (shafqat, mehribon), toqat, muqaddas, me'yorincha, sihat* va b.

b) salbiy holat ifoda etuvchi so'zlar: *faqir, g'arib, g'aflat, jaholat, majruh, g'ulom, iflos, talx, majnun, zang, zillat (xorlik), g'urbat (musofirlik), faqir, qabohat (yomonlik, xunuklik)* va b.

d) salbiy ruhiy holat ifoda etuvchi so'zlar: *jarohat, hasrat, zahmat, hijolat, g'am, kayf, hijron, azob, g'am, ajal, vahshat, nido, taajjub, qayg'u, malul (qayg'uli, g'amgin)* va boshqalar.

e) ijobiy munosabat tushunchalari nomi: *shafqat, vafo, visol, imdod (madad), intizor, muhabbat, aqrabo, oshino, maqbul, maqsud, anis* va b.

f) salbiy munosabat tushunchalari nomi: *adovat, zolim, ta'na, xusumat, xiyonat, g'iybat, jabr, zahm, jahl, shikoyat, munkir (inkor etuvchi), hasad* va b.

17. Baxt, boylik tushunchalarini anglatuvchi so'zlar: *sarvat (boylik), baxt, g'ani, g'aniy* kabilar.

Abdulla Avloniy she'riyati tili leksikasida yuqorida keltirilgan genetik jihatdan fors-tojikcha hamda arabcha so'zlarning uchrashi va ulardan shoirning o'rinli va mohirlik bilan foydalanishi adibning arab va fors-tojik tillarini, shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyoti tili me'yorlarini yaxshi bilganidan darak beradi. Mana shu xususiyatni, ayniqsa, Abdulla Avloniyning arabcha, fors-tojikcha o'zlashmalarni qorishiq leksemalar (gibrid yasalmalar), izofali birikmalar tarkibida keng qo'llashida ham ko'ramiz. Quyida bu tip so'zlarni qisqacha tahlil qilamiz.

Abdulla Avloniy she'riyati tilida qo'llanilgan gibrid (qorishiq) leksemalar. Abdulla Avloniy she'riyati tili leksikasini kuzatish shuni ko'rsatdiki, u o'z asarlarida bir qator turkiy va fors-tojikcha izofali birikmalardan o'rni bilan keng foydalangan. Ushbu birikmalarning

ko‘plari izofali model asosida Avloniyning o‘zi tomonidan tuzilgan bo‘lib, ular she‘r mavzusi talablariga mos holda yasalgan. Bu jihatdan, ayniqsa, uning ta‘lim-tarbiya, maorif-ma‘rifat mavzulariga daxldor izofali birikmalari xarakterlidir: *ilm subhi, ilm nuri, darsi ibrat, jaholat jomasi, ilmi dur, bog‘i ta‘lim, hosili urfon* va b.

Mana shu birikmalar qatorida o‘zbek mumtoz adabiyoti tilida an‘anaviy vosita sifatida qo‘llanib kelingan izofali birikmalar ham uchraydi: *xobi xayolim, aftoda hol, malhami jonim, munisi dilxoh, dardi dil, sarvi sunbul, fasli bahor, bodi sabo, obi hayot, sohibi davron* va b.

Keltirilgan tip iboralar Abdulla Avloniy she‘rlari tiliga poetik ruh, turli konnotativ ma‘nolar bag‘ishlashi bilan bir qatorda, she‘riy misralarning silliq ohangda, mayin o‘qilishiga ham xizmat qiladi. Eng muhimi, mustaqil sodda so‘zlar o‘zaro birikib, yangi ma‘nolarni ifoda etuvchi gibril qurilmalarni yuzaga keltiradi hamda she‘riy til lug‘aviy vositalarining rang-barang va boy bo‘lishini ta‘minlaydi. To‘g‘ri, Abdulla Avloniy o‘z she‘riyati tilida foydalangan ko‘pgina izofali birikmalar hozirgi o‘zbek tili, jumladan, o‘zbek she‘riyati tili uchun tipik holat, me‘yor emas, ammo ular shoir yashagan davr she‘riyati tili uchun ehtiyoj bo‘lgan birikmalardir.

Abdulla Avloniy she‘rlari tilida qo‘llanilgan izofali vositalar ikki xil xarakterdadir:

1. Izofani tashkil etgan birikmaning har ikki komponenti bitta tilga mansub leksemadan iborat bo‘ladi. Masalan, arabcha so‘z + arabcha so‘z, fors-tojikcha + fors-tojikcha so‘z tipli birikmalar ushbu guruhga mansubdir:

Arabcha so‘z + arabcha so‘z modeliga mansub birikmalar miqdori birinchi o‘rinni egallaydi: *umumi ma‘ruf, saydi murod, olami insoniyat, ilmi subh, nuri maqsad, nuri hidoyat, ruhi ummat, darsi ibrat, manbai adovat, mahshari azob, jaholat jomasi, osmoni zamon, nasimi subh, zulmori g‘am, fayzi rahmat, sohibi davron, davlati iqbol, tab‘i tabiat, sa‘i jadal, sohibi urfon, nuri ilm, avlodi vatan, ahli vatan, hakimi hoziq, tarki dunyo, af‘oli qabih, favzi najot, firoqi millat, subhi qodir, avhomi hayolot, hadyai haqqoniyat, muftaloyi azal, nuri ziyo, hosili urfon, jaholat nuri, olami g‘ayb, ahli urfon, mavji g‘am, jomi‘ jaholat, tahlili ilm, firdavsi jinon, ahli zamon, millati najib, nuri muqaddas* va b.

Keyingi o‘rinni forsha so‘z + forsha so‘zdan iborat birikmalar egallaydi: *dodi bedod, maydoni kinazor, oftobi jahon, chamani lolazor, xudoyi osh, kori sharmanda, otashi so‘zonagul, kori bejo, dardi dilim, siynayi so‘zonim, joni so‘zonim, mushki totor, bog‘i guliston, faryodi fig‘on, guldastayi gul, gulzori jahon, joni larzon, tashnai diydor.*

2. Izofani tashkil etgan birikmaning komponentlari turli tillarga mansub leksemalardan iborat bo‘ladi. Tahlil qilinayotgan she‘rlar tilida arab va fors-tojikcha so‘zlardan tuzilgan birikmalar ham salmoqli o‘rin tutadi. Bizning hisobimizga ko‘ra, ularning soni 60 dan ortiqdir. Masalan: *zaxmi g‘am, oynayi iqbol, obi hayot, ismi fo‘lod, dahri ko‘hna, ilmi rahnamo, sadoi dil, bog‘i ta‘lim, ahli xirad, xari nafas, gulobi hurriyat, sarvi sunbul, bog‘i adab, koni ma‘ruf, fasli bahor, bodi g‘aflat, shabi hijron, hayoti jovidon, johili sharmanda, xobi xayolim, naqdinayi jon, kulbayi ahdonim, dahr bog‘i, aftoda hol, xobi jahl, xotiri vayron, go‘shayi jome‘, selobi g‘aflat, surati devor, hayoti jovidonim, zikri hamyonim, safhai dil, avval bahor, malhami jonim, muhibbi xonadonim, sham‘i shabonim, donandayi fahmanda, munisi dilxoh* va b. Keltirilgan leksemalar o‘sha davrda ijod qilgan boshqa shoirlar asarlari tilida ham uchraydi-ku, deyilgan e‘tiroz tug‘ilishi mumkin. Bu to‘g‘ri, ammo Abdulla Avloniy keltirib o‘tilgan so‘zlarni o‘z she‘rlarida ma‘rifat, tarbiya, vatanga muhabbat ma‘nolarida qo‘llaydi va bu bilan so‘zlarga yangi poetik ma‘nolar yuklaydi. Mana shu xususiyat shoir she‘rlari tilini boshqalardan ajratib turuvchi e‘tiborli jihatlardan biridir.

Ba‘zi o‘zbekcha va arabcha so‘zlar: *suvi kavsar, hurmat tug‘i, dog‘i Hijron, zulm eli, ohi ma‘ruf*; fors-tojikcha va o‘zbekcha so‘zlar: *xori tikon, bag‘ri siyohdon, loyi balchiq* shakllari ham uchraydi. Ammo ular epizodik xarakterda bo‘lib, Avloniy she‘rlari uchun lug‘aviy me‘yor emas.

Ba‘zi ruscha va rus tili orqali olingan so‘zlar. Abdulla Avloniy she‘riyati tilida ba‘zi ruscha va rus tili orqali o‘zlashgan, boshqa tillardan o‘tgan bir qator so‘zlar uchraydi. Bu so‘zlarning aksariyati shoirning hajviy mavzuda yozilgan she‘rlari matniga mansubdir: *fiyon*¹, *turma* (*tyurma*- 55), *alkagul* (*alkagol*-133), *samovar* (*choyxona*

¹ Абдулла Авлоний. Тошкент тонги. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 133. Бундан кейинги мисоллар шу тўпламдан олинди ва рақамлар тўплам саҳифаларини кўрсатади. (С.Н.)

ma'nosida-67), resturan (restoran – 67), dezertir (138), madmazel (madmauzel -133), karmon (kissa – 187) va b.

Shoir o'z she'rlarida keltirgan ba'zi so'z va terminlar o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid tushunchalarni ifoda etadi. Adib ularni o'zi tasvir qilayotgan voqealar tufayli tilga oladi: *idyol (ideal-37), gazit (gazeta-146), vulqon (vulkan – 47), miliyon (million – 118), tramvay (138), neft (133), nardud (naryad-146), burjua (169), farang (176), kaparatif (kooperativ -185), partiya, drujina (165), marsh (170) va b.*

Abdulla Avloniy asarlarida ba'zi joy nomlari ham uchraydi. Ular o'sha davr tilida bunday nomlarning udum bo'lgan talaffuz va yozma shakllari haqida xabar berib turadi: *Lo'ndon (London-146), Xo'kiyu (Tokio-146), Qafqoz (Kavkaz-147), O'rinburg' (Orenburg- 147), Yovrupo (Yevropa-147), Rusiya (Rossiya-91) va b.*

Shuni ta'kidlash lozimki, o'sha vaqtda rus tilining ta'siri kuchaya borayotganiga qaramasdan, Abdulla Avloniy ruscha va Yevropa tillariga oid so'zlarni qo'llashda ehtiyotlik yo'lini tutgan, ularni she'rlari matniga ko'p kiritmagan. Shoir chet so'zlarni o'zbek tilida muqobili topilmagan hollardagina iste'molga kiritgan. Shu bois shoir she'riyati tilida uchraydigan ruscha va boshqa chet til so'zlari o'sha davr o'zbek tili uchun me'yor emas, balki juz'iy qo'llanishlardir.

Abdulla Avloniyning so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash mahorati

Ma'lumki, she'riy nutqning o'ziga xos tomonlaridan birini unda so'zlarning xilma-xil ko'chma, ramziy hamda okkazional ma'nolarda qo'llanishi tashkil etadi. Bu bilan she'riy nutqning badiiyati ta'minlanadi. Avloniy she'riyati tili ham bundan mustasno emas.

Bizning tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, o'zbek mumtoz adabiyoti she'riyatida an'anaviy ravishda ishlatilgan ko'pgina so'zlar Avloniy she'rlari tilida ham uchraydi. Ammo bu so'zlar shoir tilida o'ziga xos ko'chma ma'nolarda ishlatilgan. Biz mana shu masalaga aniqlik kiritish uchun bir qator so'zlarning mumtoz adabiyot tilida va hozirgi o'zbek tilidagi ma'nolarini Avloniy she'riyati tilidagi ma'nolari bilan qiyosladik.

Chunonchi:

Bulbul soʻzi oʻtmish sheʼriyatida oʻz nominativ maʼnosidan tashqari “*xushovoz*”, “*xushovoz shoir*”; “*aniq*”; “*jon*”; “*did*” maʼnolarini anglatgan (NAIL, I, 332-bet). Hozirgi tilda uning “*xushovoz xonanda*”, “*oshiq*”, “*xushtor*” maʼnolari saqlangan (OʻTIL, I, 369-bet). Avloniy **bulbul** soʻzidan – “*oʻzgarish*”, “*yangilanish*” kabi koʻchma maʼnolarda mohirlik bilan foydalanadi:

Dilim, gʻam chekma koʻb, bir kun kelur, bedor oʻlur olam,
Chiqib *bulbullari* chah-chah qilur, gulzor oʻlur olam.

(Toshkent tongi, 36-bet)

Keltirilgan misralardagi **bulbul** soʻzi “*maʼrifat va ilmga chanqoq, zor inson*” maʼnosida qoʻllanilgan. Bu maʼno quyidagi misralarda ham ifodalangan:

Bulbuli shoʻridani dom ila hurkutmak abas,
Yoshligʻ gul gʻunchasin ochmay, gulob etmak abas,
Zahriga bardosh edan totgay arining bolidan.

(Toshkent tongi, 57-bet)

Shoir maʼrifatga intilmaydigan, jaholat iskanjasidagi kishilarni gʻaflatdagi insonga oʻxshatadi va ularni “*bulbuli gʻofil*” deb ataydi:

Ajab hasratli olamdur, koʻngullar dogʻdor oʻlmish,
Jaholat zahmidin dillar-koʻngullar lolazor oʻlmish,
Jahon gulzorina ibrat bila boq, *bulbuli gʻofil*.

(Toshkent tongi, 34-bet)

Abdulla Avloniy sheʼrlari tilida **gul**, **guldasta**, **gulzor**, **guliston**, **lolazor**, **sabzazor**, **gʻuncha**, **bahor** soʻzlarining ham original koʻchma maʼnolarda qoʻllanganini koʻramiz.

Mumtoz adabiyot tilida **gul** soʻzi oʻz asl maʼnosidan tashqari “*goʻzal yor*”, “*mahbuba*”; “*yoshlik*”; “*olov*”; “*qon*”, “*qonli yosh*” maʼnolarida ishlatilgan (NAIL, I, 409-410-betlar). “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da uning “*chechak*” va “*atirgul*” maʼnolari berilgan (OʻTIL, I, 516-bet). Avloniy **gul** soʻzini tamoman yangi maʼnolarni ifodalash uchun qoʻllaydi:

Masalan, **Gul** – “*yaxshi hayot*”, “*obodlik*” maʼnosida:
Afandim, bu sizning afgʻoningiz bizlarga kor etmaz,
Ochargʻa koʻz qani bizda, imolar aslo or etmaz,
Xazon boʻlgʻon gulistondur, *gulini* ixtiyor etmaz.

(Toshkent tongi, 29-bet)

Guli islom – “*islom dunyosi*”, “*musulmonlar*” ma’nosida:

Jahon gulzorina ibrat bila boq bulbuli g’ofil,
Guli islomdan dunyo yuzida bormi xor o’lmish.

(Toshkent tongi, 34-bet)

Guli funun – “*fan sohiblari*”, “*olimlar*” ma’nosida:

Ey, *gullari fununa* havaskor o’lan Vatan!
Ey, g’unchasi maorif uchun zor o’lan Vatan!

(Toshkent tongi, 43-bet)

Milliy gullar – “*milliy kadrlar*”, “*savodxonlar*” ma’nosida:

Bog’i jinondan, ham bo’stondan,
Milliy gullar terib turgon maktab emasmi?!
Zulmu jahlga, nodon baxilga,
Ko’kragini kerib turgon maktab emasmi?!

(Toshkent tongi, 71-bet)

Guliston so‘zi mumtoz she’riyat tilida “*gulzor*”, “*chamanzor*”; “*himmat*”; “*go‘zal oromgoh*” kabi ma’nolar ifoda etgan (NAIL, I, 415-416-bet). Hozirgi adabiy tilimizda “*yashnagan obod yer*”, “*bog‘u bo’stonlar makoni*” (O‘TIL, I, 518-bet) ma’nolarida ham ishlatiladi. Avloniy bu so‘zni tamoman yangi ko‘chma ma’nolarda mahorat bilan ishlatgan:

Guliston – “*hayot*” ma’nosida:

Xazon bo‘lg‘on *gulistondur*, gulini ixtiyor etmaz,
Sizingdek bing muxotib dodi faryodi mador etmaz
Nechun chiqsun bu millat, g‘ayratu himmatni yor etmaz.

(Toshkent tongi, 29-bet)

Guliston – “*o‘zgarish, yangilanish*” ma’nosida:

O‘lur olam *guliston*, qayg‘u kulfatlar yitar bir kun,
Gulobi hurriyat atri musaffosin otar bir kun.

(Toshkent tongi, 36-bet)

Gulzor so‘zi hozirgi o‘zbek tilida “*gul bilan qoplangan maydon*” ma’nosida ishlatiladi (O‘TIL, I, 519-bet). Eski o‘zbek tilida esa “*chaman*”, “*gulbog‘*”; “*yuz chiroyi, go‘zalligi*” ma’nolarini bildirgan hamda “*guli visol*”, “*guli eram*”, “*guli chaman*”, “*guli ishq*” birikmalari tarkibida kelgan (NAIL, I, 415-bet). Avloniy bu an’anaviy poetik so‘zga yangi ma’nolar yuklaydi:

Masalan, **Gulzor** – “*olam, dunyo*”, “*olam og‘ushi*”, “*hayot tarzi*” ma’nosida:

Jahon *gulzorina* ibrat bila boq, bulbuli gʻofil,
Guli islomdan dunyo yuzinda bormi xor oʻlmish.

(Toshkent tongi, 34-bet)

Gulzor – “*olamning yaxshi tomonga oʻzgarishi*”, “*yangilanish*”, “*yaxshi kunlar*”, “*kelajak*” maʼnosida ishlatiladi:

Dilim gʻam chekma koʻb, bir kun kelur, bedor oʻlur olam,
Chiqub bulbullari chah-chah kulur, *gulzor* oʻlur olam.

(Toshkent tongi, 37-bet)

Avloniy oʻz sheʼrlarida soʻzlarni yangi maʼnoda qoʻllar ekan, ularning koʻchma maʼnolarini maʼrifat, ilm, bilim olish gʻoyalari mazmuniga boʻysundiradi, mana shu mavzuga bogʻliq yangicha talqin qiladi.

Bu jihatdan, ayniqsa, **uyqu**, **tosh** soʻzlarining qoʻllanishi xarakterlidir. Avloniy **uyqu** soʻzining “*ongsizlik*”, “*qoloqlik*”, “*maʼrifatsizlik*”, “*loqaydlik*” kabi maʼnolarini berish uchun bu soʻzning koʻchma maʼnosidan mohirona foydalangan:

Uyqudami insonligʻ, gʻaflatdami ulviyat,
Roʻyo esa bu olam, fardosi nadur, bilmam.

(Toshkent tongi, 32-bet)

Ayil ey millati gʻofil, yetar boshingga bu *xobing*,
Nechun bilmam, ochilmish koʻzlaring *uyquga* zor oʻlmish.

(Toshkent tongi, 34-bet)

Yotursan tobakay gʻaflat quchogʻinda, uyon, millat,
Tur, oʻtmay vaqt *noz uyqudan* koʻbdur ziyon, millat.

(Toshkent tongi, 44-bet)

Keltirilgan matnda Avloniy **xob**, **noz uyqu** soʻz va soʻz birikmasidan ham ustalik bilan, oʻrinli foydalangan. Bu esa sheʼriy misralarga oʻziga xos taʼsirchanlik, ekspressiv ruh bagʻishlagan. Bu kabi misralarni hozirgi maʼrifatli zamon nuqtai nazaridan emas, odamlar yetarli savodga ega boʻlmagan davr nuqtai nazaridan his qilmoq kerak.

Avloniy oʻz sheʼrlarida ilm olishga intilmaydigan, ilm-fanga, maʼrifatga mushtiq kishilarga koʻmak bermaydigan, aksincha, toʻsqinlik qiluvchilarni qoralaydi va ularning nopok koʻnglini, oʻz harakatlari bilan maʼrifatga keltiradigan zarar va ofatlarini **toshga** oʻxshatadi, bundaylarni **toshyurak**, **toshbagʻir** deb baholaydi. Mana

shu ma'nolarni berish uchun u o'z she'rlarida: **dili tog'lar toshidek, sangdil, sangi dil, osiyo sangi, balo toshi, mozor toshidek** kabi birikmalardan foydalanadi va ularga badiiy ma'nolar yuklaydi, jonlantiradi. Chunonchi:

Dili tog'lar toshidek – *“ilm olishga, ma'rifatga intilmaydigan shaxs”* ma'nosida:

Tun-u kun aylasam faryod sizlarga asar qilmas,
Dili tog'lar toshidek yumshamas qotganlar, insonlar.

(Toshkent tongi, 62-bet)

Sangi dil, osiyo sangi – *“ma'rifatga rag'bat, chaqiriq kor qilmaydigan toshbag'ir, tepsa-tebranmas, qalbini g'aflat bosgan shaxslar”* ma'nosida:

Bu jahliston eliga va'zlar kor etmagay, faryod,
Bu *sangin dillari* tepkular ozor etmagay, faryod,
Bu *osiyo sangin* ustida turpo ketmagay, faryod,
Bu ko'histon dilini kahi xobi bitmagay, faryod,
Yotar doim farog'atda na nanggu ori g'or etmaz.

(Toshkent tongi, 29-bet)

Balo toshi – *“ma'rifatsizlik, beg'amlik, loqaydlikdan, “mijozi sust”* likdan millat boshiga tushgan qiyinchilik va ko'rguliklar” ma'nosida:

Balo toshi yog'ildi boshimizga xobi g'aflatdan,
Mijozi sust o'lub avlod, millat to'kildi quvvatdan,
Bilimsizlik tushirdi, yiqdi, bizni qadri qimmatdan.

(Toshkent tongi, 36-bet)

Mozor toshidek qotmoq – *“o'zgarishga (ma'rifatga) yuz tutmaslik, yangilanmaslik, rivojlanmaslik”* ma'nosida:

Ko'zlaring och, ey, millat,
Ko'b zamon g'ofil yotding,
Umring o'tdi yotmoqda,
Qayg'uga toza botding,
Ketdi shon-u sharafing,
Mozor toshidek qotding.

(Toshkent tongi, 68-bet)

Yuqorida keltirilgan misralar mazmunidan kelib chiqadigan shaxslar obrazi o'z joyidan qo'zg'almaslik ma'nosi vositasida – ma'rifatga intilmaydigan, “tepsa tebranmas” shaxslar holatiga

o‘xshatiladi va mubolag‘a qilinadi. Bu esa, ushbu so‘zlar qo‘llangan misralarning badiiy kuchini oshirgan.

Mana shu usul Avloniyning **uy**, **xonadon** so‘zlaridan “*maktab*”, “*bilim quchog‘i*” ma’nolarida o‘ziga xos ravishda foydalanishida ham ko‘rinadi:

Kech o‘lsa-da, keling emdi, kirayluk *ilm uyina*,
O‘quv o‘qutmag‘a bu kundan ibtido qilamiz.

(Toshkent tongi, 59-bet)

Ilm-u donish yaxshi ziynatdur xotun-qiz ahlina,
Qo‘y qadam *ilm uyina*, tumor-u marjonni unut.

(Toshkent tongi, 84-bet)

Abdulla Avloniyning so‘z tanlashdagi mohirligi yana shunda ko‘rinadiki, u **ilm uyi** ga qarama-qarshi ma’noda bo‘lgan **qora uy** birikmasini ham ishlatadi va uni ramziy ma’noda “*ilmsizlik quchog‘i, makoni*” ma’nolarida ustalik bilan qo‘llaydi:

Ilm-u san‘at-la jahon ayvonidur oyinaband,
Sen yotar beg‘am *qora uyda*, bu zindonni unut.

(Toshkent tongi, 84-bet)

Avloniy **uy** so‘ziga ma‘nodosh bo‘lgan **xonadon** so‘zidan ham foydalangan va uni “*yurt, el, ya‘ni millat xonadoni*” ma‘nosida qo‘llagan.

U ilm va ma‘rifat orqali ushbu xonadonni yangilash, obod qilishga chaqiradi. Bu o‘rinda **millat xonadoni** birikmasini misralarga “*Vatan, yurt*” ma‘nosida kiritgan:

Kirish ojizlarga imdod qilmak punjasin bog‘la,
Bu *millat xonadonini* toza ta‘miring-la bunyod et!

(Toshkent tongi, 66-bet)

Abdulla Avloniy bir qator umumiste‘mol so‘zlar, mumtoz adabiyot tilida faol ishlatilgan an‘naviy poetik so‘zlarni, o‘zi yasagan ba‘zi okkazonalizmlarni turli majoziy, ko‘chma ma‘nolarda mahorat bilan qo‘llagan.

Avloniy ko‘chma ma’noda qo‘llagan mana shunday so‘zlarning “Navoiy asarlari lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da uchramaydigan ma’nolaridan namunalar keltiramiz:

Soʻz	Avloniy sheʼriyati tilidagi maʼnosi	Daliliy misol
<i>afgʻon</i>	maʼrifatga ragʻbatlantirish tovushi, ovozi	Afandim, bu sizning <i>afgʻoningiz</i> bizlarga kor etmaz. (Toshkent tongi, 29-bet)
<i>koʻz yirmoq,</i> <i>koʻzni</i> <i>ochmoq</i>	gʻaflat uyqusidan uygʻonib, maʼrifatga intilmoq	Tong otdi, <i>uyqudan koʻzni</i> <i>yirayluk...</i> (Toshkent tongi, 53-bet)
<i>mozor</i>	1) maʼrifiy qoloq yurt, vatan; 2) maʼrifatsizlik, jaholat quchogʻi, bagʻri	Bizga <i>mozor</i> , oʻzgalarga darsxonasan... (Toshkent tongi, 42-bet) Dil-u jonin jaholat qoplamish, yotmish <i>mozorinda...</i> (Toshkent tongi, 29-bet)
<i>jahliston eli</i>	jaholatparastlar, maʼrifatsizlar yurti	Bu <i>jahliston eliga</i> vaʼzlar kor etmagʻay, faryod... (Toshkent tongi, 29-bet)
<i>sabzazor</i>	oʻzgarish, oʻsish	Agar bing yil nasihat yozgʻani-la, <i>sabzazor</i> etmaz... (Toshkent tongi, 50-bet)
<i>selob</i>	qaygʻu, ofat, umummilliy gʻam, hasrat	Koʻzlardin oqar qon yosh, Bilmam nechuk olamdur, Dunyoni bosib <i>selob</i> , Har goʻshada motamdur. (Toshkent tongi, 32-bet) <i>Selobi</i> gʻam kelmas burun jadal birlan... (Toshkent tongi, 128-bet)
<i>jaholat</i> <i>jomasi</i>	maʼrifatsiz, ilmsiz xalq	<i>Jaholat jomasini</i> ustingdan irgʻitib, tur, zamon millat... (Toshkent tongi, 44-bet)
<i>alamzor</i>	qaygʻu gʻamga giriftor boʻlgan joy	Bogʻi jinon, bizgʻa <i>alamzor</i> oʻlan, Vatan! (Toshkent tongi, 43-bet)
<i>nur</i>	bilim, maʼrifat	Olam <i>nurga</i> toʻlganda bizlar vulqon ichida, barcha chiqdi sohilga, bizlar toʻfon ichida. (Toshkent tongi, 79-bet)
<i>ilm subhi</i>	ilm, maʼrifat davri,	Hamma <i>ilm subhidadur</i> , bizga

	tongi	shom... (Toshkent tongi, 35-bet)
<i>tong (tong otdi, tong otibdi)</i>	yangi davr, bilim, ma'rifat davri	Ko'b vaqtlar uxladuk, emdi turayluk, <i>tong otdi</i> , uyqudan ko'zni yirayluk. (Toshkent tongi, 53-bet)
<i>shom, qorong'ulik, zimiston</i>	bilimsizlik, ma'rifatsizlik holati	Gunash nuridan ayladi bizni dur, Hamma ilm subhidadur, bizga <i>shom</i> . (Toshkent tongi, 35-bet) Har g'amning poyoni bordur, Har alamning oxiri, Har <i>zimistonning</i> bahori, Har xazonning oxiri... (Toshkent tongi, 56-bet)
<i>qamar, qamar shu'lasi</i>	ma'rifat, bilim, bilim foydasi, manfaati	<i>Qamar shu'lasidan</i> ololmay ziyo, Tanazzul yo'lin qildimiz ehtirom... (Toshkent tongi, 35-bet)
<i>mag'zsiz</i>	ongsiz, bilimsiz	Ilm lofin urdung el qoshida manmanlik qilub, Qo'lda tasbih, <i>mag'zsiz</i> bosh uzra dostoring g'alat. (Toshkent tongi, 74-bet)
<i>nasim</i>	bilim ta'siri, ma'rifatga intilish	Qaro kechasin pos etar, Qachon tebratur ilm subhing <i>nasim</i> ? (Toshkent tongi, 35-bet)
<i>bod</i>	darak, bilimsizlik oqibati	Kelur bir kun ajal <i>bodi</i> , Xazon do'ndirur umring... (Toshkent tongi, 83-bet)
<i>bahor</i>	ilm olishga intilgan payt, ilm olish rag'bat	<i>Bahori</i> ma'rifat uyg'otsa, Xushguftor o'lur olam... (Toshkent tongi, 36-bet)
<i>rayhon, mushk, totor</i>	ma'rifat keltiruvchi foyda natijalar, o'zgarishlar	Bahori ma'rifat uyg'otsa, Xushguftor o'lur olam O'sub <i>rayhoni</i> shafqat <i>mushk</i> ila <i>totor</i> o'lur olam. (Toshkent tongi, 36-bet)
<i>loyi balchiq</i>	bilimsizlik, qoloqlik	Biza bir yo'lni umlab nuri maqsad borib yetmak,

		Sabovat gavharini <i>loyi balchiqdan</i> xolos etmak. (Toshkent tongi, 37-bet)
<i>boyqushlar</i>	vatan, ma'rifat taraqqiyoti haqida qayg'urmovchilar, jaholat tarafdorlari	Vayrona bo'ldi manzil-u joyi ziroating, <i>Boyqushlar</i> o'ldi hamdam, yoru qarobating, Ilm-u amalni tarkina tayyor o'lan Vatan! (Toshkent tongi, 42-bet)
<i>sohil</i>	ilm, ma'rifatga erishtiruvchi yoki eltuvchi mo'ljal, ramziy qirg'oq	Olam nurga to'lganda, bizlar vulqon ichida, barcha chiqdi <i>sohilga</i> bizlar to'fon ichida. (Toshkent tongi, 79-bet)
<i>jom</i>	odat, ongsizlik	Mayu minosini tark aylasa ag'yor, bizlar, oh, Ichib <i>jomi</i> jaholatdan, hamisha zor – biz, millat. (Toshkent tongi, 119-bet)

Abdulla Avloniy o'z she'rlarida o'xshatish, qiyoslash, jonlantirish, mubolag'a, nisbat berish usullaridan ustalik bilan foydalanadi. Chunonchi, u “*bog*” so'zini “*bog'i eram*” (o'quv maskani, ta'limning rivoji – 66), “*adolat bog'i*” (*haqiqat qaror topgan kun* – 36), “*jahon bog'i*” (*ma'rifat yurti, o'lkasi* – 38), “*tarbiyasiz bog*” (*tanazzulga yuz tutgan yurt* – 56) ma'nolarida qo'llagan.

Abdulla Avloniyning o'xshatishlardan foydalanishi, so'z va so'z birikmalariga yangi ma'nolar yuklash mahorati uning “Qish” nomli she'rida o'z yorqin ifodasini topgan. Chunonchi, unda “*yerlarga tushgan qirovlar*”, “*daraxtlardagi bulduruq*” – “*yo'zni qo'msab o'sadurgon gulzori*”ga; “*qish kunida ho'l o'tin achchig'i*” – “*yo'z kunining mushku to'tori*” ga qarama-qarshi qo'yib qiyoslanadi. (Toshkent tongi, 133-bet). She'rda “*yaxlagan muz*” – boylarning oynabandli sirli devoriga; hovlilarda yig'ilgan qorlarning uyumlari-unfurush xonnotlarning yig'gan omboriga; daraxt ustida yig'ilgan qor – mullaning boshiga chulg'agan dostoniga; tilanchining ko'z yoshlari – irmoqning suviga; sovuqning zulmi – zolimlarning otvori (xulqi, odati)ga o'xshatiladi (Toshkent tongi, 133-bet).

Abdulla Avloniy o‘zbek mumtoz adabiyoti vakillari asarlarida uchraydigan usul – so‘zlarni misralarda qatorlashtirib keltirish usulidan ham keng foydalanadi. Bunda sevgilining yoki hodisa va holatning xilma xil sifatlarini ketma-ket keltirish, qatorlashtirilgan holda ta’riflanadi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi misralarida bunday usul aks etgan:

Qadu xatting bila yuzung, ey sarvi samin tomon,
Biri sarvu biri rayhon, biri nargis, biri gulshan.
Hadisu la’lu raftoru, jamolingdin erur har dam,
*Tilim go ‘yo, so ‘zum rangin, ko ‘ngul xurram, ko ‘zum ravshan*¹
Xating bila yuzungu kokiling sening, ey jon,
Biri binafsha, biri yosuman, biri rayhon,
Takallum aylarida tiliyu tishiyu labi,
*Biri aqiqu, biri injuyu, biri marjon*²

Keltirilgan usul ko‘p holda ma’shuqaning rahmsiz, vafosiz xususiyatlarini ta’riflashda qo‘llanilgan.

Abdulla Avloniy ham ushbu usuldan foydalanadi. Avvalo, u ta’riflayotgan obyekt yoki subyekt intim hislar qaratilgan ma’shuqa emas, balki real, hayotiy obyekt yoki shaxsdir, ikkinchidan, sifatlashlarning tarkibi ham o‘zgartiriladi, ular romantik, mubolag‘ali xususiyatlar emas, balki real, ishonchli belgilar, fazilatlaridir. Masalan, Abdulla Avloniy kishilarni ma’rifatga chorlar ekan, maktab va uning fazilatlarini yigirmadan ortiq sifatlar bilan madh qiladi: **“maktab”** – *oftobi jahon, osmoni zamon, eng ziyoli, puranvor, jilvagar, adib qilur, shirin maqom, joyi dilkash, behishtu jannati (tabiatning), chamani, gulzori (jahonning), sarvu sunbuli (qadr- qimmatning), nasimi subh (fikrning), hayot ziynati (odamiyatning), baloyi ofati (qayg‘u kulfatning), kaliti, ochquchi (bobi rohatning), ziyoda qiluvchi (aqlu hikmatni), hakimi hoziq (jahl dardiga), egovi, arrasi (faqru zillatning), rais rahbari (din, millatning).* Fikrimiz dalili uchun “Maktab” she’ridan parcha keltiramiz:

Maktabdur oftobi jahon saodating,
Maktabdur osmoni zamon sabovating.
Maktabdur eng ziyoli puranvor jilvagar,
Maktabdur oshyoni hama fayz – qudrating.

¹ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Танланган асарлар. – Т.: ЎзФА, 1958. – Б. 71.

² Ўша ерда. – Б. 92.

Maktab qoshina kimni chaqirsa, qilur adib,
Maktab makoni manba'i insofu g'ayrating...¹

Endi bir mardikorning onasiga murojaat qilib aytgan so'zlaridagi **"Ona"**ga berilgan sifatlarni va uning takrorini keltiramiz: *Validam, Makkam, Madinam, mehribonim, g'amguzorim, mushfiqim, oromijonim, vujudimga sababchi, jismim ruhi, jovidonim, marhami jonim, muhibbi xonadonim, posbonim, oshyonim* kabi:

Validam, Makkam, Madinam – mehribonim sen eding,
G'amguzorim, mushfiqim, oromijonim sen eding.
Ey, vujudimg'a sabab bo'lgan meni mushfiq onam,
Jismiming ruhi – hayoti, jovidonim sen eding.
Oq sutingga, oh, loyiq sanga xizmat qilmadim,
Marhami jonim, muhibbi xonadonim sen eding...²

Mana shu kabi takror (qavatlantirish) usulini mardikorlikka ketayotgan er xotini bilan xayrlashar ekan, uning quyidagi sifatlarini qayd qilayotganida ko'ramiz: **"Xotun"** – *munisi g'amxor, ko'zim nuri, puranvor, zulfi sunbul, ko'zlari xummor, guli bexor, rafiqi mehribonim, yoru jonim, hamdamim, guluzorim* (Toshkent tongi, 125-bet). Ta'rif va tavsiflarni anglatuvchi so'zning mana shu kabi uyushiq bo'lak holatidagi takrori she'ning o'qilishiga mayinlik, bir xil ohangdagi ta'sirchanlik, obrazning mazmundorligini ifodalashda muhim vosita rolini o'ynagan. So'zlarning keltirilgan takrorlarida uyushiq bo'laklar yonma-yon yoki distant holatda takrorlangan. Har ikki holatda ham ular she'ning badiiy ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiq qilinayotgan badiiy adabiyot tili, jumladan, Abdulla Avloniy she'riyati tilining xalqchillashuvi, xalq tiliga yaqinlashuvi, she'riy misralarda talab va ehtiyojga ko'ra fe'llar – ish-harakatni, uning xususiyatlarini ifoda etuvchi leksikaning faollashuviga olib keldi.

O'zbek mumtoz adabiyoti she'riyati tili kuzatilsa, unda ko'proq oshiq- ma'shuqlarning turli harakati, psixik holati va intim intilishlari bilan bog'liq fe'llarning ishlatilganini ko'ramiz. She'riyat tilining xalqchillashuvi unda qo'llaniladigan fe'llar ma'no doirasining kengayishiga yo'l ochdi.

¹ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998. 1-жилд. – Б. 119.

² Шу манба. – Б. 220.

Abdulla Avloniy o‘z she’rlarida fikr, mazmun talabiga ko‘ra turli harakat, holat ifodalovchi fe’llardan, ularni ko‘chma ma’nolarda qo‘llash usulidan mohirona foydalanadi.

Bu fe’llar oddiy harakatni, nutqiy faoliyatni, ruhiy holatni, ko‘tarinkilik, tantanavorlik, shodlik, quvonch va boshqa xil ruhiy holatlarni ifodalashini ko‘ramiz.

Adib tilida kundalik turmushda, oddiy muomalada qo‘llanadigan fe’llarning deyarli barcha tiplari mavjud: *bo‘lmasang, qildimu, biling, o‘tar, ketar, ketmagay, bitmagay, qolsun, solsun, topmak, yotmak* va b.

Abdulla Avloniy o‘z she’rlarida qo‘llagan fe’llar, asosan, genetik jihatdan o‘zbekcha (umumturkiy) leksemalardir. Ularning denotativ ma’nosi, nominativ asosi xalq uchun tushunarli. Bu hol shoir asarlari tiliga soddalik, ruhiga lisoniy xalqchilik bag‘ishlagan, she’rning mazmuni va tilini xalq ruhiga yaqinlashtirgan, tushunarli bo‘lishini ta’minlagan.

Fe’llar aksariyat hollarda o‘zi alohida yoki biror so‘z bilan birgalikda turli ko‘chma majoziy ma’nolarda ishlatilgan:

Ko‘p vaqtlar *uxladuk*, emdi turayluk,
Tong otdi uyqudan *ko‘zni yirayluk*.
O‘tmasun vaqtimiz, *ilma yurayluk*,
Tezgina ilm(n)ing uyiga *kirayluk*.
Ey millat, uxlama, ilm olur chog‘i,
Har millat ilm ila-yondi chirog‘i¹.

Keltirilgan misralardagi “*ko‘zni yiraylik*” – *sergaklanaylik, ma’rifatsizlik g‘aflatidan qutulaylik*; “*uxladuk*” – *ko‘p vaqt ilm olishga e’tibor bermadik*; “*turayluk*” – *ilm olish harakatiga tushaylik*; “*ilma yuraylik*” – *ilm olish sari qadam tashlaylik*; “*ilmning uyiga kiraylik*” – *ta’lim dargohlariga qadam qo‘yaylik* ma’nolarida qo‘llanilgan.

She’riyat tilida avvallari udum bo‘lmagan ba’zi fe’llar yangi davr she’riyati tiliga kirib keldi. Aslida bu fe’l shakllari xalq tiliga xos, oddiy tushunchalar anglatuvchi leksemalardir: “otmoq” (“Tramvoydan

¹ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998. 1-жилд. – Б. 157.

tusholmay dumbaloq *otqonimiz* bordur”¹, “dog‘lamoq” (“Afsus, bizim *dog‘ladi*, yondurdi bu matlab” – TA, 87-bet), “do‘nmush” (“g‘ayrati tufrog‘a *do‘nmish* bu aziz boshlarni ko‘r” – TA, 97-bet), “qayrilmoq, qayilmoq” (“to‘g‘ri yo‘ldan *qoyilib*, egriga roftor o‘lduk” – TA, 102-bet) va b.

Ba’zi misralarda Abdulla Avloniyning fe’l okkazionalizmini yaratganiga duch kelamiz: “Tirnoqlamoq” – Dunyoni arslon kabi *tirnoqlamish* bechoralar... (TA, 97-bet); “Ishqlanmoq” – Ilm nuri-la bu kunda xo‘b *ishqlandi* jahon, ilmu san‘at hosil etganlar jahonda shodumon... (TA, 189-bet).

Abdulla Avloniy she’rlarida ish – harakat leksemalarining alohida yoki bir birikma tarkibida she’riy qofiyalarni tashkil qilganiga yoki misralarda takror – takror ishlatilganiga duch kelamiz. Masalan, “Turkiston tufrog‘iga xitob” she’rida “O‘lan” (bo‘lgan) fe’li “O‘lan Vatan” birikmasi tarkibida misra oxirida 17 marta takror kelgan (TA, 17-18 bet), “chekma” fe’li “Orzuyi visol” she’rida misra oxirida 13 marta (TA, 118-119 bet), “gapurmanglar” fe’li “Gapurmanglar” she’ri qofiyasida 14 marta takror keladi va b.

Ba’zi hollarda she’r qofiyasi butunlay fe’l leksemaga asoslanganini ko‘ramiz. Chunonchi, “Diqqatman” deb nomlangan she’ri 30 misradan iborat bo‘lib, uning baytlararo qofiyasini fe’llar tashkil qiladi: *qurishkoniga*, *tirishkoniga*, *cho‘zishkoniga*, *qorishkoniga*, *kerushkoniga* *berishkoniga*, *yurishkoniga*, *turishkoniga*, *churishkoniga*, *ko‘rushkoniga* kabi (TA, 153-bet). Namuna uchun she’rning oxiridan ikki baytni keltiramiz:

Havosi yaxshi uylarni yasab rohat yashar ag‘yor,
Bizimkilar zax uylarda *churishkoniga* diqqatman.
Xaloyiqdan mani Hijronlig‘im behuda ermaskim,
Firibgarlik qilub, yumshoq *ko‘rishkoniga* diqqatman.

(TA, 153-bet)

Umuman, Avloniy fe’llardan, ularning ma’noviy-uslubiy, shakliy ohangdoshlik imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Masalan, u “Ta’rifi gul” she’rida ot, sifat, fe’l turkumiga oid so‘zlarni ustalik bilan qofiyalaydi:

¹ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998. 1-жилд. – Б.86. Кейинги мисоллар ҳам ушбу тўпламга киритилган шеърлардан олинди, рақамлар тўплам саҳифаларини кўрсатади. (С.Н.)

– qona gul – afsona gul – so‘zona gul – o‘rtona gul – nodona gul
– ehsona gul – durdona gul – afg‘ona gul – cho‘lg‘ona gul – aftoda
gul – hijrona gul kabi:

Yuzdagi holi emas – zolim tikanni yorasi,
Kecha- kunduz zaxmi g‘am birlan butun o‘rtona gul.

Kimki hamdam bo‘lsa noqobil bila zahmat chekar,
Bemuruvvat xor alindan har taraf to‘lg‘ona gul.

Naylasun bechora gul, botmish vujudiga tikon,
Zahmiga marham uchun yaprog‘iga chulg‘ona gul.

(TA, 184-185-betlar)

Abdulla Avloniy o‘z she‘rlarida tilga olgan fe‘llarning aksariyati
ko‘chma ma’nolarda qo‘llanib, turli-tuman ko‘chimlarni hosil qilgan.

Okkazional so‘zlar

O‘zbek tilshunosligida okkazional leksikaning mohiyati, yaratilish
sabablari, tiplari, lug‘aviy va morfologik okkazional so‘zlar, ularning
uslubiy vazifalari qoniqarli yoritilgan¹.

Ammo o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan okkazional so‘zlarning
xarakterli materiallari hali yetarli darajada to‘plangan va tadqiq
qilingan deb bo‘lmaydi. Bunday material turli adiblarning badiiy
asarlari, publitsistik, satirik-yumoristik asarlari matnida mavjud.

Mana shunday manbalar qatoriga Abdulla Avloniy asarlarini ham
qo‘shish mumkin. Bizning Abdulla Avloniy she‘riy asarlari matni
yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz ularda bir qator xarakterli
okkazional so‘zlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ular quyidagilar:

1. Semantik okkazionalizmlar. Shoir o‘zbek tilida avvaldan
mavjud ba‘zi so‘zlarni favqulodda, yangi ma’nolarda qo‘llaydi va,
natijada, ma’noviy okkazional qo‘llash yuzaga keladi.

Tesha. Ma’lumki, “tesha” so‘zi oddiy uy-ro‘zg‘or buyumi,
mehnat qurolini anglatadi. Bu so‘zni Abdulla Avloniy maishat
sohasiga ko‘chiradi va unga favqulodda yangi ma’no yuklaydi:

¹ Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 1998. – 27 б; Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 2007. – 26 б.

Ilmdur har bir zamon kasbu maishat *teshasi*...

(Toshkent tongi, 114-bet)

Demak, bu o‘rinda “*ilm*” “*teshaga*” qiyos qilinmoqda va “*ilm ma’rifatning qurolidir (teshasi)*” degan fikr yuzaga kelmoqda.

Parcha. Odatda biror narsaning bo‘lagi, qismi ma’nosida ishlatiluvchi bu so‘zni Abdulla Avloniy “*samara, meva*” ma’nosida qo‘llaydi. U vatanni madh etar ekan, yozadi:

Yering, suving bizni boqib to‘ydiradur,
Semiz-semiz qo‘ylaringni so‘ydiradur.
Olma-anor, anjir, uzum-mevalaring,
Otu ho‘kiz, echki, taka, tevalaring.
Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
Har birlari nozu ne’mat *parchalari*.

(Toshkent tongi, 127-bet)

Yelpillatur. Odatda yengil shamol – yel qo‘zg‘alganda o‘simliklar ohista tebranadi. O‘zbek tilida “*yelpimoq*” fe’li ham bor. Abdulla Avloniy tebranish, yengil silkinish harakati va uni ifoda etuvchi nozik ma’no semasini “*yelpillatur*” fe’li orqali ifodalagan. Bu so‘z uchun favqulodda ma’nodir:

G‘ir-g‘ir shamol *yelpillatur* gullarni,
Ul tebranub sayratur bulbullarni.

(Toshkent tongi, 130-bet)

Ishlamoq. Ushbu fe’lning ma’nolaridan biri “harakatda bo‘lmoq”, “*yurmoq, yurib turmoq*”; “*amal qilmoq*” dir (O‘TIL, II, 256-bet). Hozirda tilimizda “*qonun ishlamayapti*” degan ibora ham bor.

Abdulla Avloniy ushbu ma’noni “*Haqiqat ishlamayapti*”, “*aksincha bid’at ishlayapti*” iboralariga singdirgan va so‘zning favqulodda ma’nosi, ya’ni “*adolat yuzaga chiqmayapti*” ma’nosi yuzaga kelgan. Aksincha, bid’atning avj olayotgani qarama-qarshi qo‘yish usuli orqali ko‘zda tutilayotgan holatning ochilishiga xizmat qilgan:

Taraqqiy yo‘liga sad bog‘layurdi behamiyatlar,
Haqiqat ishlamasdi, ishlayurdi bizda bid’atlar,
Na kulfatlar chekardik, bir necha badkor zulmindan.

(Toshkent tongi, 160-bet)

Qichinmoq. Bu fe’l o‘z ma’nosida “*qichigan joyni tinchlantirish, qichig‘ini bosish uchun ishqalamoq*” (O‘TIL, II, 588-bet.) ma’nosida

qo‘llanadi. Abdulla Avloniy bir o‘rinda bu so‘zni “*g‘ijinmoq*”, “*g‘ashi, achchig‘i kelmoq*” ma’nosida qo‘llagan va unga favqulodda ma’no yuklagan hamda omadi qo‘lidan ketgan shaxsning holatini shunday ifodalagan:

Xo‘rsinib, o‘pkasi to‘lib, *qichinib*,
Qopi qo‘ltiqda, ketdi uy yonga.

(Toshkent tongi, 183-bet)

Maosh. Ushbu so‘z “*turmush, tirikchilik uchun zarur narsalar va ish haqi*” ma’nosini anglatadi. (O‘TIL, II, 541-bet). Abdulla Avloniy *maosh* so‘zini “*ne‘mat*”, “*nasiba*” ma’nosida qo‘llagan hamda “*maosh oshasun*” birikmasida u favqulodda ishlatish holatini yuzaga keltirgan:

Har kim o‘z kasbidan *maosh oshasun*,
O‘zgadin foydalanmog‘ni tashasun.

(Toshkent tongi, 168-bet)

2. Yasama okkazonalizmlar.

Jahliston. Abdulla Avloniy maorif va ma’rifatning ahamiyatini tushunmaganlarni “*jahliston eli*” deb nomlaydi. Bu iboradagi “jahliston” okkazonal yasalmadir va u o‘zaro muloqotda, mavjud lug‘atlarda uchramaydi:

Bu *jahliston eliga* va’zlar kor etmagay, faryod,
Bu sangin dillari tepkular ozor etmagay, faryod.

(Toshkent tongi, 29- bet).

Kinazor. O‘zbek tilida “*ekinzor*”, “*gulzor*”, “*chamanzor*” modelli yasalmalar anchagina. Bunday yasalmalar biror joyda (o‘rinda) biror narsa (o‘simlik, daraxt va b.) ko‘p o‘sadigan maydonni anglatadi. Abdulla Avloniy ushbu yasali qolipidan foydalanib, “*kinazor*” okkazonalizmini yasagan, ammo uni mavhum tushuncha anglatuvchi “*adovat*” so‘ziga bog‘lagan. Albatta, bu ma’no ramziy, ammo yasalma favqulodda va originaldir:

Ey, manbai adovatu maydoni *kinazor*,
Avloding o‘lsa jonsizu san buyuk mozor.

(Toshkent tongi, 42-bet)

Alamzor. Abdulla Avloniy 1912 yilda yozilgan she’rlaridan birida Turkistondagi qoloqlik, haqsizlik, ziyosizlik, alam-qayg‘ularni kuyinib tasvirlar ekan, “*alamzor*” so‘zini ishlatadi.

Ushbu okkazional leksema ham yuqoridagi “kinazor” modelida yaratilgan. *Alamzor* – “*alam, qayg‘ularning ko‘pligi, haddan oshiqchilik, uni butun yurtni qoplab olganiga*” ishora qiladi. Turkistonni nima uchun “alamzor” deb nomlanayotganining sababini anglash uchun she‘r misralarini to‘liqroq keltiramiz:

Ey, zindalari – madfun, ey, xonuman – xarob,
Vayrona uylaring ko‘rinur sahnai hisob.
Sonkim bu manzarang biza bir mahshari azob,
Har bir boqishda jon siqilur, bag‘ir o‘lur kabob.
Bog‘i jinon, bizg‘a *alamzor* o‘lan Vatan!
Obu havosi zahr ila ozor o‘lan Vatan!

(Toshkent tongi, 42-bet)

Haqoratdon. Abdulla Avloniy satirik mavzudagi she‘rlaridan birida “*haqoratdon*” okkazionalizmini yasaydi. Bu so‘zning hozirgi o‘zbek tilida uchramasligi ham uning okkazional leksema ekanini tasdiqlaydi. Bu so‘zni yasash ma’lum darajada qofiya talabi bilan ham yuz bergan:

Chibiqqlar birla jin quvlar qasidaxonimiz bordir,
Bizim ham ilmu fandin bexabar deb, aylama tahqir,
Tramvoydan tusholmay dumboloq otqonimiz bordur,
Adab bobida tanho o‘zgalar lof urmasun oxir,
Hazil o‘rnig‘a badnomu *haqoratdonimiz* bordur.

(Toshkent tongi, 118-bet)

Ibratxona. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati ” da bu so‘z qayd etilgan va “*eski teatr*” (O‘TIL, II, 171-bet) deb izohlangan. Ushbu so‘zni Abdulla Avloniy “*zulm, zolimlikning timsoli bo‘lgan kishilar to‘planadigan joy*” ma’nosida qo‘llagan:

Qutuldi qancha jonlar Rasputin dumdor zulmindan,
Bu *ibratxonada* zolimlar etsun or zulmindan.

(Toshkent tongi, 160-bet)

Bedorlashayluk. **Bedor** so‘zi “*uyg‘oq, hushyor, sergak*” (O‘TIL, I, 206-bet) ma’nosiga ega. Abdulla Avloniy ushbu so‘z asosida **bedorlashayluk** fe‘lini yasaydi va uni “*hadeb beg‘am bo‘lmay, ko‘zimizni ochaylik*”, ya’ni “*ilm ziyosidan bahramand bo‘laylik*” ma’nosida qo‘llab, okkazional leksemani vujudga keltirgan:

Yotma millat, uxlama, *bedorlashayluk*,
Milliy ishlar, ishlarga, tur, bel bog'lashayluk.

(Toshkent tongi, 79-bet).

Serturtki. Arab alifbosi (yozuvi) ga o'z munosabatini izhor etar ekan, shoir "*serturtki*" ma'nosidagi so'zni yasaydi. Bu so'z mavjud lug'atlarda uchramaydi, u okkazional leksemdir:

Eskidan qolg'on,
Arabdan olg'on,
Serturtki, egri,
O'ngdan yozilg'on.
Harflar ustida,
To'xtab ne derlar?

(Toshkent tongi, 193-bet)

Mana shu kabi original qo'llanishlar shoir she'rlari tilida uchraydigan *yashilcha*, *qizilcha*, *dillarozor*, *dumdor*, *donanda*, *og'ushlamaymizmu*, *mehnatzadalar* kabi so'zlarda ham ko'rinadi. Demak, shoir faqatgina tilda avvaldan mavjud so'zlardangina foydalanmagan, balki ba'zi hollarda aytmoqchi bo'lgan fikrni, tushunchani aniqroq, yaxshiroq, kuchliroq, ta'sirchan ifodalaydigan so'zlarni topishga, lozim o'rinlarda ularni o'zi yasashga, original tarzda qo'llashga intilgan. Bu hol Abdulla Avloniyning uslubiy mahoratidan, til boyligiga ijodiy yondashganidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy o'z she'rlari tilida, eng avvalo, ona tili – o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalangan. Uning she'rlari tilida uchraydigan o'zbekcha so'zlar ko'proq xalq hayoti, kundalik turmushi, kishilarning harakatlari, ruhiy olamini ifoda etadi va ular umumxalq uchun tushunarli. Bu hol shoir asarlari tilining oddiy xalq uchun tushunarli bo'lishini ta'minlagan. Abdulla Avloniy o'z she'rlari orqali muloqot qilgan obyekt – xalq, ommadir. Shoir she'rlarida arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlar, izofali birikmalar ham uchraydi. Ularning ko'pchiligi o'zbek mumtoz adabiyoti tilida an'ana sifatida qo'llanib kelgan leksemalardir. Ammo Avloniy bu so'z va iboralarni yangi, ko'chma ma'nolarda qo'llaydi, ularga yangi uslubiy, lingvopoetik ma'nolar yuklaydi. Bu so'zlardagi ma'nolar ko'proq ta'lim-tarbiya, maorif va ma'rifatga aloqador ma'nolardir.

Abdulla Avloniy o'z she'rlarida qo'llagan so'zlarning aksariyati ko'chma, majoziy ma'nolarni ifodalaydi. O'zbek mumtoz adabiyoti tilida iste'molda bo'lgan poetik so'zlar yakka, individual shaxs (sevgilining sifatlari) ni ta'rif va tavsiflashga, unga murojaat ma'nolarini ifodalash uchun ishlatilgan bo'lsa, Avloniy she'rlari tilida qo'llanilgan bunday leksemalar xalqqa, millatga murojaat, yurt, vatanga muhabbatni, ma'rifatga undash, safarbar qilish bilan bog'liq bo'lgan ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan.

Avloniy she'rlari leksikasining lug'aviy tarkibini tahlil qilish she'riyat tili XX asr boshi o'zbek badiiy tili va uslubining yetakchi xususiyatlarini o'zida ifodalaganini ko'rsatdi. Bu xususiyatlardan eng muhimi badiiy tilni soddalashtirish, xalqchil, xalqqa yaqin qilishga intilishdir. Ushbu ishga Abdulla Avloniy o'z she'rlari tilini xalqqa tushunarli qilib yozish orqali munosib hissa qo'shgan.

ABDULLA AVLONIY SHE'RIYATI TILIDA FOYDALANILGAN BA'ZI USLUBIY VOSITALAR

Frazemalar

Frazeologiya o'zbek tilshunosligining nisbatan yaxshi tadqiq qilingan sohalaridan biridir. Uning rivojiga Sh.Rahmatullayev¹, B.Yo'ldoshev², A.Mamatov³ va Abdug'ofir Mamatovlar⁴ sezilarli hissa qo'shishdi.

Keyingi yillarda frazeologiyaning ba'zi xususiyatlari monografik tadqiq qilingan ishlar xam yuzaga keldi.⁵

O'zbek tili frazeologiyasining ma'lum qismini konkret yozuvchilarning asarlari tilida uchraydigan frazeologik birliklarning tiplari va uslubiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar tashkil qiladi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad, Zulfiya, Mirtemir, Oydin, Muqimiy, H.Olimjon asarlari tili frazeologiyasining semantik va uslubiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar xarakterlidir.

Shunga qaramasdan, o'zbek tilidagi frazeologik material tilning barcha ijtimoiy-funksional doiralari va sathlari bo'yicha to'liq to'plangani va o'rganilgani yo'q. Bu masalada E.Begmatovning quyidagi fikrlarini eslash o'rinlidir: “Xalq tili frazeologiyasi, o'zbek folklori frazeologiyasi, ayniqsa, o'zbek dialektal frazeologiyasi hali

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1966. – 320 б; Раҳматуллаев Ш. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц сов. узб. языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1952. – 42 с; Ўша муаллиф. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. – Т.: Фан, 1955. – 52 б; Ўша муаллиф. Некоторые вопросы узбекской фразеологии: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Т., 1966. – 37 с; Ўша муаллиф. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 405 б.

² Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари докт ... дисс. автореф. – Т., 1993. – 49 б; Ўша муаллиф. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ, 1999. – 106 б; Ўша муаллиф. Алишер Навоий асарларида фразеологизмлар. Алишер Навоий ижодини ўрганиш масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1981. – Б. 94-100.

³ Маматов А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фанлари докт ... дисс. автореф. – Т., 1991. – 52 б.

⁴ Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари докт ... дисс. автореф. – Т., 2000. – 53 б.

⁵ Умаров Э. Фразеологическая контаминация в языке Алишера Навои // Советская тюркология. – Баку, 1974. – №5. – С. 22-27; Ўша муаллиф. Фразеологический словарь «Хазойин-ул-маоний» Алишера Навои. – Т.: Фан, 1971. – 252 с.

tadqiq qilinganicha yo‘q. Frazeologik birliklar o‘zbek tili lug‘at sostavining tarkibiy qismi bo‘lib, u til uchun badiiy-estetik tasvir vositasi hisoblanadi”¹.

Qayd qilingan fikrga o‘zbek mumtoz adabiyoti tilidagi va o‘zbek tili rivojining turli davrlaridagi frazeologik birliklarni ham qo‘shish mumkin. Shu ma’noda o‘zbek adabiy tilining 20-40 – yillar davriga oid, turli uslubga mansub matnlarda uchraydigan frazemalarni tadqiq qilish ham dolzarbdir. Bizning kuzatishlarimiz Abdulla Avloniy asarlari tilida, jumladan, she’riyati matnlarida bir qator frazeologik iboralar, ayniqsa, maqollarning ko‘plab uchrashini ko‘rsatdi. Chunonchi, frazemalar:

Xamirdan qil sug‘urgandek, ya’ni “*osongina, sezdirmasdan*” ma’nolarida:

Olarda oqchani olg‘ay, *xamirdan qil sug‘urg‘ondek*,
Berurda to‘rtta tuqqondek tirishkoniga diqqatman.

(Toshkent tongi, 60-bet)

To‘rtta tuqqondek tirishmoq – “*og‘irsinib, qiynalib*”:

Olarda oqchani olg‘ay, *xamirdan qil sug‘urg‘ondek*,
Berurda to‘rtta tuqqondek tirishkoniga diqqatman.

(Toshkent tongi, 60-bet)

Qof yo‘qotgandek turmoq, ya’ni “*angrayib, xayron bo‘lib, fahmi yetmay turmoq*”:

Yovrupo xalqi har ishga nazar ibrat uchun boqsa,
Bizim el *qof yo‘qotgandek* turushkoniga diqqatman.

(Toshkent tongi, 61-bet)

Ters to‘nini tashlamaslik – “*o‘jarlik qilmoq, gapga kirmaslik*”:

Dod – faryod etganing birla, qulog‘i kar eling,
Ters to‘nini tashlamas, Hijron, bu axtoring g‘alat.

(Toshkent tongi, 75-bet).

Qulog‘i kar bo‘lmoq – “*eshitmaganlikka olmoq, parvo qilmaslik*”:

Dod-faryod etganing birla, *qulog‘i kar eling*,
Ters to‘nini tashlamas, Hijron, bu axtoring g‘alat.

(Hijron so‘zi, 75-bet)

¹ Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.: Фан, 1985. – Б.15-16.

Po'stini shilmoq – “*balo-qazoga girifdor qilmoq, halokatga duchor qilmoq*”:

Sufrangda sanga do'st bo'lub, g'iybating qilur,
Do'sting iloj topsa, saning *po'stingni shilur*.

(Toshkent tongi, 92-bet)

Nonini teva qilmoq – “*nasibasi, rizqidan judo qilmoq*”:

Nonimizni teva qilib berurlar,
Bizlar xo'b befarosat, nodon emish.

(Toshkent tongi, 38-bet)

Qora bosmoq – “omad yuz o'girmoq, yomon ahvolga tushmoq”:

Birgina meni *qora bosqon*,
Yalqov miya suyulib qoldi.

(Toshkent tongi, 45-bet)

Ko'pga kelgan to'y – “*barchaning boshiga tushgan, umumiy kulfat, holat*”:

Na qilay, bu *ko'bga kelgan to'y*
Mani choram nadur?!
Man kimam? Bu oh-u voh-u nalam
Zoram nadur?!

(Toshkent tongi, 124-bet)

Keltirilgan frazemalarning ba'zilar xalq tilida keng iste'molda bo'lib kelgan birliklardir. Ulardan foydalanish Abdulla Avloniy she'riyati tiliga badiiy ta'sirchanlik, misralarga lo'ndalik, qisqalik bag'ishlagan. Ayniqsa, ushbu frazeologik birliklarning oddiy xalq nutqining lug'aviy normasi ekani she'rlar tilini xalq tiliga yaqinlashtirgan, ta'sirchanligini oshirgan. Bundan tashqari, ushbu frazemalar Abdulla Avloniyning xalq tilining lug'aviy boyliklarini yaxshi bilgani, ulardan o'rinli foydalana olganligidan dalolat beradi.

Maqollar

Badiiy adabiyot tilining muhim uslubiy, lingvopoetik komponentlaridan birini maqollar, “qanotli so'zlar” tashkil qiladi. Maqollar xalq tilida paydo bo'lib, asrlar davomida sayqallanib, ma'lum shaklga kelgan “nutqiy quyma asar”lardir. Har qanday maqol ma'lum falsafiy, etikaviy-estetik mazmunga ega bo'ladi. Maqollar kishilarning asrlar davomida o'z hayotiy tajribalari natijasida orttirgan

foydali maslahatlarining falsafiy-mantiqiy xulosasi, magʻzidir. Maqollar badiiy adabiyot tilida yozuvchi aytmoqchi, isbotlamoqchi boʻlgan fikrni ixcham, sodda, xalq uchun tushunarli, mantiqan siqiq hamda taʼsirchan ifodalashga imkon beradi. Shu sababli oʻz asarlarida xalq maqol va hikmatli soʻzlariga murojaat qilmagan yozuvchi deyarli uchramaydi.

Badiiy adabiyot tilidagi maqollarning maʼnoviy-uslubiy vazifalari oʻrganilgan baʼzi ishlar mavjud. Bular orasida Alisher Navoiy¹, Muqimiy², Abdulla Qahhor³, Maqsud Shayxzoda⁴ asarlari tilida uchraydigan maqollarni tahlil qilishga bagʻishlangan izlanishlar diqqatga molikdir.

Kuzatishlarimiz xalq maqol va hikmatli iboralarini, aforizmlaridan Abdulla Avloniy ham oʻz asarlarida unumli foydalanganligini koʻrsatdi va ularning umumiy miqdori bizning hisobimizga koʻra 98 tadan ortiqdir. Shundan 35 tasi sheʼrlar matnida, 18 tasi pandnomalar matnida, 45 tasi esa dramalar tilida uchradi. Shoirning xalq maqol va hikmatli iboralaridan bu kabi keng foydalanishining sababi uning aksariyat asarlari taʼlim, tarbiya, maʼrifat mavzusiga bagʻishlanganligidir. Oʻzbek tilida mana shu mazmun va gʻoyalarga bagʻishlangan maqollar koʻpchilikni tashkil qiladi.

Bunday maqollar mavjud adabiyotlarda ham qayd qilingan⁵.

Abdulla Avloniy sheʼriyati tilida uchragan maqol va hikmatli iboralar toʻrt xil xususiyatga ega:

1. Oʻzgarishsiz, aynan, oʻz holicha foydalanilgan maqollar.
2. Mazmuni saqlangani holda, shakli qisman oʻzgartirilgan maqollar.
3. Ham mazmuni, ham shakliga oʻzgartirishlar kiritilgan maqollar.
4. Abdulla Avloniyning oʻzi yaratgan maqol va hikmatli iboralar.

Aynan oʻzgarishsiz foydalanilgan maqollar:

¹ Муталлибов С. Навоийдаги ҳикматли сўз ва иборалардан баъзи намуналар // Адабий мерос. – Тошкент, 1976. – № 6. – Б. 67-75.

² Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланишдаги маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. – № 4. – Б. 52-55.

³ Абдуллаева А. Употребление народных пословиц в романе Абдуллы Каххара «Огни Кошчинара» // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1971. – № 188. – Б. 82-85.

⁴ Ёриев Б. Шайхзода поэмасида мақол ва афоризмлар // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1977. – № 325. – Б. 75-87.

⁵ Қаранг: Ўзбек халқ мақоллари. – Т.: Шарқ, 2005. – 509 б.

Taajjub, bu zamonda *to‘g‘ri so‘z tuqqong‘a yoqmaydur*,
 Temurchidek yalon so‘zni cho‘zishkoniga diqqatman.
 (Toshkent tongi, 60-bet)

Mulla bo‘lsang, takror qil-a,
Dehqon bo‘lsang, shudgor qil-a.
 (Toshkent tongi, 104-bet)

So‘nggi pushmon-jong‘a dushman,
 G‘ayrat qiling, bo‘lmang Hijron.
 (Toshkent tongi, 134-bet)

Yaxshilarning suhbati-jon rohati,
 So‘zlari – dardu alamning ofati.
 (Toshkent tongi, 218-bet)

Maqtanma g‘oz-hunaring oz...
 (Toshkent tongi, 229-bet)

Ishlamak ishtaha ochar,
Dangasa ishdan qochar.
 (Toshkent tongi, 231-bet)

Ayog‘ yugurigi oshga eltar,
Til yugurigi boshga yetar.
 (Toshkent tongi, 231-bet)

Mazmuni saqlangani holda, shakli o‘zgartirilib qo‘llangan maqollarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin. Bunday maqollardagi shakliy o‘zgarishlarni payqash uchun maqolning xalq tilidagi asliy, tipik shaklini ham keltiramiz¹:

Abdulla Avloniy qo‘llagan maqol	Maqolning xalq tilidagi asliy shakli
Zamonga boqmasang, zamon aslo nazar qilmas... (TA, 46-bet)	Zamon senga boqmasa, Sen zamonga boq.
Zahriga bardosh edan, totgay orining bolidan... (TA, 57-bet)	Ari zahrin chekmagan, Bol qadrini bilmas.
Kim hamdam bo‘lsa noqobil bila zahmat chekar... (TA, 77-bet)	Olis yo‘lda ot sinalar, Og‘ir kunda – xotin.
So‘z quruq bo‘lsa, kishining qulog‘iga yoqmas... (TA, 82-bet)	Quruq so‘z quloqqa yoqmas.
Sufrangda do‘st bo‘lub g‘iybatingni qilur,	Ishonmagin do‘stingga,

¹ Келтирилаётган мақоллар Абдулла Авлониининг “Танланган асарлар” тўпламидан олинди, қавс ичидаги рақамлар тўплам саҳифаларини кўрсатади.

do'sting iloj bo'lsa seni po'sting shilur...(TA,92-bet)	Somon tiqar po'stingga.
Ko'p ishlagan ko'p olur, oz ishlagan – oz, Kishi rohatdadur kim ishlasa yoz... (TA,131-bet)	Ishlagan tishlaydi, Ishlamagan kishnaydi.
Har kim nima eksa, albatta, shuni o'radur, Ekmaganlar o'zgalarga muhtoj bo'ladur... (TA, 130-bet)	Har kim ekkanini o'rar.
To'g'ri so'z qutqarur balolardan, Dog'i Hijron va majorolardan... (TA, 151-bet)	Boshingga qilich kelsa ham, rost so'zla.
Tinch o'turmoq yaxshi ming afsonadan, Tilni tiymoq yaxshidir so'zonadan... (TA, 172-bet)	Bildim, deding – tutulding, Bilmadim, deding – qutulding.
G'unajin bir dam ko'zini suzar, Buqaxon to'ra ipini uzar... (TA, 202-bet)	G'unajin ko'zini suzmasa, Buqa ipini uzmaydi.

Ham shaklan, ham mazmunan o'zgartirilgan maqollar.
 Abdulla Avloniy xalq maqol va hikmatli so'zlaridan foydalanar ekan, ularning mazmunini aksariyat hollarda ma'rifat, ilm, tarbiya va axloq mavzulariga bo'ysundiradi, ushbu maqsadda ba'zi hollarda maqolni ham shaklan, ham mazmunan isloh qiladi:

Hammolning yuki og'ir bo'lsa, mehnati ortur,
 Har kishiki ulug' bo'lsa, bo'lur kulfati oson...

(TA, 47-bet)

Har dardning o'lur chorasi, har yig'lagan o'lmaz...

(TA, 48-bet)

Yoshligida ko'p o'qug'on bolani,
 Qariganda obod o'lur dunyosi...

(TA, 217-bet)

Abdulla Avloniy she'rlarida o'zi yaratgan maqol va hikmatli so'zlar yoki ana shunday darajaga ko'tarilgan, maqollarga yaqin turuvchi misralar ham uchraydi:

Olimu johil, faqir, shohu gado yaksonidur,
 Boriga boricha g'am, yo'g'iga yo'qcha vor g'am...

(TA, 98-bet)

Hosili dunyoda g'amsiz bo'lmagay hazri hayot,
Har birini boshida bordur ming tuman osor g'am...

(TA, 98-bet)

Ilmu hunar ustinda-ya,
Jahl oyoq ostinda-ya...

(TA, 105-bet)

Kelsa qish, bo'lsa sovuq, har kimga me'yorincha vor,
Yo'qqa-yo'qcha, borlara-borincha vor...

(TA, 133-bet)

Yetsa navbat o'lturur boyqush Sulaymon tomiga,
O'rgumchaklar in qo'yar Afrosiyob ayvoniga...

(TA, 203-bet)

Yigitlikda o'quvdan qolsang o'g'lon,
Qariganda pushaymonsan, pushaymon...

(TA, 221-bet)

So'zing bo'lsa kumush, jim turmak oltun,
Misi chiqq'ay, so'zung ko'p bo'lsa bir kun...

(TA, 222-bet)

Ko'paygan so'zni bo'lg'ay to'g'risi oz,
Shakarning ko'pidan ozi bo'lur soz...

(TA, 222-bet)

Hamma yamonliklarning onasi-dangasalik,
Qo'rqqoqlik otasidur.

(TA, 227-bet)

Har kishi o'z kushandasidan qo'rqr...

(TA, 230-bet)

Yuqoridagi dalillar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina o'rinlarda Avloniy xalq maqollarini o'z shaklida qo'llash bilan uning asrlar davomida shakllangan, quyma, turg'un shakliga ham hurmat bilan qaraydi hamda ularning mazmuni va shaklini yaxshi bilganini namoyish qiladi. Shu bilan birga, xalq maqollariga ijodiy yondashadi, o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrga, gap tuzilishiga mos kelishi, singib ketishini ta'minlaydi. Maqollar shaklini uning mazmunini buzmasdan o'zgartirish muayyan mohirlik, topqirlikni talab qiladi. Shoir bu ishning uddasidan zukkolik bilan chiqa olgan. Ko'p hollarda shaklan o'zgartirilgan maqollar she'riy misralarning tarkibiy qismi sifatida singib ketgan.

Abdulla Avloniyning lisoniy mahorati uning ba'zi maqol darajasiga ko'tarilishi mumkin bo'lgan nutqiy tuzilmalarni yaratganligida yorqin ko'rinadi. O'ziga xos zukkolik, mohirlik, lisoniy did talab qiladigan bunday harakat shoirning ona tilini yangi vositalar bilan boyitishga intilganidan darak beradi. Xullas, Abdulla Avloniyning xalq maqollaridan foydalanish borasidagi novatorligi uning badiiy, lingvopoetik didi yuksakligidan dalolatdir.

Uyushib kelgan so'zlar

Abdulla Avloniy she'riyati leksikasining boy va rang-barangligini namoyish qiluvchi xususiyatlardan biri misralarda bir semantik guruhga mansub so'zlarni uyushiq holida birin-ketin keltirib qo'llashdir.

Bu usul aytilmoqchi bo'lgan fikrni mazmunan kuchaytirishga, uning realligini takror-takror ta'kidlash va tasdiqlashga xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Avloniy Vatanimiz – Turkiston tabiiy qazilma boyliklarga g'oyat boyligini tavsiflash uchun mana shu usuldan foydalanadi:

Turkiston tog'lari to'la kon emish,
Ichi-tashi butun osh-u non emish.
Nodonlikdan bizlar oni tosh derduk,
Kumush-oltun ichinda pinhon emish.
Jo'sha¹, zinnix², novshadil³, oltingovut,
Tog' ichinda tosh kabi qotgan emish.
Neftu ko'mir, paxta, sobunlar tog'da,
Qo'rg'osh(in), qalay, mis, cho'yan chandon emish.

(Toshkent tongi, 138-bet)

She'r misrasida yonma-yon, orqama-ketin keltirilgan teng vazifali bunday so'zlar fikrning kuchayib, ta'kidlanib borishiga va bu orqali she'rning ta'sir kuchi oshishiga xizmat qilgan. Bu holat uyushiq bo'lak holida kelgan quyidagi so'z tiplarida ham o'zining yorqin ifodasini topgan.

¹ Жўша – қайнаб чиқувчи, ялтироқ тош (Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь. Т. I. – М.: Русский язык, 1983. – С. 447).

² Зинних – хушбуй ҳид таратувчи кимёвий элемент (Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. М.: Русский язык, 1976. – С. 324).

³ Новшадил – дилни титратувчи, қалбни эгалловчи қимматбаҳо тош (Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь. Т. I. – М.: Русский язык, 1983. – С. 662).

1. Meva nomining keltirilishi:

*Olma, anor, anjir, uzum-mevalaring,
Ot-u ho‘kuz, echki, taka tevalaring.
Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
Har birlari nozu ne’mat parchalari.*

(Toshkent tongi, 127-bet)

*Bog‘laridur shirin sharbat,
Anjir, uzum, anor, nashvat.*

(Toshkent tongi, 129-bet)

2. Hayvonlar va qushlar nomining keltirilishi:

*Olma, anor, anjir, uzum-mevalaring,
Otu ho‘kuz, echki, taka tevalaring.
Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
Har birlari nozu ne’mat parchalari.*

(Toshkent tongi, 127-bet).

*Qo‘yu qo‘zi, teva-sigir, o‘tlar tog‘larda,
Minmak uchun otu eshak, toyni yaratdi.*

(Toshkent tongi, 148-bet)

3. Kasb-korlar nomining keltirilishi:

*Bir taraf(d) a ekinchi, xirmonchilar,
Bir taraf(d) a o‘toqchi, ketmonchilar.*

(Toshkent tongi, 131-bet)

4. Ba’zi makon, o‘rin-joylar (tabiiy jug‘rofiy obyektlar) nomining keltirilishi:

*Barcha qushlar uchar, o‘qur chamanda,
Bog‘u bo‘ston, tog‘u sahro, o‘rmonda.*

(Toshkent tongi, 130-bet)

5. Ruhiy holatni ifoda qiluvchi so‘zlarning keltirilishi:

*Kulfati kun-kundan ortar, hech bo‘lmaz rohati,
Qayg‘u hasrat, otashga yonadur, o‘rtonadur.*

(Toshkent tongi, 99-bet)

Qatorlashtirib berilgan leksemalar ba’zi hollarda qarama-qarshi, zid ma’noli so‘zlardan iborat bo‘lib, ular misra mazmunining emotsional –ekspressiv xususiyatini, ta’sir kuchini oshiradi:

*Olim-u johil, faqir, shoh-u gado yaksonidur,
Boriga boricha g‘am, yo‘g‘iga yo‘qcha vor g‘am.*

(Toshkent tongi, 98-bet)

Abdulla Avloniy qo‘llagan uyushtirish usuli ba’zi hollarda gapda ifodalanayotgan ma’noning darajalanib¹, kuchayib borishiga, ya’ni graduonimiyaga xizmat qilgan.

Ma’noning darajalanib, oshib, kuchayib boruvchi ottenkaga ega bo‘lishi esa she’r tilining ekspressiv imkoniyatlarini oshiradi. Mana shunday holatlarning ba’zi tiplarini keltiramiz:

1. Ruhiy holat ma’nosining darajalanishi:

Oh > faryod > fig‘on:

Ohu faryod fig‘oni injitodur o‘zini,

Bilmayur dunyoga kelmoqdan quruq g‘avg‘o nadur.

(TA, 99-bet)

Sabr > ko‘z yosh > jon qolmadi:

Dilda sabrim, ko‘zda yoshim, tanda jonim qolmadi,

O‘rtanib yondim, qimirlashga majolim qolmadi.

(TA, 123-bet)

Oh-u voh > nolayi zor:

Na qilay, bu ko‘bga kelgan to‘y, mani choram nadur?!

Man kimam? Bu *ohu vohu, nolai zorim* nadur?!

(TA, 124-bet)

2. Yaqinlik munosabatini anglatuvchi ma’noning darajalanishi:

anis> munis> jonu tan> doro‘yi darmon:

Anisim, munisim, jonu tanim, doro‘yi darmonim...

(TA, 177-bet)

3. Joy, makon obyektlari tushunchalarining darajalanishi:

Chaman > bog‘> bo‘ston> gulshan:

Taronalar o‘qiyurlar sizi ko‘rib qushlar,

Chamanda, bog‘da, bo‘stonda, gulshanda.

(TA, 165-bet)

4. Juz’iy hollarda bitta so‘zning takrori shaklidagi darajalanish uchraydi.

Ilm ila mumkin faqat topmoq jaholatdan najot,

Elah vodiysida yotmoqlik *uyot uzra uyot.*

(TA, 113-bet)

¹ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. – Т.: Фан, 1995. – 132 б.

Soʻzlarning talaffuz variantlari

Soʻzlar va ismlarning shakliy variantlari, ularning yuzaga kelish sabablari, uslubiy vazifalari yuzasidan baʼzi tadqiqotlar olib borilgan¹. Ammo konkret biror yozuvchi asarlari tilidagi variantlar haqida fikr yuritilgan ishlar deyarli uchramaydi. Abdulla Avloniy sheʼrlari tilida qoʻllanilgan lugʻaviy birliklar koʻp holda shoir yashagan davrdagi oʻzbek tilining talaffuz va imloviy meʼyorlariga, shuningdek, oʻzga tillarga mansub boʻlgan soʻz shakllari holatiga boʻysunganini kuzatish mumkin. Bu hol soʻzlarning imloviy shakllarida oʻz ifodasini topgan. Soʻz shaklining hozirgi oʻzbek tilidagi holatidan farqlanishi uch omilga koʻra yuzaga kelgan:

1. Soʻz shaklining oʻsha davr tili talaffuzi va imlosiga boʻysungani.
2. Sheʼriy nutqning talabiga moslanishi.
3. Soʻzning biror qardosh tilda qanday talaffuz qilinsa, shu holda saqlanishi.

Birinchi holatga koʻra, soʻz oʻsha davr adabiy tili yoki ogʻzaki soʻzlashuv tili talaffuzi shaklida boʻlishi mumkin. Masalan:

Xalq(n)ing bu *qiziqdirgan* dunyosi *nadur* bilmam...²

Jaholatdan *chekilmay*, roʻshnolik nurini koʻrmay.

(TA, 101-bet)

Taʼrixa boqmayin koʻzimiz toʻldi qonlara...

(TA, 103-bet)

Tarozugʻa qarab toshingni qoʻy, aslo zarar qilmas...

(TA, 108-bet)

Ikkinchi holatda sheʼr ohangi, qofiyadoshlik soʻzni oʻzgacharoq shaklda talaffuz qilish va yozishni talab qiladi, yaʼni soʻz talab qilinayotgan ikkinchi bir soʻz shakliga kiradi, moslashadi:

Daho yordam qiling, avlodi millat sizni *yod* aylar,

Munavvar fikr birlan maqtar, ixlos *ziyod* aylar,

Qolib sizdin keyin olamda, sizga yaxshi *od* aylar.

(TA, 114-bet)

¹ Шукуров Р. Сўзнинг морфологик вариантлари. – Т.: Фан, 1990. – 93 б; Ўша муаллиф. Сўз вариантларининг лексик-семантик дифференцияси. – Т.: Фан, 2006. – 163 б; Худойберганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 2008. – 26 б.

² Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998. 1-жилд. – Б. 98. (кейинги мисоллар ҳам шу тўпламдан олинган ва саҳифалари қавс ичида берилган).

Tutundim na'tinga, Ahmad, qilib himmatni *bologa*,
Sifating jonga marham deb qalam tebratdim *inshoga*.

(TA, 128-bet)

Abdulla Avloniy "Ramazoni sharif" she'rida qofiyalangan *saxodur ramazon, bahodur ramazon, vafodur ramazon* birikmalariga mos ravishda fe'llarni *topodur ramazon, yopodur ramazon, ichodur ramazon, sochodur ramazon, qochodur ramazon, ketodur ramazon* tarzida qofiyalaydi.

(TA, 131-bet)

"Ta'rifi gul" she'rida qofiyada kelgan *afsona* va *so'zona* so'zlariga fe'lning unga moslangan *o'rtona, to'lg'ona, cho'lg'ona* shakllari qofiyalanadi:

Yuzdagi xoli emas – zolim tikonning yorasi,
Kecha-kunduz zaxmi g'am birlan butun *o'rtona* gul.
Kimki hamdam bo'lsa noqobil bila zahmat chekar,
Bemuruvvat xor alindan har taraf *to'lg'ona* gul.
Naylasun bechora gul, botmish vujudiga tikan,
Zahmiga marham uchun yaprog'iga *cho'lg'ona* gul.

(TA, 184-185-betlar)

Keltirilgan misralarda *o'rtanadi, to'lg'anadi, cho'lg'anadi* fe'l shakllari qofiya talabiga ko'ra o'zgargan shakllarda berilgan. Bu hol so'zlarning matnda bir xilda talaffuz qilinishini ta'minlagan, misralarga ma'lum darajada musiqiylik baxsh etgan.

Uchinchi holatga ko'ra, Abdulla Avloniy she'rlari tilida so'zlarning (ko'proq fe'l va qisman olmoshlar) usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillari talaffuziga xos shakllari uchraydi va ular bu so'zlarning o'zbek tilidagi me'yorlaridan shaklan farqlanadi. Chunonchi, *og'latib, biza, onjaq, bizim, tinglayur, uchramayur, istayur, bunlar (bular), taqlid ediyur, o'lduk (bo'ldik), o'sonmazmi, vor (bor), vergusi (bergusi), o'di (o'ti, olovi), vermadi, suyam (sevaman), uyon (uyg'on), o'son* va boshqalar.

Abdulla Avloniy she'rlari tilida uchraydigan so'zlarning o'sha davrga xos shakliiy ko'rinishlari haqida muayyan tasavvur tug'dirish maqsadida quyida fe'l turkumiga oid so'zlardan dalillar keltirish bilan cheklanamiz:

-bo‘l so‘zi **o‘l**¹ shaklida:

Yo, rabbim, na uchun dahrda biz xor *o‘lduk*,
Ilmdan g‘ofil *o‘lub*, jahla talabgor *o‘lduk*...

(TA, 102-bet)

-ber so‘zi **ver** shaklida:

Kosasi Jamshid jomindan xabar *verganlaring*,
Mayxona Firdavs bog‘indin xabar *verganlaring*...

(TA, 98-bet)

Gardunmi xato aylab *vermas* biza tarbiyat...

(TA, 89-bet)

-et so‘zi **ed** shaklida:

Maorif shamsini benur *edan* obru adovatdur,
Qulubi millating purnur *edan* ishta sahovatdur...

(TA, 115-bet)

-ayril so‘zi **oyil** shaklida:

Maorifdan *oyilduk*, mustahiq beruh o‘lub qolduk...

(TA, 200-bet)

Maorifdan *oyildi*, g‘amga dundi rohati Islom...

(TA, 100-bet)

-yig‘la so‘zi **og‘la, og‘laduk** shaklida:

Hayhot, bizim qopladi, ko‘r jahli murakkab,
Ovorayi sargashtayi zor *og‘laduk*...

(TA, 87-bet)

Sargari o‘lubon, dilda g‘ubor *og‘ladik og‘lab*...

(TA, 87-bet)

Ey ko‘zum, qon to‘k, *og‘la*, Hijron bo‘l,
Ishda millatga buldur avlosi...

(TA, 156-bet)

-edi so‘zi **erdi** shaklida:

Birin qo‘lida temir mum kabi erir *erdi*,
Birini hukmini ostinda *erdi* bodi sabo...

(TA, 91-bet)

¹ Баъзи вариантлар ўзбек мумтоз адабиёти тилида ҳам бўлган, баъзан ҳозирги шеърятда ҳам учрайди. – (С.Н.)

-endi soʻzi **emdi** shaklida:

Olamgʻa toʻldi ilmu hunar, bizda yoʻq havas,
Aytur otasi oʻgʻlina: xat chiqsa, *emdi* bas...

(TA, 103-bet)

Feʻlning **erdi**, **emdi** shakllari oʻzbek mumtoz tilining oʻzida ham mavjud hodisadir.

Feʻlning hozirgi paytdagi holatiga nisbatan farqli shakllari koʻproq yasovchi, forma hosil qiluvchi morfemalarda kuzatiladi. Ularning baʼzi muhimlarini keltiramiz:

-ar > ur shaklida:

Dilim gʻam chekma koʻb, bir kun kel**ur**, bedor oʻ**lur** olam,
Chiqib bulbullari chah-chah qilur, gulzor oʻ**lur** olam...

(TA, 143-bet)

-gan > gʻon shaklida:

Tramvoydan tusholmay doʻmboloq otgʻ**on**imiz bordur...

(TA, 86-bet)

-sin > sun shaklida:

Oʻz nafsina oroyish oʻlub sol**sun** amorat...

(TA, 87-bet)

Qoʻy, boylaring holina et**sun**la (r) tijorat,

Pullarni qoʻyub bonkaya, top**sun**la (r) ijjorat...

(TA, 87-bet)

-di > mish shaklida:

Dilu jonin jaholat qopla**mish**, yot**mish** mozorida...

(TA, 84-bet)

Che**kmish**lar ilm uchun jabru jafolar...

(TA, 157-bet)

-maydi > miy shaklida:

Ketdi desam, yubormiylar,
Qochsam, dizertir qilalar...

(TA, 235-bet)

-moq > mak shaklida:

Kerak bu kun biza ilma eʼtibor **etmak**,
Funun uyina otil**mak**ni ixtiyor **etmak**...

(TA, 107-bet)

Zamonning odatidur ilmsiz insonlarni yut**mak**,
Abas bir g‘oyasiz dunyoi dundan yaxshilik kut**mak**...
(TA,113-bet)

-dik > duk, – tuk shaklida:
Ibrat ko‘zi-la **boqmaduk** o‘tgan zamonlara...
(TA, 103-bet)

Ayrilib sandan fono bir hola dush**duk** oqibat,
G‘iybatu bo‘zg‘u adovat-la yurisht**uk**.
Xayrdin yuz do‘ndurub oqibat,
Masjidu mehrobu minbarda urusht**uk** oqibat...
(TA,95-bet)

-mayman > mam shaklida
Olamni o‘rab olg‘on g‘avg‘osi nadur, bilm**am**,
Bu odam o‘g‘ullarin da‘vosi nadur, bilm**am**...
(TA, 98-bet)

-dir > dur shaklida:
To‘g‘ri so‘z tuvg‘oniga yoqmay**dur**,
Bu so‘zim**dur** zamon taqozosi...
(TA, 156-bet)

-gan > gon,-g‘on shaklida:
Xalq (n)ing bu qiziqdur**gon** dunyosi nadur, bilmam...
(TA, 98-bet)

Ketib-ketib biza g‘am qoldi bilmag**on**liqdin...
(TA, 107-bet)

Bir xirqani qiynag‘**onim**, mayga olishuv yaxshi...
(TA, 138-bet)

-maydi > mayur shaklida:
Ko‘r ko‘zlarga, oh, **uchramayur**, g‘ayri fiyonlar...
(TA, 87-bet)

Qizlar anoni so‘zlarini **qilmayur** qabul,
O‘g‘li atosining so‘zina **solmayur** quloq...
(TA, 110-bet)

-il > ul shaklida:
Sur**ul**di ilm ila har yon u dam farzini payg‘ambar...
(TA, 105-bet)

Sur**ul**dik dahraro bizlar qatori odamiyatdan...
(TA, 119-bet)

-in > il shaklida:

Yumulmish bizni koʻzlar bu jahon maʼmurini koʻrmay,
Jaholatdin chek**il**may, roʻshnolik nurun koʻrmay...

(TA, 101-bet)

Yasharmiz tobakay Hijron, chek**il**masmizmi zulmatdan.

(TA, 101-bet)

-gusi > gʻusi shaklida:

Millat yoʻlina qilgʻ**usi** yoʻq bir pulin fido...

(TA, 111-bet)

-ib > ub shaklida:

Diqqat-la boqur boʻlsang, aqlingni bosur hayrat,
Haq pastda qol**ub**, nohaq pul birla topur quvvat...

(TA, 98-bet)

Uygʻon**ub**, koʻzni och**ub** boʻlgʻaymukin bedor-biz?

(TA, 99-bet)

-ik > imiz shaklida:

Ilmi hikmatlarni tanlab **qildimiz** jonga jafo...

(TA, 106-bet)

Hamma ilmu funun olsa, biz gʻaflatni old**imiz**,
Qilub bir necha kun toʻy, surnayu karnayni **choldimiz**.

(TA, 115- bet)

-gin –gʻin > gʻil shaklida:

Sogʻ emasman, bequtu bemorman deb yigʻlagʻ**il**...

(TA, 173-bet)

Manga kim dedi oni olgʻ**il** deb,
Kim buyurdi koʻzingga solgʻ**il** deb...

(TA, 209-bet)

-man > am shaklida:

Tamanno **aylaram** sandan, yotursan tobakay koʻz och...

(TA, 109-bet)

Maktabga borub soboq olur**am**,
Oʻqumasam san kabi chafan qolur**am**...

(TA, 196-bet)

Sovuq, sahar demay, tun-kun **ishlaram**,
Mehnat mashaqqatda qoq non **tishlaram**...

(TA, 205-bet)

-sa > za shaklida:

Bilmaz**am**, mabhublaring buncha istigʻnosi bor...

(TA, 96-bet)

Na sabab bor bilmaz**am** munda...

(TA, 214-bet)

-qa > gʻa shaklida:

Xiylasin Qargʻa soriga burdi,

Qargʻani tutmogʻ**a** tuzoq qurdi...

(TA, 215-bet)

-labdi > mish shaklida:

Dunyoni arslon kabi tirnoqla**mish** bechoralar...

(TA, 97-bet)

Gʻayrati tufrogʻa doʻnmish bu aziz boshlarni koʻr...

(TA, 97-bet)

-gan > an, yan shaklida:

Har dardning oʻlur chorasi, har yigʻla**yan** oʻlmaz...

(TA, 101-bet)

Yigʻlagan shod oʻlur, **kulan** yigʻlar,

Har daqiqa boʻlak zamon koʻrinur...

(TA, 202-bet)

-lik > luk, -luq shaklida:

Tur, ey millat, uyqudan, hasratlashay**luk**,

Ilm uyiga kirmoqgʻa suhbadlashay**luk**.

Yotma millat, uxlama, bedorlashay**luk**,

Milliy ishlar, ishlarga, tur, bel bogʻlashay**luk**...

(TA, 154-bet)

-bon shaklidagi holatlar:

Nokaslara Hijron oʻlu**bon**, oʻlma muxotib...

(TA, 88-bet)

Oʻyna**bon** qarta-qimor pullarini boy berib**bon**...

(TA, 161-bet)

Osh berub, toʻn berib**bon** qoʻynini toʻldur-toʻldur...

(TA, 161-bet)

-mi > mu shaklida:

Falak kajraf bizi agʻfola aylandirdi**mu**, yo rab,

Va yo xurshidi nuri koʻzlari tindirdi**mu**, yo rab...

(TA, 83-bet)

-mish shaklidagi holatlar:

Molu jondin ayrilmish,
O'tga tushib qovrilmish,
Vatanidan sovrilmish,
Sayra, bulbul, yig'lab-yig'lab ochlar holina...

(TA, 224-bet)

Zolim falak xor etmish,
Parcha nonga zor etmish...

(TA, 229-bet)

-di > gay shaklida:

Bu jahliston eliga va'zlar kor etmagay, faryod,
Bu sangin dillari tepkular ozor etmagay, faryod...

(TA, 85-bet)

-uv > guv-g'uv shaklida:

Alafdan da'vo qilguvchi bin luqmonimiz bordur...

(TA, 85-bet)

Yo'q bizda bir kishi sani holingni bilg'uchi...

(TA, 105-bet)

-gay > g'ay shaklida:

Gar faqir o'lsa, ochligidankim,
Bo'lmag'ay boyni zarra parvosi...

(TA, 156-bet)

Yuqorida tahlil qilingan hodisalar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Avloniy she'riyati tilida uchraydigan fonetik, lug'aviy, morfologik variantlar shoir yashagan davrdagi o'zbek adabiy tilidagi normativ va anormativ talaffuz xususiyatlarini o'zida ifoda etgan. Bu hol o'sha davr o'zbek adabiy tilida so'zlar, morfologik vositalarga xilma-xil qarashlar mavjudligini ko'rsatadi. Tahlil qilingan bir qator variantlar so'zlashuv uslubi xususiyatlarini aks ettirsa, ularning ba'zilarida she'riy nutqning qofiyalash talablarining ehtiyojlari ifodalangan. Variantlarning aksariyati hozirgi o'zbek tili fonetik-orfoepik, so'z yasalishi va morfologik me'yorlari uchun arxaik hodisaga aylangan.

Yuqorida aytilgan fikrlar shunday xulosaga kelish huquqini beradi:

Abdulla Avloniyning o'zbek adabiy tili, xalq tili boyliklarini yaxshi bilganligi uning o'z she'riyati tilida frazemalar, maqollar, so'zlarning uyushiq holdagi takror usulidan foydalanganligida yorqin

ko‘rinadi. Shoir xalq tili boyliklarini o‘z she‘rlari matnida qo‘llaganida ularning mazmun va shakliga ijodiy, ongli munosabatda bo‘lgan. Bu shoirning ba‘zi frazemalar, maqollarni ijodiy qayta ishlagani, ularni shaklan o‘zgartirib, she‘riy til talabiga moslab qo‘llaganida o‘z ifodasini topgan. Tilga olingan uslubiy vositalar Abdulla Avloniy she‘rlari tilining uslubiy hamda ekspressiv imkoniyatlarini oshirgan, uni xalq tili va didiga yaqinlashtirgan, o‘qimishliligini ta‘minlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Ilmiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сонли “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги қонуни қабул қилинганлигининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги қарори // “Маърифат” газетаси. – Тошкент, 2019 йил 5 октябрь. – №77.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чоратадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

II. Ilmiy adabiyotlar:

1. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Халқ мероси, 2004. – 116 б.

2. Абдуллаева А. Употребление народных пословиц в романе Абдуллы Каххара «Огни Кошчинара» // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1971. – № 188. – 98 б.

3. Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979. – 150 с.

4. Абдурауф Фитрат миллий феномени, адабий, илмий – назарий мероси, ижтимоий – сиёсий фаолиятига бағишланган биринчи жумҳурият илмий-амалий анжумани материаллари. (Бухоро, 21-23 май, 1992 й). – Бухоро, 1992. – 122 б.

5. Абдурахмонов Ғ. Беҳбудий ва унинг ҳозирги ўзбек адабий тилининг шаклланишидаги хизматлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. №3. – Б. 8-12.

6. Афоқова Н. Жадид шеърини поэтикаси (вазн ва қофия муаммолари). – Тошкент: Фан, 2005. – 140 б.

7. Бакиева Г. Идеи и методы современной лингвистики текста в преподавании русского языка. – Ташкент: Ўқитувчи, 1992. – 120 с.

8. Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлониий ижоди. – Тошкент: Фан, 2004. – 158 б.

9. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 158 б.

- 10.Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг тарихий-этимологик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1981. – 180 б.
- 11.Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
- 12.Благова Г.Ф. Языковые контактирования в тимуридских государствах по данным ареального исследования // Сов.тюркология. – Баку, 1984. – №3. – 125 с.
- 13.Бобоева С. Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 1989. – 53 б.
- 14.Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. – Тошкент: Фан, 1995. –132 б.
- 15.Боровков А.К. О языке узбекской поэзии // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1961. – № 10. – 112 с.
- 16.Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Ташкент: Учпедиздат, 1941. – 104 с.
- 17.Виноградов В.В. Проблемы литературных языков и закономерностей их образования и развития. – М.: Наука, 1967. – 132 с.
- 18.Гулямов А. Развития узбекского литературного языка в советский период // Известия АН Уз ССР. – № 5. 1948. –142 с.
- 19.Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. – Ташкент: Фан, 1983. – 168 с.
- 20.Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985. – 112 с.
- 21.Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990. – 213 с.
- 22.Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – 156 б.
- 23.Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988. – 208 б.
- 24.Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўздавнашр, 1962. – 316 б.
- 25.Ёриев Б. Шайхзода поэмасида мақол ва афоризмлар // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1977. – № 325. – 128 б.

26.Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланишдаги маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. – №4. – 55 б.

27.Иброҳимов А. Бобур “Девони” тилидаги ўзлашма қатлам. – Тошкент: Фан, 2006. – 107 б.

28.Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – 151 б.

29.Йўлдошев Б. Алишер Навоий асарларида фразеологизмлар. Алишер Навоий ижодини ўрганиш масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1981. – 100 б.

30.Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 1982. – 122 б.

31.Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ, 1999. – 106 б.

32.Йўлдошев Б., Қурбонов Т. Бадиий асар тили ва услуби масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 2006. – 87 б.

33.Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 160 б.

34.Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент: Фан, 2007. – 111 б.

35.Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 78 б.

36.Казаков Ш. Семантико-стилистические особенности эмоционально-оценочной лексики драм Хамзы. – Ташкент: Фан, 1990. – 132 с.

37.Камалов Ф. История становления и развития узбекского национального языка // Вопросы изучения языков народов Средней Азии и Казахстана. – Ташкент, 1952. – 136 с.

38.Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 326 б.

39.Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ, 1994. – 127 б.

40.Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – 191 б.

41.Каримов С. Язык поэзии Зулфии. – Самарқанд: СамГУ, 1987. – 76 с.

42.Каримов С. Бадиий матннинг услубий аломатлари. – Самарқанд: СамДУ, 1992. – 42 б.

43.Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: СамДУ, 1992. – 293 б.

44.Қиличев Э. С.Айний асарларида грамматик архаизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. – №1. – Б. 70-74.

45.Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 159 б.

46.Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 104 б.

47.Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Бухоро: Бухоро университети, 2001. – 226 б.

48.Қиличев Э. Эскирган фразеологик бирликларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. – № 4. – Б. 65-68.

49.Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – 88 б.

50. Қори Ниёзий Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерklar. – Тошкент, 1956. – 514 б.

51.Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 400 б.

52.Қосимов Б. Адабиёт ва инқилобий ҳаракат (айрим мулоҳазалар) // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1984. – №1. – Б. 22-28.

53.Қосимов Б. Ватан ва миллат муқаддасдир. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 104 б.

54.Қосимов Б. Маслакдошлар (Беҳбудий, Ажзий, Фитрат). – Тошкент: Шарқ, 1994. – 156 б.

55.Қосимов Б. Ҳаёт кўзгуси (адабий-танқидий мақолалар). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984. – 136 б.

56.Қосимов Б., Долимов У. Маърифат дарғалари. – Тошкент: 1990. – 176 б.

57.Кунгуров Р. Стилистика имени существительного в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1983. – 161 с.

58.Қурбонов Т. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – 132 б.

59.Қурбонова М. Фитрат тилшунос. –Тошкент: Университет, 1996. – 29 б.

60.Қурбонова М. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. – Тошкент: Университет, 1997. – 47 б.

61.Кучкартаев И. О работе А.Каххара над языком своих произведений // Науч.Труды ТашГУ. – №519. – Ташкент, 1976. – 143 с.

62.Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик-стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – 166 б.

63.Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд: СамДУ, 1975. 1-қисм. – 238 б.

64.Қўнғуров Р., Каримов С. Зулфия поэзияси тилининг луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 273 б.

65.Қўнғуров Р., Каримов С. Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти (библиографик кўрсаткич). – Самарқанд: СамДУ, 1984. – 100 б.

66.Қўчқортоев И. Абдулла Қахҳорнинг бадий текстни ихчамлаштириш устида ишлаши // ТошДУ илмий асарлари тўплами. – №486. – Тошкент, 1975. – 107 б.

67.Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – 96 б.

68.Қўчқортоева Р. Абдулла Қахҳор асарларининг турли нашрларидаги баъзи семантик-стилистик тузатишлар ҳақида // ТошДУ илмий асарлари тўплами. – №475. – Тошкент, 1978. – 73 б.

69.Лапасов Т. Бадий матн ва лисоний тадқиқ. – Тошкент: Фан, 1995. – 98 б.

70.Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 122 б.

71.Маҳмудов Н. Абдулла Қахҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36.

72.Маҳмудов Н. Ойбек шеърисидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51.

73.Мелиев С. Шеърини сўз // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. – № 6. – Б. 42-47.

74.Мирзаев И. Бадий услуб сеҳри. – Самарқанд: СамДУ, 2000. – 132 б.

75.Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 284 б.

76.Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 2010. – 222 б.

77.Муталлибов С. Навоийдаги ҳикматли сўз ва иборалардан намуналар // Адабий мерос. – Тошкент, 1976. – №6. – Б. 67-75.

78.Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1982. – 88 б.

79.Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.

80.// Ойна. – Самарқанд, 1914. – №15. – Б. 24

81.Расулов И. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1993. – 213 б.

82.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966. – 510 б.

83.Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. – Тошкент: Фан, 1955. – 320 б.

84.Решетов В.В. Лексический состав современного узбекского языка // Проблемы языка. Вып. 1. – Ташкент, 1934. – С. 41-52.

85.Решетов В.В. Узбекский литературный язык. Часть 1. – Ташкент, 1959. – 359 с.

86.Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 320 б.

87.Рустамов Ҳ. Сўз эстетикасига оид баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – № 5. – Б. 52-61.

88.Самадов Қ. Ойбек сўз санъаткори. – Тошкент: Фан, 1965. – 32 б.

89.Самадов Қ. Ўзбек тили услублари. – Тошкент: Фан, 1991. – 54 б.

90.Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 158 б.

91.Солижонов Й. Бадиий нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1979. – № 2. – Б.71-75.

92.Стилистика ва прагматика. Профессор Суюн Каримов таваллудининг 60-йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – 167 б.

93.Турдиалиев Б. Ҳамза ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1981. – 104 б.

94.Тўйчибоев Б. Фитрат –тилшунос. – Тошкент, 1995. – 56 б.

95.Умаров Э. Фразеологическая контаминация в языке Алишера Навои // Советская тюркология. – Баку, 1974. – №5. – С. 22-27.

96.Умурқулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – 132 б.

97.Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 110 б.

98.Усманов А. Вопросы узбекской научной терминологии // Вопросы изучения языков народов Средней Азии и Казахстана. – Ташкент, 1952. – 188 с.

99.Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1960. – 320 б.

100. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Т. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. –Тошкент, 1990. – 216 б.

101. Ўринбоев Б., Курбонов Т. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Самарқанд: СамДУ, 2006. – 164 б.

102. Фахри Камол. Ўзбек тили лексикаси. – Тошкент: ЎзФА, 1953. – 44 б.

103. Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2008-2010 йил сонлари.

104. Чориев Б. Ғафур Ғуломнинг шеърляти тили. – Тошкент, 1990. – 112 б.

105. Шарафиддинов О. Истиқлол фидоийлари (Мустафо Чўқай, Чўлпон, Отажон Ҳошим). – Тошкент: Шарқ, 1993. – 137 б.

106. Шоабдурахмонов Ш. Ойбек романларининг тили // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1955. –№10. – Б. 44- 49.

107. Шукуров Н. Бадиий услуб ва бадиий тил // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. – № 3. – Б. 3-9.

108. Шукуров Н. Ғафур Ғуломнинг лирик поэзиядаги маҳорати. –Тошкент: Фан, 1966. – 136 б.

109. Шукуров Р. Сўз вариантларининг лексик-семантик дифференцияси. – Тошкент: Фан, 2006. – 164 б.

110. Шукуров Р. Сўзнинг морфологик вариантлари. – Тошкент: Фан, 1990. – 93 б.

111. Юлдашев Б. Стилистический анализ узбекской художественной прозы. – Ташкент: Ўқитувчи, 1989. – 133 б.

112. Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974. – 116 б.

113. Янгибоева Н. Миён Бузрук ва сўз танлаш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007. – № 6. – 101 б.

III. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

1. Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадий нутқида кулги кўзғатувчи лисоний воситалар: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 23 б.

2. Абдиев Э. Язык и стиль драм Камила Яшина: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 20 с.

3. Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1946. – 27 с.

4. Абдуллаева Л. Стилистическая дифференциация лексики узбекской художественной литературы: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1980. – 38 с.

5. Абдулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик қатламлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 26 б.

6. Абдуназаров А. Некоторые вопросы развития лексики и фразеологии узбекского литературного языка 20-х годов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 23 с.

7. Ахматов Н. Лексика “Шайбони-наме» Мухаммада Салиха. Сравнительно-исторический словарь языка «Шайбани-наме»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 25 с.

8. Бабаева С. Лексико-стилистические особенности поэзии Хамида Алимджана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 17 с.

9. Бакиева Г. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1993. – 46 с.

10.Бафаев Б. Лексика произведений Алишера Наваи: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 44 с.

11.Бектемиров Х. Исследование языка произведений Йусуфа Амири: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1973. – 27 с.

12.Бобожонов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 23 б.

13.Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 24 б.

14.Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвистик-стилистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 22 б.

15.Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б.

16.Дониёров Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига хослиги: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 23 б.

17.Жумаев А. XV аср ўзбек намояндалари асарлари тили лексикасининг қиёсий таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 25 б.

18.Жумаев Т. Умар Боқий асарларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 23 б.

19.Зоҳидов Р. “Сабот ул – ожизин” асари лексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 26 б.

20.Ишандадаев Д. Некоторые особенности словообразования в таджикских и узбекских говорах. Наманганской группы районов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967. – 26 с.

21.Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари докт ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 49 б.

22.Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида): Филол. фанлари номзоди .. дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 24 б.

23.Каримов Г. Некоторые вопросы развития узбекского литературного языка 20-30 годов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 26 с.

24.Каримов С. Язык и стиль произведений Зулфии (на материале поэзии): Автореф. дисс. ... канд филол. наук. – Ташкент, 1982. – 37 с.

25.Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фанлари докт ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 50 б.

26.Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нутқида антитеза (Э.Воҳидов шеърлари мисолида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б.

27.Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б.

28.Кучкартаев И. Фразеологические новаторства Абдуллы Каххара: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 23 с.

29.Мамажонов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 59 с.

30.Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шакллари масалалари: Филол. фанлари докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 53 б.

31.Маматов А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фанлари докт ... дисс. автореф. – Тошкент, 1991. – 52 б.

32.Махмадмуратов Ш. Язык “Дивана” Хамзы Хаким-Заде Ниязи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. – 37 с.

33.Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 42 с.

34.Мухамаджанова Г. Некоторые вопросы развития узбекской лексики: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 35 с.

35.Насыров И. Лексика «Маджалис ан нафаис» Алишера Наваи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1980. – 29 с.

36.Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.

37.Рахматуллаев Ш. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1952. – 40 с.

38.Рахматуллаев Ш. Некоторые вопросы узбекской фразеологии: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1966. – 37 с.

39.Рустамов М. Лексика языка дивана Гадаи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 20 с.

40.Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 24 б.

41.Санакулов У. Исследование языка памятника XV века «Мухакамат ул-лугатайн» Алишера Наваи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – 29 с.

42.Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 26 б.

43.Тожибоев М. Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик- семантик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.

44.Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 27 б.

45.Турдиалиев Б. Хамза и узбекские литературные язык начало XX века: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 27 с.

46.Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.

47.Умуркулов Б. Лексические особенности современной узбекской поэтической речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983. – 18 с.

48.Умуркулов Б. Ўзбек бадий прозаси тилининг луғавий хусусиятлари: Филол. фанлари докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 32 б.

49.Усманов Х. Лингвостилистические особенности языка Лютфи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 21 с.

50.Файзуллаев Б. Диалектизмы в языке художественных произведений: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1979. – 24 с.

51.Халилов А. “Нусратнома” асари тилининг морфологик қурилиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 27 б.

52.Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр» Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. – 19 с.

53.Худойбергенов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.

54.Чарыев Б. Некоторые вопросы лексики поэзии Гафура Гуляма: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 29 с.

55.Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 23 б.

56.Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърининг лингвопоэтикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 28 б.

57.Юлдашев Т. Навоий ва Бобурнинг ислом фарзларига бағишланган асарларида қўлланган шаръий атамаларнинг

лисоний таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – 22 б.

58. Юсупов К. Языковые взаимодействия узбекского и таджикского народов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1957. – 30 с.

59. Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 48 б.

60. Яриев Б. Язык поэзии Максуда Шайхзаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1979. – 22 с.

61. Қурбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 19 б.

IV. Badiiy adabiyotlar:

1. Абдулла Авлоний. Тошкент тонги. Тўпловчи ва сўз боши муаллифи Бегали Қосимов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 391 б.

2. Абдулла Авлоний. Адабиёт ёхуд миллий шеърлар. 1-жузъ. 1-таъби. – Тошкент, 1909.

3. Абдулла Авлоний. Иккинчи муаллим. – Тошкент, 1912.

4. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдик. – Тошкент: Маънавият, 1998. 1-жилд. – 272 б.

5. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдик. – Тошкент: Маънавият, 1998. 2-жилд. – 304 б.

6. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.

7. Абдулла Авлоний. Ўсон миллат. – Тошкент: Шарқ, 1993. – 144 б.

8. Бобур З.М. Танланган асарлар. – Тошкент: ЎзФА, 1958. – 371 б.

9. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 512 б.

10. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 509 б.

Sultonbek Normamatov

ABDULLA AVLONIY SHE'RIYATI LEKSIKASI

Monografiya

Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.

Monografiyada keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma'lumotlarning aniqligiga, hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik Muallifning zimmasidadir.

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2025.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 7,1. Shartli bosma taboq 7,4.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

[t.me/ Bookmanyprint](https://t.me/Bookmanyprint) ☎ +998 99 180 97 10